

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



“XALQ PEDAGOGIKASI”

fanidan

**O' QUV – USLUBIY
MAJMUА**

Bilim sohalari:

100 000 – Gumanitar soha

Ta'lif sohasi:

110 000 – Pedagogika

Ta'lif yo'nalishi:

60110100 – Pedagogika va psixologiya

Namangan 2023

Mazkur o‘quv-uslubiy majmuada “**Xalq pedagogikasi**” faniga doir me’yoriy ta’minot (o‘quv dasturi, ishchi fan dasturi), ta’lim texnologiyalari o‘z aksini topgan.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga mazkur o‘quv-uslubiy majmuadan ilmiy tadqiqotchilar hamda “**Xalq pedagogikasi**” fani bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar:

p.f.f.d. (PhD) O.Akbarov

Taqrizchilar:

**p.f.d,(DSc), prof. O‘.Asqarova
p.f.n., dots. M. Nishonov**

O‘quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Ilmiy kengashining 2023-yil 29-avgustdagи 1-sonli qaroriga ko‘ra, o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

2023-yil _____dagi 1-sonli yig‘ilish bayoni.

“Pedagogika” fakulteti dekani:

M.Boltayeva

“Pedagogika nazariyasi va tarixi”

kafedrasi mudiri:

D.Inamov

1. O‘TILAYOTGAN FANNING NAZARIY MATERIALLARI

MA'RUZA MATERİALLARI

1-MAVZU: XALQ PEDAGOGİKASINING PEDAGOGIKA TİZİMİDAGI O'RNI. KURSNING PREDMETI, OB'EKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI.

Reja

1. Xalq pedagogikasini o'rganishning maqsidi.
2. Milliy pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Xalq pedagogikasining vazifalari.

Tayanch iboralar: Xalq pedagogikasi, milliy pedagogika, milliy tarbiya, xalq tajribalari, ta'lif tarixi, tarbiya tarixi, Avesto, Zardo'shtilik dini.

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita boq'liqidir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lif-tarbiya sohasida, milliy odob-ahlojni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va pokiza ahloq-odobli qilib tarbiyalash bilan bevosita boq'liq ekanini yoddan chiqarmaslik lozim.

O'zbek xalq pedagogikasi ta'lif-tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun

yaratgan. O'zbek madaniyati, sharqona milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti moziygacha borib yetgan tarixiy ildizlar orqali oziqlanadi.

Allomalarimiz «Agar kishiga hayotning o'zi berolmasa ta'lif, unga o'rgata olmas hech bir muallim» deya nasihat qiladilar, bu inson o'z tafakkuri yordamida ta'lif-tarbiya olishi, odob-ahloq normalarini egallashi, o'zi yashayotgan jamiyat, insongarchilik xulq-atvoriga xos, ma'naviy-ahloqiy ko`nikma va malakalarni o`zida mujassamlashtirish lozimligini taqozo etadi.

Respublikamizda «Xalq pedagogikasi» fanini o'rganishga katta e'tibor bermoqda. Ayniqsa, bu fan pedagoglar, umumiy ta'lif mакtablarining milliy sinflari o'qituvchilari uchun, oliy o`quv yurti talabalari uchun, aspirant va magistrlar uchun zarurdir.

Xalq pedagogikasi – ijtimoiy hayot va jamiyat taraqqiyotida muhim jarayon bo`lgan inson tarbiyasi, uning shakllanishi, ijtimoiy me'yorlarni o`zlashtirishini o'rganish bilan birga xalqning qadimiy tarbiya usullarini, qo'shiq, topishmoq, maqol va o`yinlarini to`playdi, umumlashtiradi, tizimga soladi va ta'lif jarayoniga tadbiq etadi.

Xalq pedagogikasi tarbiyada oilaning muhim qirralarini ochib beradi. Oilada otanonning o'rni, ularga nisbatan farzandlar munosabatlari, bolalarni otalarining qudratiga ishonch ruhida tarbiyalash, onaning beqiyos mehnatlarini qadrlashga o`rgatish, tarbiyada hamma vaqt samara berib kelgan.

Shu o'rinda Xalq pedagogikasi tarixiga nazar tashlab o'tish o`rinli. Buyuk pedagoglar ko`proq xalqning pedagogik tajribalariga e'tibor qaratgan. Chunki xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi va unga tayanch bo`lib xizmat qiladi.

Buyuk pedagog Ya. A. Komenskiy ham o'zining faoliyatini xalq oq'zaki ijodi, uning urf-odatlari, qadriyatlari to`q'risida material to`plashdan boshlagan.

X.X.Niyoziy «Xalq pedagogikasi zamirida pedagogika fani shakllangan, rivojlangan» - deb ta'rif beradi. U yana o'zbek xalqi tarbiya sohasida o'ziga xos tizimga ega ekanini aytib o'tadi. X.X. Niyoziy fikricha xalqni tarixiy tarkib topishida xalq tarbiyasi

muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Xamzaning hikoyalarida, dramalarida, pesa va povestlarida xalq pedagogikasi o`z ifodasini topgan. Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib boyib borishining fuqaro, Vatan taqdirida hal qiluvchi rolining boisi, birinchidan uning hayotiyligi, ta'sirchanligi serqirra, serma'noligida bo`lsa, ikkinchidan uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, yashashi, hayot inson muammolarini qamrab olishi tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani uchinchidan, umuminsoniy yo`nalishga, umumbashariy q'oya – maqsadlarga qaratilgan bo`lganligidir.

Xalq pedagogikasi fani orqali, mutafakkir olimlar o`gitlaridan baxra olish va tarbiya jarayoniga tadbiq etish, qadriyatlar, udumlar urf-odatlarga sodiqlik, ilm olish, ustozlar qadriga yetish, oila mustahkamligiga erishish, xalqqa muhabbat, hayotni sevish, milliy odob-ahloq ma'yorlariga itoat qilish kabi jihatlarni tarbiyalash amalga oshiriladi.

“Avesto”dagi ta’limiy-axloqiy g’oyalar

The Avesta /ə'vestə/ is the primary collection of sacred texts of the ancient Aryan religion known as Zoroastrianism, composed in the otherwise unrecorded Avestan language. The Avesta texts fall into several different categories, arranged either by dialect, or by usage. The principal text in the liturgical group is the Yasna, which takes its name from the Yasna ceremony, Zoroastrianism's primary act of worship, and at which the Yasna text is recited. The most important portion of the Yasna texts are the five Gathas, consisting of seventeen hymns attributed to Zoroaster himself. These hymns, together with five other short Old Avestan texts that are also part of the Yasna, are in the Old (or 'Gathic') Avestan language. The remainder of the Yasna's texts are in Younger Avestan, which is not only from a later stage of the language, but also from a different geographic region.¹

Avesto o'zida dastlabki Zardushtiylik dininomi bilan mashhur bo`lgan muqaddas matnlari toplami iborat. Kitob o'sha davr lahchasideyozilgan. “Avesto” matnlari ma'lum tartibda joylashgan bo'lib, umurojaat mazmuniga ega. Avestoning asosiy qismi Yasna deb yuritiladi, Yasna atamasi marosim nomidan olingan. Zardushtiylikka bag'ishlangan madhiyalardan iborat. Yasnaning asosiy 5 iborat bo'lib, ularning 17 bobি Gotlar deb yuritiladi. Yasnaning tarkibiy qismi bolgan eng qadimgi Avesto Avesto tilida yozilgan. Yasnaning matni parchalarida Kichik Avesto bayon qilingan ma'lumotlar orqali nafaqat til haqida, balki o'sha hududga doir muhim geografik ma'lumotlar aks etgan.

Zardushtiylar hayotining Asosiy qismmazmuni xayrli ish, shirin so'z, olijanob oy-fikrdan iborat bo`lgan. Insonning Asosiy qisimburchi adolatli turmush tarzi bo`lmog'i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishini ko'zlab yashash kerak: yolg'on gapirmaslik, so'zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq.

O`zbek xalqi bugungi mustaqillikni qo`lga kiritgan bir davrda ota-bobolar, ajdodlar erishgan yutuqlardan faxrlangan holda ularning boy tajribalarini chuqr tahlil va tadqiq etish puxta o`rganish zarur. Bu esa yoshlarda bobolar ishlardan, nasl-nasabidan faxrlanish tuyq'ularini vujudga keltiradi va ular o'tmisht an'analariga sodiq bo`lishga harakat qiladilar.

Tarbiya – doimiy va izchil takrorlash, ishontirish mevasidir. Boshqacha aytganda doimiy va izchil takrorlash, dalillar asosida tushuntirish ishonch tuyq'ulari hosil qilinadi.

Shunday qilib, universitet va pedagogika oliy o`quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalar o`zbek xalq pedagogikasini quyidagi maqsadlarda o`rganish imkoniyatiga ega bo`ladi. birinchidan O`zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida milliy mafkura tamoyillarini

¹<https://en.wikipedia.org/wiki/Avesta>

egallaydi. Ikkinchidan, mutaxassis sifatida yosh avlodga milliy q'oya va milliy mafkura mohiyatini tushuntira olish ko`nikmasini hosil qiladi. Prezidentimiz aytganlaridek, biz kelajagimizni bugungi yoshlarga ishonib yashayapmiz. Bugungi talaba ertangi rahbardir. U qanchalik ma'naviy barkamol, qo`li, dili, vijdoni pok bo`lsa, kelajagimiz shu qadar buyuk bo`ladi. bu esa Siz bilan bizga, bo`lq'usi rahbarlarning tarbiyachilariga ko`p jihatdan boq'liq.

Har bir shaxs, xalq va millatning o`ziga xos orzu-umidlari va ma'naviy qarashlari bo`ladi. Ular orasida ta'lif va tarbiyaga bo`lgan ehtiyoj alohida o`rinni egallaydi. Chunki har bir soq'lom insonda tinmay bilim olib turish ehtiyoji mavjud. Aslida fikr doirasi keng va tarbiyali insongina o`zini erkin va baxtli his qiladi.

Har qanday davlat o`z xalqining taraqqiyot bosqichiga mos ijtimoiy tuzumni tanlab oladi. Davlatning ma'rifat tizimi jamiyat tanlab olgan tuzumning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga yo`naltirilgan bo`ladi.

Bizning bugungi maorif tizimimiz demokratik davlat va bozor munosabatlariaga asoslangan bo`lishi zarur.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov birinchi chaqiriq Respublika Oliy Majlisining birinchi ssesiyasida qilgan ma'rzasida hur O`zbekistonda Demokratik tuzumni barpo eta borish bilan birga, amalga oshirilayotgan ulkan o`zgarishlarning asosiy ishtirokchilari bo`lgan jamiyatimiz a'zolarining ma'naviyatini butunlay yangicha qaror toptirish lozimligini aytgan edi. Bu fikrlarni Prezidentimiz keyingi chiqishlarida ham bir necha bor ta'kidladi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tarixiy o`n to`rtinchisessiyasida so`zlagan nutqida jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish va kadrlar masalasini O`zbekistonning XXI asrda rivojlanishining eng ustivor yo`nalishlardan biri sifatida olq'a suradi.

Kelajagi buyuk davlatni qurayotganlar tafakkuri, ahloqi yangi iqtisodiy munosabatlarni tarkib toptirishga va moddiy ne'matlar yaratishga astoydil yo`naltirilgan bo`lishi lozim. Mana shunday ijobjiy xislatlarga ega bo`lgan insonni tarbiyalash ta'lif-tarbiya tizimi zimmasiga yuklatilgan.

Yaqin o`tmishimizdagи «soviet pedagogikasi»ning ta'lif-tarbiya berish usullari barcha odamlar bir xil qobiliyatga, bir xil dunyoqarashga, bir xil ehtiyoja ega, degan ijtimoiy hayot qonuniyatiga zid, «taqlid qilish» usuliga asoslangan edi. Shu bilan birgalikda, o`qishga hammani jalb qilish maqsadida didaktikaning olti qoidasi bo`lgan diqqat qildirish tamoyiliga zid holda o`qitishga harakat qilindi. Vaholanki, pedagogika ilmi va amaliyotining ma'lumotiga qaraganda, o`qituvchi talabalar diqqatini o`ziga qaratib, uni dars oxirigacha saqlab turish uchun sinfdagi bolalar soni 15-20 dan oshmasligi kerak ekan. Aks holda, darslarni ijro bo`lmasligiga, yosh avlodni esa, «maktabga borib keluvchilar», «bitiruvchilar» va «hech narsani bilmaydigan» kishilar toifasiga aylantira boradi.

Undan tashqari, «kommunizm kishisi» andozasidan kelib chiqib, hammani birday tezkorlik bilan bilimdon qilib tarbiyalash maqsadida o`qishning har bir bosqichida haddan tashqari ko`p fanlar kiritilib, hatto o`rtacha qobiliyatga ega bo`lgan bola ham bilimini qabul qilish imkoniyatidan mahrum bo`ldi. Natijada o`quvchi va talabalar me'yordan ancha ko`p axborotni ongiga siq'dira olmasdan, bora-bora o`qishga loqayd munosabatda bo`la boshlaganlar. Berilayotgan bilimni to`liq egallayman, degan tirishqoq bolalar bu bilimlarni faqat taqlid usuli orqali yod olib ulgurishgan, xolos. Mexanik ravishda yod olingen bilim turq'un bo`lmay, bola xotirasidan tez o`chib ketadi.

Shu bilan birgalikda «soviet pedagogikasi» o`ta mafkuralashtirilgan bo`lib, faqat materialistik dunyoqarash, sinfiy qarama qarshilik, milliy va hududiy xususiyatlarni hisobga olmaslik va hokazolar barcha fanlar, shu jumladan pedagogika fani maq'iz-maq'ziga singdirilgan edi. Bunday jonsiz nazariy pedagogik adabiyotlarni tubdan qayta ko`rib chiqib, milliy istiqlol mafkurasi va XXI asrdagi O`zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo`nalishlaridan kelib chiqqan holda, jahon ilq'or pedagogik fikrlari asosida milliy pedagogika dastur va darsliklarini yaratish zarur.

Milliy pedagogika deganda davlat konstitutsiyasi, ta'lim to`q'risidagi qonun hamda istiqbol rivojlanish dasturlari, jamiyatning tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini va jahondagi ilq'or pedagogik texnologiyalar asosida tuzilgan ta'lim-tarbiya nazariyasi, usul va uslublar majmui tushiniladi.

Har qanday davlatdan yuqori taraqqiyot darajasiga erishish uchun, eng avvalo, iqtisodiyotning ustivorligini ta'minlash, mavjud tabiiy, iqtisodiy va inson resurslarini ishga solish va eng asosiysi odamlar ma'naviyatini zamon talabiga javob beradigan tarzda shakllantirish talab etiladi.

Ma'naviyat – bu shaxsnинг egallagan foydali bilimlari (bilim turidan qat'iy nazar) uning hayotida bir necha bor takrorlanishi natijasida ko`nikma va malaka bosqichlaridan o`tib, ruhiga singib, uning hayot tarziga aylanib ketgan ijobjiy ijtimoiy sifatlaridir. Demak, ma'naviyat, axloq va odob madaniyati, dunyoni ilmiy bilish ma'naviyati, texnik ma'naviyat, kasbiy ma'naviyat va boshqalar. Axloq va odob ma'naviyati inson ijtimoiy mohiyatining eng ustki qobiq'ini tashkil qiladi. Shuning uchun ba'zilar ma'naviyatini kishining axloq va odobiga oid bilimlarining hayotda aks etishi, deb tushuniladi. Bu ma'naviyatni tor ma'noda tushunishdir.

Kishi bilimni qanchalik chuqur egallagan bo`lsa hamda bu bilimlarni amaliyotda qanchalikko`p qo`llagan bo`lsa, uning ma'naviyati shunchalik boy va mukammal bo`ladi.

Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay oladi, aksincha, bilimi kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul ko`rishini hayotning o`zi ishonarli tarzda isbotlamoqda».

O'zbekiston xalqi asriy orzusi – mustaqillikka erishib, barqaror taraqqiyot yo`lidan bormoqda. Endilikda xalqimiz o`z taqdirining haqiqiy egasi, o`z tarixining ijodkori, milliy ma'naviyat va qadriyatlarning chinakam sohibiga aylanmoqda. Milliy ana'nalar, dinimiz, tariximiz qaytadan tiklanmoqda, o`zligimizni tobora chuqur anglab yetmoqdamiz.

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan jamiyat maorifchiligi oldiga xalq xo`jaligi uchun zamonaviy va yuqori malakali kadrlarni tayyorlab berishdek ijtimoiy buyurtmani ko`ngdalang qilib qo`yan.

Respublikamizda yuqori malakali va ma'naviyatlari kadrlarni tarbiyalab yetishtirish maqsadida bir qator qonun va me'yoriy hujjatlar yaratilgan.

Prezidentimiz «Ta'lim to`q'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni tahlil qilar ekan, ta'lim-tarbiya islohotini bosqichma-bosqich o`tkazish maqsadga muvofiq, deb ta'kidlagandi. Birinchi bosqich o'tish davri bo`lib, uni 1997-2001 yillarda amalga oshirish rejalashtirilgan. Ikkinci bosqich 2001-2005 yillarni o`z ichiga olib, bunda Milliy dasturni keng miqyosda amalga oshirish mo`ljallangan. Va, niroyat, uchinchi bosqich 2005 va keyingi yillarga mo`ljallangan bo`lib, bu bosqichda to`plangan tajribalarni tahlil etishg va umumlashtirish asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish ko`zda tutilgan. Prezidentimiz Milliy dasturni sharhlar ekan, kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va faoliyat ko`rsatishning asosiy tamoyillarini amalga oshirish vazifalarini sanab o`tdi. Bularga:

barcha xil va turdagagi ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun uzlusiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish;

davlat ta'lim standartlarini joriy etish va ularning faoliyat ko`rsatish mexanizmini ishlab chiqish;

ixtisoslar, malaka darajasiga ko`ra mutaxassilarga ega bo`lgan umum davlat va mintaqaviy talablarning istiqbolini aniqlash;

ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatdan isloh qilish uchun o`qituvchilarni va murabbiylarni qayta tayyorlash;

davlat va ijtimoiy muassasalarining kasbga yo`naltirish bo`yicha faoliyatini takomillashtirish. Bunda kasb tanlashning bozor ehtiyojlari va imkoniyatlarini e'tiborga olish zarur, toki har bir shaxs o`ziga mos kasbni egallay olsin;

o`quvchi yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonana munosabatda bo`lish ruhida tarbiyalash;

ta'lismuassasalarini, birinchi navbatda umumiy ta'lismaktablarini davlat tomonidan moliyaviy va moddiy-texnikaviy to`liq ta'minlash me'yorlarini oshirish va uning mexanizmini takomillashtirish;

kadrlar tayyorlash tizimi iste'molchilar – korxonalar, muassasalar, firmalar, hissadorlik jamiyatları, banklar va boshqa tuzilmalarning imkoniyatlaridan, birinchi navbatda, o`rta maxsus kasb-hunar o`quv yurtlari va oliy o`quv yurtlarining moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash uchun mumkin qadar kengroq foydalanish;

kadrlar tayyorlash va ta'lismohasiga chet el sarmoyalari, xalqaro donorlik tashkilotlari va jamq'armalarning mablaq'larini jalb etish;

qonun doirasida o`quv rejalarini, dasturlari va o`qitish yo`riqlari, ta'limiy xizmatlarni belgilashda ta'lismuassasalariga, birinchi navbatda, oliy o`quv yurtlariga mustaqillik berish va o`zini-o`zi boshqarish usullarini joriy etish.


Shundan so`ng, Prezidentimiz ta'lismohasi sohasining asosiy bo`q'ini hisoblanagan uzlusiz ta'lismosqichlarini batafsil tavsiflab berdi, kadrlar tayyorlashning bu dasturini amalga oshirishning murakkab tomonlarini ko`rsatdi. Prezidentimiz aniqlab bergenidek, dasturni amalga oshirishning eng murakkab tomoni o`quv jarayonini tashkil etish, ta'lim mazmunini belgilash, ularni maxsus dasturlar, darsliklar, o`quv qo`llanmalari bilan ta'minlash masalasidir. Ushbu darslik bundan oldin chop etilgan o`quv dasturi bilan birgalikda ma'lum darajada bu muammoni hal qilishga yo`naltirilgan. Dasturda belgilab qo`ylgan vazifalarni ro`yobga chiqarishda yangi tarkib topayotgan milliy pedagogika ilmfani yetakchi o`rinni egallaydi. Chunki mustaqil fikr yurituvchi, o`z sohasining bilimdoni, baynalmilal va demokratik dunyoqarashga ega bo`lgan shaxsni faqat milliy pedagogika yordamida tarbiyalash mumkin.

Yangi shakllanib kelayotgan milliy pedagogika fanining vazifasi. Respublikamizda va boshqa mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogikaga oid maqola, risola va monografik asarlarni yiq'ish, ularni jahon pedagogika fani to`plagan umumiy tamoyillar ko`rigidan o`tkazish, so`ng ularni yana bir bor sinovdan o`tkazib, milliy pedagogika nazariyasini yaratib berish hamda shu nazariyadan kelib chiqib Markaziy Osiyo hududiga mos ta'lim va tarbiya berish usul va uslublarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Pedagogika fanining fazifalaridan kelib chiqib, unga quyidagi ta'rifni berish mumkin: Pedagogika fani, deb ta'lismohasiya oid bilimlarni mushtarak holda jamlab, ularni saralab, sinovdan o`tkazuvchi va bir tartibga keltiruvchi, ularni boshqalarga o`rgatuvchi inson faoliyat turiga aytildi.

Pedagogika fanining birinchi vazifasi butun dunyodagi ma'rifat sohasiga tegishli bilimlarni to`plab, ularni didaktika ko`rigidan o`tkazish. Didaktika ko`rigidan o`tkazish deganda, pedagogikaga tegishli maqola, risola va yirik asarlar mazmuni va mohiyatini didaktika tamoyiliidagi talablarga solishtirib ko`rishdir. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadi, chop etilayotgan pedagogikaga oid asarlarning 7-10 foizi didaktikaning tamoyillariga to`q'ri kelar ekan. Shuning uchun pedagogika fanining birinchi vazifasi nashrdan chiqqan pedagogikaga oid asarlarni didaktika tamoyillariga taqqoslab, tahlil qilishdir. Amaliyotchi – o`qituvchi va pedagoglarning vazifasi esa pedagogik adabi yotlarni o`z faoliyatida ko`r-ko`rona qo`llayvermasdan, ularga tanqidiy yondoshib, didaktika tahlilidan o`tkazib qo`llashdan iboratdir.

ILM FAN AMALIYOT



Pedagogika fanining ikkinchi vazifasi, muayyan asar dikaktikaning barcha tamoyillariga mos kelishligi ma'lum bo`lgandan keyin, uning mahalliy sharoitga to`q'ri kelish-kelmasligini aniqlashdir. Chunki, har qanday ijtimoiy voqeilikda, shu jumladan ta'lism-tarbiya jarayonida ham, hukm suruvchi qonuniyatlar ma'lum bir ijtimoiy sharoitning ob'ektiv borliq'ini qanchalik to`la ifoda etgan bo`lishiga qaramay, boshqa ijtimoiy sharoitga to`q'ri kelmasligi mumkin. Shuning uchun ham maorifchi olimlar, o`z hududidan tashqarida pedagogikaning hamma qonuniyatlariga asoslanib yaratilgan ta'lism-tarbiya usul va uslublarini o`z hududida qaytadan sinab ko`rishlari shart. Aks holda chetdan keltirilgan usul va uslublarni pedagogik samara beradi, deb qo`llansa, kutilgan ijtimoiy natijani bermasligi mumkin. Yaqin o`tmishimizda bunga misollar juda ko`p. Lipetsk usuli, Amonashvili, Shatalov usullarini qo`llaymiz deb, hech qanday natijalarga erishilmadi. Chunki ular boshqa hudud sharoitlarida shakllangan usullar edi.

Pedagogika fanining uchinchi va asosiy vazifasi pedagogik sohada asrlar davomida to`plangan bilimlarni dars berishning ma'lum usuli va uslublari yordamida, tasdiqlangan reja va dasturlar asosida o`qituvchilarga berish va bu bilimlarni amaliyotda qo`llashni o`rgatishdir.

2-MAVZU: XALQ PEDAGOGIKASI VA O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI.

Reja

1. Xalq pedagogik tushunchalarining yaratilishi va xilma-xilligi.
2. O'zbek xalq pedagogikasida tarbiyaviy g'oyalarning aks etishi.
3. Xalq og'zaki ijodi manbalari tizimi.

Tayanch atamalar: Ma'rifatga intilish, Etnopedagogika, geneseologik, tarixiy, mantiqiy tuzilishi, og'zakichilik, vorisiylik.

Xalq pedagogikasi fani xalq og'zaki ijodi namunalarida olg'a surilgan pedagogik g'oyalar vositasida komil insonni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirish muammolari xususida bahs yurituvchi fandir. "Xalq pedagogikasi" va "etnopedagogika" atamalari bir xil ma'nodagi sinonim so'zlardir. Shuning uchun "Etnopedagogika" atamasi o'rnida ba'zan "Xalq pedagogikasi" ifodasi ham ishlataladi.

Xalq pedagogikasi ilmi har bir xalqning hayotiy faoliyati, ijtimoiy taraqqiyoti jarayonida asrlar osha to'planib, avloddan-avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgan. U xalq ommasining tarixiy va ijtimoiy tajribalari maxsuli bo'lib, hayot sinovlarida o'zini oqlagan empirik bilimlar majmuidir.

Prezident I.A. Karimov: "Ma'rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir", -degan edi/Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchi - Sh. Qurbonov va b.. Toshkent, "SHarq", 1999. 86-b./. ana shu fazilatning erkin ifodasini etnopedagogika manbalarida ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, etnopedagogikaga doir biror-bir manba yo'qki, unda ilm, ma'rifat, ezgulik, aqliy va jismoniy komillik, ma'naviy-ahloqiy go'zallik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, do'stlik va boshqa sifatlar targ'ib etilmagan bo'lsa. Afsonalar, rivoyatlar, dostonlar, qo'shiqlar singari manbalarda yuqorida qayd etilgan tarbiyaviy sifatlar xalqning o'zi yaratgan qahramonlar timsolida targ'ib etiladi.

Xalq pedagogikasi fanining maqsadi-bulajak komil shaxs ongida milliy va xalqchil tushunchalarni shakllantirish, baynalmilallik tuyg'ularini tarbiyalash, xalq orzusidagi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Fanning vazifasi esa-mazkur tarbiyaviy sifatlarni shakllantiruvchi pedagogik jarayonga ijobiy ta'sir etish, uning samaradorligini oshirishdan iborat.

Xalq pedagogikasi tarixan xalqning o'zi, uning ijtimoiy ongi, tafakkuri, turmush tarzi bilan bakatmi ravishda shakllangan. U xozirgi zamon pedagogikasi ilmining ibtidosi hisoblanadi. Xalqning o'zi hayot ekan uning pedagogik fikri, o'z milliy pedagogik qarashlari ham yashayveradi.

Markaziy Osiyoda antik davrdayoq badiiy-pedagogik ijod namunalari vujudga kelgan. Farg'onaning Saymalitosh, Samarqandning Afrosiyob, Surxondaryoning Zarautsov, Qoraqalpog'istonning Qo'yqirilganqal'asida topilgan yodgorliklar va yozuvlarda xalqning ilk pedagogik fikrlari aks ettirilgan. Ularda hozirgi zamon pedagogikasi ilmining shakllanishiga zamin yaratilgan.

Buyuk ajdodlarimiz, pedagog-olimlarimiz o'z asarlarida xalq badiiy ijodi namunalariga tayanib ish ko'rganlar. Donishmand xalq olg'a surgan tarbiyaning xalqchilligi va tabiatga uyg'unligiga doir g'oyalarni ijodiy rivojlantirganlar. Xalq tafakkuri rivoji uchar gilamlar va otlar, oynai jahonlar yaratishni orzu qilishda ifodalangan bo'lsa, hozirgi zamonda ular haqiqatga aylandi. Shu jarayonda xalqning tarbiya haqidagi tushunchalari ham o'sib bordi.

Etnopedagogika geneseologik, tarixiy, mantiqiy tuzilishi nuqtai-nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

Etnopedagogika manbalari jamoaviy ijod mahsuli bo'lib, ularning vujudga kelgan vaqtida ham, muallifi ham noma'lum.

Og'zakichilik-etnopedagogika manbalarining yaratilish tarzidir; U hali yozuv vujudga kelmasidanoq ajdodlarimiz turmushi, dunyoqarashi, pedagogik qarashlarining ifodasi sifatida vujudga kelgan.

Vorisiylik-etnopedagogika manbalari bulmish folklor asarlariga xos xususiyat bo'lib, ular zamirida pedagogik fikrlar xalqning xotira manbaidan og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan.

Ko'pvariantlilik-ma'lum bir etnopedagogik asarning yonma-yon yashay oladigan, bir-birini mantiqan inkor qilmaydigan, ammo o'zaro farqlanuvchi nuxxalarida o'z ifodasini topadigan xususiyatdir. Masalan, "Alpomish" dostonining xalq orasida 30 dan ortiq variantlari yashab kelmoqda:

An'anaviylik-etnopedagogika manbalarining avloddan-avlodga o'tish jarayonida o'zining dastlabki shakli va qahramonlarini saqlab qolganligida ko'zga tashlanadi.

MDH mamlakatlarida xalq pedagogikasi muammolari Rusiyalik G.S. Vinogradov, gruziyalik A.F. Xintibidze, chuvashistonlik G.N. Volkov, tataristonlik Ya.I. Xanbikov, ozarbayjonlik A.SH. Hoshimov, tojikistonlik Sh.A. Mirzaev, turkmanistonlik K.Pirliev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbekistonda xalq pedagogikasining ba'zi muammolari Z.Mirtursunov, B.Qodirov, I.Ashirboev, G.Ubaydullaev, M.SHerboev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

"Etnopedagogika" atamasini ilk bor chuvashistonlik G.N.Volkov pedagogik adabiyotlarga kiritdi va uni alohida fan sifatida ta'riflab berdi. (Volkov G.N. va boshqalar. Etnopedagogika. Toshkent, "FAN", 2000 s.6.).

Xalq pedagogikasi manbalari va ulardagi pedagogik fikrlar xilma-xilligi, rang-barangligi ham kishi diqqatini o'ziga tortadi. Avvalo, xalq pedagogik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida etnopedagogika manbalarida pedagogika nazariyasi muammolari emas, balki pedagogik amaliyotiga doir fikrlar ko'proq o'z aksini topgan. Shuningdek, etnopedagogika manbalarida shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, xalq muhim deb hisoblagan tarbiya yo'nalishlari haqidagi tasavvurlar, yoshlar tarbiyasida foydalanish mumkin bo'lган ilg'or tarbiya an'analaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Xalq pedagogiksida faqatgina tarbiya jarayoni emas, balki ta'lim jarayoniga dahldor fikrlar ham olg'a surilgan. Shunday bo'lishi tabiiy ham. Chunki, yosh avlodga hamisha xalqning o'zi tarbiya bilan birga ta'lim ham berib kelgan, ularga kasb-kor, amaliy san'at malakalari, sport o'yinlarini o'rgatib kelgan. Demak, etnopedagogikada ta'lim va tarbiya yaxlit pedagogik jarayonning komponentlari sifatida qaraladi.

Xalq pedagogikasi fani o'z faoliyati jarayonida ma'lum qoida va qonuniyatlarga tayanib ish kuradi. Mazkur qoida va qonuniyatlar, g'oyalar fanning harakat va faoliyat traektoriyasi (chizig'i) ni belgilab beruvchi metodologik asoslari hisoblanadi. Ular yerdamida u jamiyat talablariga ko'ra o'z oldiga quyilgan maqsad va vazifalarni hal qilishga erishadi.

Etnopedagogika fanining metodologik asosini Prezidentimiz asarlarida olg'a surilgan milliy, madaniy merosni asrab-avaylash, ularni o'rganish, yanada boyitib kelajak avlodlarga meros qoldirish haqidagi fikrlar; falsafaning jamiyat, shaxs, ong va ularni tarbiya vositasida o'zgartirish mumkinligi haqidagi qonuniyatlar; buyuk ajdodlarimizning pedagogik qarashlari; komil insoni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirishga dior diniy ta'limotlar tashkil etadi.

Etnopedagogika manbalari tizimi (afsonalar, rivoyatlar, dostonlar, qo'shiqlar, aytishuvlar, tortishuvlar, allalar, yallalar, topishmoqlar, maqollar, matallar, o'lanlar, madhiyalar, marsiyalar, marosim, aytimlari, xalq o'yinlari va b...)ni ko'zdan kechirganimizda yuqoridagi fikrlarning to'g'riliqi ayon bo'ladi. Chunonchi, barcha manbalarda, agar ular musulmon dini tarqalgan hududlarda yaratilgan bo'lsa, etnopedagogik asarlar qahramonlari diniy tushunchalarga ishonadi, shariat qonunlaridan chetga chiqmaydi, milliy tarbiya sifatlariga ega bo'ladi.

Etnopedagogikaning barcha manbalarida tasvirlangan pedagogik fikrlarda, qahramonlar dunyoqarashlarida inson barcha hayotiy muammolarni, orzu-umidlarini faqat ilm-ma'rifikatni eagallah, ezgu amallar, mehnat va yaratuvchilik, do'stlik va hamkorlik, go'zal ma'naviy-axloqiy sifatlarni egallah yordamida amalga oshirish mumkinligi haqidagi g'oya olg'a suriladi. Shuning uchun bugungi milliy istiqlol davrida xalq pedagogikasi durdonalarini o'rganish g'oyat muhimdir. Chunki: "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim,"- deganida Prezidentimiz haq edi. (Karimov I.A. Ilm-fan imkoniyatlardan to'laroq foydalanaylik. "O'qituvchilar gazetasi". 1989 yil, 2 dekabr).

Buyuk mutafakkirlarimizning pedagogik qarashlari mazmuniga xalq pedagogikasi g'oyalari singib ketgan. Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Beruniyning "Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar", Ibn Sinoning "Tadbiri manozil", "Donishnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", va boshqa asarlarida xalq pedagogikasi elementlaridan unumli foydalaniqgan.

Xalq pedagogikasi boshqa fanlar bilan ham yaqin aloqada faoliyat ko'rsatadi. Chunonchi, tarix, etnografiya, adabiyot, sotsiologiya, san'at, madaniyatshunoslik fanlarini shu toifaga kiritish mumkin. Pedagogika fanlari tizimiga kiruvchi barcha fanlar, psixologiya, fiziologiya, gigiena fanlari bilan hamkorlikda rivojlanib boradi.

Xalq pedagogikasida dunyoning moddiyligi, ijtimoiy hodisalarning o'zaro bog'liqligi, sabab va oqibatlari, shakl va mazmun birligi, qarama-qarshi kuchlar kurashiga doir falsafiy qonuniyatlarga amal qilinganligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Masalan, "Har bir qiyinchilikning rohati ham bor", "Oldinga ketgan halinchak orqaga ham qaytadi", "Quvonch kelmasdan qayg'u ketmas"... kabi ifodalar shular jumlasidandir.

Xalq bola fe'li va ruhiyatini go'dakligidan kuzatish oqibatida uning axloqiy sifatlarini bilib olgan. Shuning uchun tarbiyani ona qornidayoq boshlash lozimligini tavsiya etgan. Chunonchi, "Bola boshidan, meva ko'chatidan bilinadi", "Bolani beshikdan tarbiyalash kerak", "Uch yoslining amali sakson yoshda ham saqlanadi" kabi maqollar va hikmatli so'zlar fikrimizning dalilidir.

Milliy istiqlol tufayli xalqimizning o'z milliy, madaniy, tarixiy merosini o'rganish imkoniyatlari qayta tiklandi. Milliylik, o'zlikni anglash yo'lidan borib, milliy istiqlol mafkurasi xalq ommasi ongiga singdirilmoqda. Ota-bobolarimiz e'tiqod qilgan islom dinining tarbiyaviy ahamiyati yanada kuchaydi.

Qadimgi Turon mulkida yaratilgan adabiyot, san'at, moddiy va ma'naviy boyliklar barcha turkiy xalqlar boyligiga aylandi. Ularda xalqimizning milliy qadriyatları o'z ifodasini topgan. Ijtimoiy taraqiyotning hozirgi bosqichida komil insonni tarbiyalashda ular muhim ahamiyat kasb etadi.

Xatto, komil inson haqidagi mukammal ta'limot ko'xna Sharq falsafasida yaratilgan. Bu haqdagi fikrlar etnopedagogika manbalarida o'z aksini topgan. Ularni qayta tiklash, o'rganish, ijobiy jihatlarini pedagogik amaliyatga joriy etish milliy istiqlol davridagina mumkin bo'lib qoldi. Modomiki: "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-ma'rifat..." ekan, xalq pedagogikasi xuddi shu ma'rifikatni targ'ib etuvchi tarbiya vositasidir. Shuning uchun Respublikamizda milliy istiqlol davrida komil insonni tarbiyalash kelajagi buyuk davlatni barpo etishning asosiy sharti sifatida talqin qilinmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda etnopedagogika yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Goh g'amgin, goh quvonchli kechgan o'tmishni, ajdodlarimiz buyukligi sababini bilmasdan milliy g'urur va iftixorni tarbiyalab bo'lmaydi.

Vujudimiz va qadriyatlarimizda neki bo'lsa, barchasi o'tmishdoshlarimiz va buyuk ajdodlarimiz rihiyatida jamlanganligini har bir o'qituvchi va o'quvchi chuqur bilmog'i va his etmog'i darkor. Bu kabi mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda bizga "Xalq pedagogikasi" fani yaqindan yordam bera oladi. Shuning uchun mazkur fanni o'rganish, uning manbalari haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lish bulajak pedagog-kadrlar uchun

muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy pedagog-kadrlarni tayyorlashni ushbu omillarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Jamiyatning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy ong teranligi, inson kamolotini ta'minlashda etnopedagogika asarlarning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun o'zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo'llini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadim zamonlaridayoq tarixiy, badiiy, ilmiy asarlar mualliflari turli maqsadlarda folklar asarlariga murojaat etib, ularni yozib olganlar. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning (XI asr) "Devoni lug'otit turk" asari shular jumlasidandir. Mazkur manbalarda pedagogik g'oyalari targ'ib etilgan. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida etnopedagogika asarlari takomil topib, bizgacha yetib keldi. Mehnat jarayonida va ongning rivojlanishi tufayli ilk etnopedagogika asarlari namunalari badiiy jihatdan mukammallahib borgan. Dastlab, kichik hajmli naql va miflar, mehnatni yengillashtiruvchi, ruhni tetiklashtiruvchi ertak va afsonalar yaratilgan, qo'shiqlar paydo bo'lган.

Demak, o'zbek xalq pedagogikasi manbalari yozuv yuzaga kelishidan ancha oldin paydo bo'lib, yozma adabiyotning vujudga kelishiga asos bo'lган. Qadimi etnopedagogik manbalar bizgacha asl holida yetib kelmagan. Chunki ular ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida o'zgarib, sayqal topib borgan. Eng qadimgi etnopedagogik manbalar miflar, jangnomalar, rivoyat, ertak, naqllar, qo'shiqlardan iborat bo'lган.

O'rta Osiyoda feodalizm davri (XI-XX asr boshigacha) g'oyat ziddiyatli taraqqiyot bosqichi bo'lib, bu davr xususiyatlari etnopedagogika manbalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ammo bu davrga xos ma'lumotlar bizgacha to'la yetib kelmagan. Mavjud taraqqiotlarda ko'rsatilishicha, eng qadimgi davrlarda miflar, rivoyatlar, aytimlar, mehnat va marosim qo'shiqlarida pedagogik fikrlar targ'ib etilgan. Ayniqsa, dostonchilik vujudga kelgach, kishilar ularda madh etiluvchi qahramonlarning tarbiyaviy sifatlaridan ruhiy madad, zavq olganlar. Yoshlar halollik, ma'naviy va jismoniy yetuklik timsolini his etganlar. Etnopedagogika manbalarining ilk yozma nusxasi O'rta Osiyoda XII asrda ("Abu Muslim" kitobi) yozilgan. XIV asrda Amir Temur o'z g'olibona yurishlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan.

Manbalarda o'zbek dostonchiligining ilk bo'g'ini Ergash Jumanbulbul o'g'lining yetti ota-bobosi (XVI asr) aytgan dostonlarga borib taqalishi ta'kidlangan.

XVII-XVIII asrlar dostonchilik taraqqiyotida gullagan davr bo'ldi. Bu davrda "CHambil qamali", "Rayhon arab", "Tulumbiy", "SHayboniyxon", "To'lg'anoy" singari vatanparvarlik, mardlik, halollik, insonparvarlik, aqliy va jismoniy komillikni madh etuvchi asarlar, shu ruhdagi maqollar, matallar, xalq qo'shiqlari yuzaga keldi.

Rusiya bosqinchiligi davrida xalq ommasi boshiga tushgan beedad azob uqubatlar XIX asr etnopedagogika namunalarida o'z aksini topdi. Jumladan:

Non tishlatdim bolamga, mardikordan qaytsin deb,

Zolimlarni qarg'adim, Ilohi, yer yutsin, deb.

Yoki; mahalliy xalqning bosqinchilarga nisbatan nafrati quyidagi qo'shiqda yanada kuchliroq ko'zga tashlanadi.

So'k oshini ichmayman,

Hech haqimdan kechmayman.

Etigimni yechmayman,

Mardikorga olgan Nikolayni

Qorda qarag'ay kesganman, Taxtdan yiqitmay qo'ymayman.

SHuningdek, zulmkor mahalliy hukmdorlarga nisbatan nafrat ruhini ug'otuvchi quyidagi qo'shiqlar ham e'tiborga loyiqidir:

Isfandiyor zolimliging bildirding,

Non o'rniga kunjarani yedirding, ...

Haddan oshding, zolim, yoning so'kilsin,

Boshing kesilsinu, qoning to'qilsin! va boshqalar.

Ko'rinib turibdiki, XX asr arafasida tarixiy qo'shiqlarga ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash ruhi kirib kela boshlagan. Bosqinchilik va zulmga nisbatan nafrat ruhi targ'ib etilgan, milliy ozodlik orzusi vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari kuchaya borgan.

SHo'rolar tuzumi davrida etnopedagogika manbalarini to'plash, yozib olish, nashr etishga etibor kuchaygan bo'lsada, mavjud tuzum ruhiga mos kelmagan manbalarini o'qish, ulardan foydalanish o'tmisht va din sarkiti nomi bilan taqiqlab qo'yildi.

Faqat milliy istiqlol tufayli xalq pedagogikasi manbalaridan keng miqyosda foydalanish imkoniyati tug'ildi. Xalqning madaniy merosini, tarixiy haqiqatni qayta tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Biroq, etnopedagogika Respublikamizda alohida fan sifatida endigina shakllanish arafasidadir. Uning manbalarga g'oyat boy tarixiy taraqqiyot yo'lini ilmiy pedagogik jihatdan puxta o'rganish va tizimga solish ishlari o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

3-MAVZU:XALQ PEDAGOGIKASI VA XALQ OG'ZAKI IJODIDA DOSTONLAR.

Reja

1. Dostonlarning yaratilish tarixi.
2. Dostonlarda ilgari surilgan tarbiyaviy g'oyalar.
3. Dostonlarning turlari.

T a y a n ch i b o r a l a r : Bolalar o`yinlari; donishmandlik. odobnama, xarbiy sport mashqlari; harbiy – jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi; mehnat mazmuni; nafosat tarbiyasi; mehnatsevarlik.

«O`zbek xalq pedagogikasi» qamrovi nihoyatda keng, baq'oyat serqirra va serjilo tushuncha bo`lib, u shu xalq paydo bo`lgan butun davrni o`z ichiga oladi.

Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-ahloqiy hayotning barcha tomonlarini xalq oq'zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo`nalishlarini, diniy-ahloqiy ta'lilotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to`plagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba xulosalarini lo`nda, ammo baq'oyat teran, donishmandnamo tarzda ifodalaydi.

O`zbek xalq pedagogikasi xalqning oilaviy – maishiy hayoti, ta'lim-tarbiyaviy, ahloq-odobga oid hayotiy yo`l-yo`riqlari, usullari, ibratli tajribalariga oid turfa misollar – dostonlar, ertaklar, mehnat – mavsumiy marosim qo`shiqlar, afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so`zlar, allalar, to`y va aza qo`shiqlari, olqish va qarq'ishlar «Navro`z», «Mehrjon», bahor, kuz, qish, yoz aytim – qo`shiq ashulalari va shu kabi nasriy asarlar bilan boyitilgan. qur'oni Karim, Hadis hamda Sharq mutafakkirlarining ahloq-odobga oid qarashlaridan xalq pedagogikasi oziq oladi, boyiydi.

Xalq bisotidagi eng yaxshi tabarruk so`zlar – duo-olqishlar ham tarbiyaga qaratilgan. Darvoqe xalq pedagogikasida yaxshi so`z, duo-olqishning ta'sir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati, inson ma'naviy ustuvorligi, iymon-e'tiqod butunligi, qisqasi kishilarning har tomonlama mukammal kamoloti borasida tutgan o`rniga alohida ahamiyat beriladi.

O`zbek xalq pedagogikasi ayrim shaxslar yoki bir-ikki jamoa tomonidan yaratilmagan. Uni xalqimiz asru-asrlar bilan o`rganuvchi hayotida o`zining boy hayotiy tajribalari, farzandlar kamoloti borasida tutgan tutumlari, sa'yi-harakatlari, yo`l-yo`riqlari, aql-zakovotlari bilan yaratgan. Ayni choqda o`zbek xalq pedagogikasi o`z rivojida boyib, mukammallahib borishda ilm-fanning boshqa sohalaridan, ya'ni mumtoz adabiyot, san'at, oq'zaki ijod, elshunoslik, udumshunoslik, qadrshunoslik, odatshunoslik, ruhshunoslik kabi sohalar baq'rida shakllanib, ular bilan bevosita aloqada bo`ladi eng yaxshi namunalarini o`ziga qabul qilib oladi.

Xalq pedagogikasi insonparvarlik, baynalmilallik, xushyorlik, zukkolik, topqirlik kabi o`zbek xalqining o`ziga xos fazilatlarini uluq'laydi. Sharq odobnomasi ibodatnomasidan doimiy ravishda bahramand bo`lgan, sharqona xalq pedagogikasi boyliklaridan oziqlangan va uning eng go`zal namunalarini o`ziga qabul qilib olgan.

Muxtasar qilib aytganda o`zbek halq pedagogikasi turkiy xalqlar ota-bobolarimiz uzoq moziyda yaratgan va ko`z qorachiq'iday asrab avaylab saqlab kelgan ota meros, Sharq xalqlarining boy va betakror odobnama va odatnomasi, pandnomalar, folklor ijodi namunalarasi shakllanganligi, rivojlanganligi va boyib borganligini e'tirof etish birdan bir to`q'ri yo`ldir.

O`zbek xalq pedagogikasining ajralmas qismi oq'zaki ijod namunalarini odob-ahloq, ta'lim-tarbiya borasidagi pandnomalar baq'oyat hayotiy xalqchil va ibratlidir. Xususan an'anaviy xalq dostonlari, qo`shiqlar va ertaklar odobnama darslari ekanligini folklorning boshqa katta-kichik janrlari boshdan-oyoq pandnoma ekanini unutmasligimiz kerak.

Darhaqikat haqiqiy insonni shakllantiruvchi odob-ahloq haqidagi xalq qarashlari, xalq oq'zaki ijodi asarlari xususan dostonlarda yashab keladi, ularda odob-ahloq mavzusi o'ta donishmandlik bilan keng ishlanganiga guvoh bo`lamiz. Buning uchun O`zbekiston dostonchiligiga oid qodir baxshi Rahimovdan yozib olingan va nashrga tayyorlangan mashhur «Go`ro`q`li» silsilasiga kiruvchi «Zaydikon» dostoniga nazar tashlash kifoya. Ushbu dostonida mashhur bahodir va yurt boshliq'i Go`ro`q`lining bolaligi va ilk orzu umidlari, doimiy hamroxi va yo`ldoshi q'irotga ega bo`lib, or-nomus qadr-qimmat va sha'n uchun boshdan kechirgan dastlabki q'aroyib bahodirliliklari, ko`rsatgan shijoat-jasoratlari yuksak badiiy saviyada aks etgan.

O`zbek xalq oq'zaki ijodi to`q'ridan-to`q'ri bola tarbiyasiga ta'sir etish vositasi bo`lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda. Bolalarni topqirligini tarbiyalashda va zexnini o`tkirlashda, fikrlash qobiliyatlarini o`sirishda topishmoqlar muhim ahamiyatga ega bo`lgan.

Maqollar odob-ahloq qoidalarini o`z ichiga olgan hayot tajribasidan o`tgan eng kichik janrdir. Deylik, «Ishlaganning oq'zi oshga tegar, ishlaganning boshi toshga tegar», maqolida xalqning uzoq asrlik hayotiy tajribalari mujassamlashgan. Bundan tashqari maqollarda turmush hodisalari bilan boq'liq bo`lgan Vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, do`stlik, vafodorlik kabi ahloq me'yorlari ma'qullanadi, egrilik, yomonlik, umidsizlik, yolq'on gapirish, yalqovlik, ochko`zlik kabi illatlar qoralanadi.

Aql bilan odob egizak!

Aqli naqllab so`zlar,

Aqsiz laqillab so`zlar!

Barcha yaxshilik xushxulqlikda!

Bolam odam bo`lsin desang, yoshlikdan odob ber!

Yolq'on-yashiq gapirma, so`ng uyalib o`tirma!

Xulq har kim o`z qiyofasini ko`rsatadigan ko`zgudir.

Singari maqollarda odob-ahloq mavzulari o`z ifodasini topgan.

Xalq oq'zaki ijodida ayniqsa qo`shiqlar alla, yor-yor o`lan, aza-yiq'i kabilar xalq hayotining hamma tomonlarini qamrab olgan. Bu qo`shiqlarda oilaning kundalik odob qoidalariga odatlantirish tamoyillari ifoda etilgan.

Masalan, «Alla»ni olaylik.

Onaning orzu-havasi, niyatları, bolalari kelajagi haqidagi maqsad-istiklari u kuylagan allalarda ifodalananadi. Farzandining baxtli – saodatli bo`lishini soq'lom va paxlavon, jasur bo`lib voyaga yetishini orzu qiladi. Ularda tarbiya ruhi ham aks etadi. Donishmandlar «Alla aytmagan onaning farzandida mehr kuchli bo`lmaydi» deyidilar.

Ertak va dostonlar bolani har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda ertak ayтиб bermay bola o`stirgan ota-onasi va kattalarni yoki ertak eshitmay ulq' yoshlarni tasavvur qilish qiyin.

Ertak va dostonlarni tarbiya uchun muhim tomoni shundaki, unda xalq oq'zaki ijodidagi topishmoq, maqol, qo`shiqlar kabi janrlar jamlangan bo`lib, ular pedagogik q'oyalarni mukammalroq ta'sirchan bo`lishini ta'minlaydi. Ertak va dostonlar bola tarbiyasining deyarli hamma tarkibiy qismlari; jismoniy va aqliy kamolot, ilm va hunarga muhabbat, mehnatsevarlik, ma'naviy sifat hamda nafis didlarning tarkib topishiga oid ko`pdan-ko`p pedagogik materiallarni uchratish mumkin.

O`zbek xalq pedagogikasi yuqorida kabi folklor janrlari bilan bir qatorda bola yashab turgan muhit-sharoitning vositachi roli ham mavjudki, ular yoshlarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda katta va samarali tarbiya vositasi hisoblanadi.

Soq'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini farovon hayot asosini qurish demakdir. Soq'lom avlodni tarbiyalash ikki jihatdan – yosh avlodni jismonan soq'lom etib tarbiyalash va ularni ma'naviy barkamol etib voyaga yetkazishni o`zida mujassamlashtiradi. Inson ma'naviy barkamol bo`lishi uchun eng avvalo jismonan soq'lom bo`lishi lozim. Bu oddiy hol, ammo u jamiyatimiz rivoji kelajagini ta'minlovchi omildir.

Tarixdan ma'lum ijtimoiy jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi bilan

tarbiya tizimi o`zgarib borgani kabi yoshlarga jismoniy tarbiya mazmunini shakli ham o`zgarib borgan.

O`zbek xalq poetik ijodi ham shu orqali xalq pedagogikasida yoshlarning jismoniy tarbiyasi eng aktual muammolardan biri sifatida katta o`rin egallaydi.

Xalq ijodining deyarli hamma janrlari – maqollar, ayniqsa ertak va dostonlarda uchraydigan mehnatsevar, chidamli, qo`rqmas, botir, jasur va qahramon kishilar sifatida tasvirlanadigan asar qahramonlarining hech biri q`ayri – tabiiy kuchga ega bo`lgan tasodifiy odamlar bo`lmay, balki, albatta ma'lum oila yoki ayrim tajribaga ega bo`lgan shaxslar qo`lida muayyan maqsadga muvofiq alohida va tegishli tarbiya olishlari natijasidagina jismoniy kamolotga erishgan kishilardir. Boshqacha qilib aytganda, xalq pedagogikasida bolalarning jismoniy kamoloti, jismoniy mehnatga qobiliyatli bo`lib yetishishlari, mustahkam iroda, muayyan fe'l-atvor ham hatti-harakatlarga ega bo`lib yetishishlarini jismoniy tarbiyaning mahsuli deb qaraladi.

O`zbek xalq pedagogikasida bolalarning jismoniy tarbiyasi quyidagicha to`rt yo`nalishda davom etib kelganligidan dalolat beradi:

Bolalarning soq`lom bo`lib o`sishida, ota-onada va umuman keksa avlodning q`amxo`r – tarbiya;

Yoshlarning jismonan yetuk bo`lib o`sishiga yordam beradigan bolalar o`yinlari;

Ayrim sport vakillari tarbiyasi;

Harbiy sport va harbiy – jismoniy tarbiya.

Xalq ijodi materiallarida bolalarning soq`lom o`sishlarida ota-onada va keksa avlodning q`amxo`rligi va tarbiyasiga oid ma'lumotlar nisbatan kam uchrasha ham, xalq pedagogikasida bolalarning yoshlik xususiyatlariga mos keladigan tarbiyaviy tadbirlar amalga oshirilib kelinganligi ma'lum. Ayniqsa, bolalarni o`z vaqtida ovqatlantrish, uxlatalish, o`ynatish – kiyintirish, ozoda va toza yurish ham jismoniy rivojiga oid mashq malakalari, rasm, odatlar xalq pedagogikasida uzoq vaqtlardan buyon davom etib keladi. Masalan, «Uch oq`ayni botirlar» ertagida, keksa ota o`q`illarini safarga jo`natar ekan, bolalarga qarab: «o`zimdan keyin baxtsiz bo`lib qolmanglar, deb sizlarni o`qitdim. Buning ustiga sizlarni uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchidan, soq`lom vujudli qilib tarbiyaladim – baquvvat bo`ldingizlar. Ikkinchidan yaroq` bilan tanishtirdim – yaroq` ishlatishga usta bo`ldingizlar. Uchinchidan – qo`rquitmay o`stirdim – qo`rqaq bo`lmay, botir bo`ldingizlar» deb nasihatini davom ettiradi.

Ota-onada va umuman keksa avlodning yuqoridagi kabi q`amxo`rlik va mehribonlik tarbiyasi xalq pedagogikasining bosh muammolaridandir. Bolalarning jismoniy tarbiyasidan kutilgan maqsad o`rinbosar avlodning uzoq umr ko`rishlarini ta'minlashdir.

O`zbek xalqi orasida keng tarqalgan bolalar o`yinining turi juda ko`p bo`lsa ham, xalq ijodida ularning hammasiga oid materiallar uchramaydi. Holbuki, xalq pedagogikasida bolalar o`yiniga alohida e'tibor berilgan va u tarbiyaviy ishlarning markaziy o`rinlaridan birini egallab kelgan.

Ota-onada va umuman kattalar bolalarni doimo xursand va xushchaqchaq bo`lishlari uchun katta kuch sarflaganlar. Ular uchun turli-tuman o`yinchoqlar, bolalar mehnati qurollari ham bolalar o`yinchoqlarining ijodkori bo`lganlar. Shu bilan birga bolalar o`yinlarining yaratilishida bolalarning o`zi ham tashabbuskor va ijodkorlik rolini aslo inkor qilib bo`lmaydi. Binobarin, bolalar hamma vaqt, hamma joyda o`ziga o`yin topib oladi. Ular hech vaqt bo`sh vaqtini o`yinsiz o`tkazmaydi.

Bolalar o`yini ma'lum guruh bolalar ishtirokida tashkil qilish bilan xarakterlanadigan o`yinlardir. O`zbek xalqi orasida ana shunday jamoa shaklida tashkil qilinadigan bolalar o`yinlari juda ko`p bo`lib, ular uzoq zamonlardan beri davom etib keladi. Ana shular jumlasiga tortishmachoq, oq terakmi – ko`k terak, qo`l tegdi – pichoq tegdi, botmon-botmon, kim chaqqon, illak, pir etdi, ok oli, quloq cho`zma, soqqa otish, kurash kabilarni ko`rsatib o`tish mumkin.

Yuqoridagi kabi bolalar o`yinlari asosan, jamoa bo`lib o`ynaydigan o`yinlar bo`lishi bilan yoshlarni jamoamizga, o`rtoqlik va do`stlikka, hamkorlik – hamjihatlikka

odatlanirishda qudratli vosita bo`lib xizmat qilgan. Demak, bolalar o`yini bolalarni jismoniy jihatdan chiniqtirishga, soq`-salomat bo`lib yetishlariga xizmat qilgan va shu orqali yoshlarni jismoniy mehnatga tayyorlashda asosiy o`rinlardan birini egallagan.

Sport yoshlarni soq`lom, chiniqqan, baquvvat qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Bunday tarbiya orqali yoshlarni hayotga tayyorlash, yovuz kuch va tabiiy ofatga qarshi kurash, xalq boshiga tushgan turli-tuman azob-uqubatlardan qutqarish. Ayniqsa, vatan himoyachisi yo`lida qahramonlik ko`rsata oladigan kishilar qilib tarbiyalash nazarda tutiladi.

Shu jumladan, a) ov – ovlash, mengan qilib yetishtirish katta o`rin egallaydi. O`zbek xalq poetik ijodining o`ziga xos xarakterli xususiyatidan biri, ko`pchilik ertak va traditsion syujetli dostonlarda voqeа u yoki bu asar qahramonining ovga chiqish bilan boshlanishidir; b) Ayrim jismoniy mashq orqali alohida qudrat va mohirlikka ega bo`lgan sport vakillarini tarbiyalab yetishtirish xalq ijodida salmoqli o`rin egallaydi.

O`zbek xalq poetik ijodida maxsus harbiy – sport va harbiy – jismoniy tarbiya podshohlik, saroy ahli ham yirik feodallar oilasi bolalariga xos ekanligini ko`rsatadi;

Folklor materiallarining ko`rsatishicha, O`rta Osiyo xalqlari orasida tarqalgan harbiy harbiy – jismoniy tarbiyaning mazmuni – sipohgorchilik, jangu-jadal, «hunarni» o`rganishga qaratilgan bo`lib, ayniqsa, kurash tushish, ot chopish, tirondozlik, qilichbozlik, kamon bilan o`q otish, miltiq otish, nayza sanchish, suvda suzish, gurzi urish kabi harbiy-jismoniy tarbiya – asosiy o`rinni egallar edi. Bu jihatdan qaraganda, O`rta Osiyodagi qadimdan davom etib kelayotgan harbiy – jismoniy tarbiya juda ko`p jihatdan qadimgi Yunoniston – sport harbiy – jismoniy tarbiyasi mazmunini aks ettiradi. Masalan, «Shaxzoda Asad», «Mamir bilan Samir» ertagida qadimgi davrlarda yoshlarga harbiy – jismoniy mashqlar o`rgatilgani ko`rsatiladi.

O`zbek xalq dostonlari qahramonlarining hammasi harbiy – jismoniy tarbiya olgan kishilar sifatida xarakterlanadi. Xalqimizning suyukli qahramoni – Go`ro`q`li, Xasanxon, Avaz, Rustam, Ravshanxon, Erali, Sherali va boshqalar ana shular jumlasidandir.

O`zbek xalq oq`zaki ijodida ifodalangan yana bir muhim tomoni yuqoridagi kabi xalq farzandlarining jismoniy kamolotini ularning yuksak ma`naviy fazilatlari bilan birga tarannum etilishidir.

Biz ko`rib o`tgan asar qahramonlari ham jismoniy, ham psixologik jihatdan teng rivojlangan kishilardir, ya`ni jismoniy kamolot egalari mustahkam, irodali, intizomli, sabr-toqatli, q`ayratli, matonatli, kamtar, qat`iy, umidsizlanmaydigan, xushyor, tadbirli, chidamli, qo`rqmas, mard-botir va jasur kishilar bo`lib yetishganliklari ko`rsatiladi.

Shunday qilib, o`zbek xalq ijodi materiallarining ko`rsatishicha, o`tmishda yoshlarning jismoniy tarbiyasi yuqoridagicha to`rt yo`nalishda davom etib kelgan va bu xalq pedagogikasining eng muhim va zarur qismi sifatida avloddan-avlodga o`tib, rivojlanib borgan.

Allomalar tarbiyada mehnatning afzalligi to`q`risida.

Mehnat tarbiyasining mazmuni.

mehnat tarbiyasining usullari.

Xalq pedagogikasida nafosat tarbiyasi.

Ta`lim va tarbiyani milliy istiqlol q`oyalari asosida yuksak darajaga ko`tarish, davrimizning qat`iy talabi hamda jamiyatning ijtimoiy topshiriq`i sifatida pedagoglarga katta mas`uliyat yukladi.

O`tmishga nazar tashlaydigan bo`lsak, o`zbek xalqining buyuk mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar va amalga oshirgan kashfiyotlarida ham insonlarni odobli, mehnatsevar, vatanpar qilib tarbiyalash yo`l-yo`riqlarini ko`rsatib o`tganlar.

Jumladan, Alisher Navoiy o`z zamonasida zargarlar, kulollar, tikuvchilar kabi turli-tuman hunar sohiblarining hammasiga hafsla, qunt va e'tibor bilan maslahat berib, ularga homiylik qilganlar. Navoiy: «Inson bo`lib dunyoga keldingmi, biror kasbni egalla, hunar o`rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o`tmaysan»,

deb ta'kidlaganlar.

Insoniyat qadr-qimmatini mehnatda, bilim va hunarga tayanishda, birovga xor bo`lmaslikda deb bilgan. Sa'diy shunday ta'lim beradi:

O`z mehnatidan non yegan kishi,

Hotam himmatidan ozod yoz – qishi.

Mash'alali o`txonaqaddas kitob – «Avesto»da ham mehnat moddiy boyliklar manbai emas, balki u mehnatni asosan ahloqiy jihat, yaxshilik manbai deb bilgani uchun insonlarni mehnat qilishga chaqiradi. Xalq pedagogikasida «yoshlikda egallagan hunar toshga o`yib yozilgan hikmatdir» - deb ta'kidlanadi.

Hunarning nechoq'li zarur ekanligi qator rivoyatlar, maqollar, ertaklar, dostonlarda ham o`z aksini topgan. «Oltin baliq», «Savdogar bilan podachi», «Sirli gilamcha», «Baliqchi bola», «Ikki naqqoshning ishi» kabi ertaklar, «Xasanxon», «Rustam», «Ziyod» kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Darhaqiqat xalqimizning ertak, rivoyat, dostonlari hamda o`tmishdagi olimlarimizning meroslarini chuqur o`rganib, uni ta'lim va tarbiya jarayoniga tadbiq etish har bir ma'naviyatlari va ijodkor mutaxassislarining muallimlarning mash'alali o`txonaqaddas burchidir! Shuning uchun ham xalq pedagogikasining ustozlik-murabbiylit an'anasi o`rganish o`quvchi yoshlarni tarbiya qilish kasb-hunarga bo`lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iborat. Xalq pedagogikasi an'analarining zamonaviy usullarini amaliyotda qo'llash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Shuningdek, ushbu masala zamonaviy tarbiyada ham o`z mohiyatini yo`qotmagan holda xalq oq'zaki ijodi, xalq pedagogikasida asosiy o'rinda turadi.

Jumladan:

qunt bilan o`rgan hunar

Hunardan rizqing unar

Hunari yo`q kishining

Mazasi yo`q ishini

Mehnat jarayonida paydo bo`lgan ish tajribalari ko`nikma va malaka xalqimiz tomonidan doimo uluq'langan va xalq poetik ijodining hamma janrlarida muqaddas o`rin egallab kelgan.

Xalq, poetik ijodida yoshlarni mehnatsevar qilib tarbiyalash q'oyat muhimdir. Olimlarimizning xalq poetik ijodini o`rganish yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqotlarining ko`rsatishicha, xalq ijodining o`zi qadimdan qadimiy uruq' va qabilalarning mehnat jarayoni zaminida paydo bo`lganligidan dalolat beradi.

Boshqa xalqlardagi o`zbek xalq poetik ijodi ham xalq ommasining mehnat va mehnat jarayonida yaratilgan eng yaxshi traditsiyalari, tajribalar mehnat qilish sohasida paydo bo`lgan ko`nikma, malaka va odatlarni badiiy formada avloddan-avlodga ma'naviy meros sifatida qoldirib kelgan.

«Aql va boylik», «Uch oq'ayni botirlar», «Ko`rpangga qarab oyoq uzat» kabi o`zbek xalq ertaklarida mehnatsevarlik, bolalarni mehnatga odatlantirish, mehnat hamma boyliklarning negizi kabi masalalarga alohida ahamiyat beriladi, hamda shaxsning haqiqiy go`zalligi mehnatda ekanligi ko`rsatib o`tiladi.

Mehnatkash xalq ommasining mehnat jarayonida qo`lga kiritilgan ish tajribalari – mehnat malakasi, ko`nikma, odat va yosh avlodni mehnatga tayyorlash yuzasidan takror-takror sinovdan o`tgan usul va vositalari xalq pedagogikasining didaktik qo'llanmasi bo`lib keldi.

Mehnat – ikki ko`zdan aziz.

Oltin o`tda toblanar,

Odam mehnatda.

Daryo suvini bahor toshirar,

Odam qadrini mehnat oshirar.

Birni birov beradi, ko`pni – mehnat.

Shuning uchun ham mehnatkash xalq oilasida o`z farzandlarini mehnatsevar qilib yetishirish ota-onan va umuman keksa avlodning dastlabki insoniy burchi hisoblangan.

Yoshlarni kattalarga yordamlashishida xalqimizning qadimdan davom etib kelayotgan olivjanob an'analaridan biri «xashar»ning tarbiyaviy ahamiyati q'oyat kattadir.

«Xashar» dehqonchilik hayotida ko`p turga ega bo`lib, yilning hamma faslida, shahar sharoitida – ariq qazish, ko`prik qurish, yo`l chiqarish, mahalla obodonchilik ishlari, uy qurish ishlarida uyuştiriladi. Bunday tadbirlarda yoshlar va bolalar kattalar bilan barovar harakat qilib, ularni e'tiboriga sazovor bo`lishar edi.

Keksalarining «barakallo», «qo`ling dard ko`rmasin», «umringdan baraka top» kabi olqishlari ko`pincha o`z mehnatini manzur qilgan yoshlarga nisbatan aytilar edi.

Xalq ijodi materiallarida, ayniqsa, maqol va qo`shiplarda mehnatning kishi hayotidagi o`rni, mehnat malakasini o`rganish usullari, halol mehnat qilish zaruriyati uqtirib keltingan.

Yoshlarni mehnatsevar qilib yetishtirishda eng ko`p qo`llaniladigan usullaridan biri ishontirish bo`lib, uni tadbiq qilishda ham xilma-xil vosita va shakllardan foydalanilgan. Ayniqsa, keksalar tomonidan mehnat va mehnat ahlini ardoqlaydigan hamda ishyoqmas, dangasalarni aytib berish, ishontirish vositalaridan biri bo`lib xizmat qilgan. Keksalarimizning yoshlar tomonidan mehnatni, jamiyat taraqqiyotidagi buyuk o`rinni anglab yetishlari, unga e'tiqod qo`yishi uchun aytib beradigan kichik va katta hajmdagi ertaklari ko`p bo`lgan. Masalan, «Kichik kelinning davlati», «Sirli tush» ertaklarini keltirish mumkin.

Xalq pedagogikasida bolalarni mehnatga tayyorlash va mehnatsevar qilib tarbiyalashda o`git-nasihat, namuna ko`rsatish usullari ham katta o`rin tutadi.

Respublikamizda yosh avlod tarbiyasi borasida muhim tadbirlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda musiqiy qadriyatlarni tiklash, ommaviy xalq musiqa pedagogikasi namunalarini tahlil etish, buyuk donishmandlarning musiqiy, ma'rifiy ijodini, nafis yodgorliklarini, o`rganadigan va amaliyatga tadbiq etish pedagogik masalalardan biridir.

Alisher Navoiy aqliy, ahloqiy va nafosat tarbiyasi – insonni eng go`zal fazilatlaridan ekanligini bayon etib, ulardan har bir kishi baxramand bo`lmoq'i lozimligini ta'kidlab o`tgani. Ayniqsa musiqaning insonga tarbiyaviy ahamiyatini yuksak baholagan, «ko`ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdan oziq oladi», - deb ta`riflagan. Shuning uchun bolani yoshligidan boshlab qunt bilan tarbiyalash, go`zallik olami bilan oshno etish ma'naviy ta'sir ko`rsatish yo`li bilan, uni kamol toptirish, ahloqli, yuksak fazilat egasi qilib tarbiyalash q'oyasini ilgari surgan.

Nafosat tarbiyasi bolada eng nozik tuyq'ular orqali go`zallikni anglash, unda baxra olish va bevosita go`zallikni yaratuvchilarga aylanish kabi jihatlarni tarbiyalaydi.

Xalq pedagogikasi fani orqali milliy me'rosimizga aylangan nafis san'at asarlari, asari-aqiqalar, mumtoz kuy, qo`shiplarning ta'llim-tarbiya jarayonida shaxs kamolotida tutgan o`rni va beqiyos tarbiyaviy ahamiyati o`rganiladi.

4-MAVZU: XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY URF-ODATLAR, AN'ANALAR, UDUMLAR, MAROSIMLARNING TARBIYA VOSITASI SIFATIDAGI O'RNI.

Reja:

1. Ma'naviy qadriyatlarning qayta tiklanishi.
2. Milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana va marosimlar - tarbiyaning eng ta'sirchan quroli sifatida.
3. O'zbek xalqining milliy-ma'naviy qadriyatlar.

Tayanch atamalar: Milliy istiqlol, ma'naviy qadriyatlar, urf-odat, an'ana, marosim, axloqiy tarbiya.

Milliy istiqlol mafkurasi ham ana shu milliy qadriyatlarga asoslanib yaratilishi bejiz emas, albatta. Bu borada Prezidentimiz I.Karimovning "Har bir fuqaro ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlarida da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlol mafkuramizning bosh maqsadidir"- deganlari ayni muddaodir.

Ma'naviy qadriyatlar, urf-odat, an'ana, marosimlar va istiqlol istiqboli hamda mafkuraviy ong, yashash tarzi haqida, ya'ni avlodlar mushtarakligi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, uni uch toifaga bo'lish lozim :

Xo'sh, ma'naviy qadriyatlarimiz xususida sharq mutafakkirlarimizning ilmiy, ma'rifiy merosi borasida yoshlarimizning tasavvur va bilim darajasi qanday? Qayd qilish lozimki o'rta asrlar uyg'onish davri, bonyodkorlari bo'lmish allomalar bizning ajdodlarimiz ekanligidan faxrlanamiz. Bu borada Ibn Sinoning ma'naviy merosida qator muammolar tizimida axloq-odob masalalari e'tiborli salohiyatga egadir. Uning «Burch haqida risola», «Axloq haqida risola», «Insof haqida risola» kabi asarlarida axloq-odobning g'oyat muxim qirralari bayon etilgan.

Mutafakkirlarning asarlarida, jumladan «Tadbiri manzil» risolasida ham inson tabiatini azaldan axloqli yoki axloqsiz bo'lmaydi, degan g'oya muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida odamlar tayyor fazilat, odat va hayotiy ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar an'analarini, ta'lim-tarbiyaning faol ta'siri ostida asta-sekin shakllana boradi. Ta'lim-tarbiya o'zgalarning ma'naviy ta'siri ostida inson o'zida ijobjiy axloqiy fazilatlarni shakllantiradi yoki «yomon do'stlar» ya'ni salbiy odatlar soxibiga aylana boradi.

Jaxonda XII asrdan boshlab hanuzgacha algebra fani asoschisi sifatida Al-Xorazmiy nomi ulug'lanadi. Hozirgi zamonda kosmik kemalar, havo transporti, hisoblash texnikasi, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlar algoritmi qoidasi asosida ishlaydi.

Abu Nasr Farobiy inson aqliy va ijodiy faoliyatining takomillashuvida musiqiy oxanglarning fizikavii xolatiga asos soldi.

Bunday yaratuvchanlik milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz sifatida ulug'lanar ekan, ularni o'rganish, o'zlashtirish yosh avlodning muxim burchi bo'lmog'i kerak.

Xalq pedagogikasining barcha manbalarida tasvirlangan pedagogik fikrlarda, qahramonlar dunyoqarashlarida inson barcha hayotiy muammolarni, orzu-umidlarini faqat ilm-ma'rifikatni eagallash, ezgu amallar, mehnat va yaratuvchilik, do'stlik va hamkorlik, go'zal ma'naviy-axloqiy sifatlarni egallash yordamida amalga oshirish mumkinligi haqidagi g'oya olg'a suriladi. Shuning uchun bugungi milliy istiqlol davrida xalq pedagogikasi durdonalarini o'rganish g'oyat muhimdir. Chunki: "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim,"- deganida Prezidentimiz haq edi².

² Karimov I.A. Ilm-fan imkoniyatlaridan to'laroq foydalanaylik. "O'qituvchilar gazetasi". 1989 yil, 2 dekabr.

Milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana va marosimlar - tarbiyaning eng ta'sirchan quroli. Undan oqilona foydalanish, farzandlarimiz ongida vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalq-parvarlik tuyg'ularini shakllantirish bugungi kun talabi.

Axloq- avvalo, inson vaadolat tuyg'usi, iymon, halollik degani. Insonning insonligi, ma'nnaviy – ahloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi milliy qadriyatlarning qadriga yetishi bilan belgilanadi.

Milliy qadriyat quyidagi axloqiy tarbiya tushunchalaridan iborat :

- barkamol inson ota- onasi, farzandlari, qarindoshlari, butun oila a'zolari, qo'ni – qo'shinlari, mahalla- ko'y, xamqishloqlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg'uradi;

- tevarak atrofnı o'rabi olgan insonlar unga kerak bo'lganidek, u ham atrofdagilarga kerakli inson bo'lishga intiladi;

- milliy qadriyatlarni e'zozlaydi va ularga sodiq bo'lib qoladi;

- milliy qadriyatlar asosida odob-ahloq, fe'l- atvor, tarbiyani yoshlarning ongiga singdiriladi;

- ota-bobolarimizdan qolgan ma'nnaviy- madaniy merosni qadrlaydi;

- Vatanni sevib, himoya qiladi, yoshlarni xarbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.³

Ma'nnaviy- axloqiy tarbiya, madaniyat to'g'risida so'z borar ekan, VIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan qomusiy olimlar o'z asarlarida inson ma'nnaviy va tafakkur dunyosini boyitishga, insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy qarashlarini o'stirishga alohida e'tibor qaratganlariga amin bo'lamiz, Ular o'z asarları bilan sharqona odob-axloq talablari asosida komil inson, adolatli jamiyat va davlatni shakllantirishning ma'nnaviy asosini yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

O'zbekistondek ona zaminimiz jahonga ne-ne buyuk mutafakkirlar va qomusiy allomalarni yetishtirib bergen. Ular- xoh tibbiyotchi va dorishunos, xoh riyozotchi va falakshunos, hox tarixchi va fiqix, xoh tilshunos va munaqqil (naql qiluvchi), xoh adib va shoir, xoh tasavvuf ilmining mashxur namoyandasiyu davlat arbobi bo'lsin yetuk ilmiy asrlar yaratganlar.Ulug' bobokalonlarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, abu nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, az Zamaxshariy Alisher Navoiy, Zaxiriddin Bobur, Abdulla Avloniy va boshqa alloma- mutafakkirlarning shuningdek, jadichilarning ismlarini va ular tomonidan ta'lim – tarbiyaga oid asrlarini tilga olish kifoyadir.

Bu mavzuni kengroq yoritishda milliy qadriyatlarimizga uzviy bog'liq bo'lgan diniy qadriyatlarimizning roli haqida to'xtalib o'tmasdan ilojimiz yo'qdir.

Diniy qadriyatlarini milliy qadriyatlardan ajratib o'rganish yoki tahlil qilish qiyin. Sababi, milliy qadriyatlar diniy qadriyatlar bilan qo'shilib ketib, mukammal umuminsoniy qadriyatga aylanadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov so'zlarini bilan aytganda: "Biz islom dini ota-bobolarimiz dini ekani, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifikat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz... Dinga hurmat va e'tiqod- biz uchun o'lmas qadriyatdir"⁴.

Millatning ravnaq topishida tarixan shakllangan milliy va diniy qadriyatlar, urf-odatlar, an'ana marosimlarning ahamiyati beqiyosdir. Milliy qadriyatlar avvalo, har bir millatning iftixori, faxri shu bilan birga ma'nnaviy merosining poydevori hamdir.

Islom dini 8 asrning boshlarida Markaziy Osiyoni arablar tomonidan istilo qilinishi oqibatida kirib kelgan. Keyinchalik Temuriylar imperiyasi va Mongol imperiyasi, shu jumladan, Markaziy Oiyo va bir necha yirik musulmon davlatlarda faoliyat olib borgan ko'plab taniqli islomiy olim va faylasuflar Markaziy Osiyodan etishibchiqdilar. (Islam came to Central Asia in the early part of the 8th century as part of the Muslim conquest of the

³ G.M.Ergasheva.Milliy qadriyatlar va shaxs ijtimoiy ximoyasining huquqiy mexanizmlarini takomil-lashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari.- T.: "Akademiya", 2007. 211-212 betlar.

⁴ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz. -T.:2000. 26- bet

region. Many well-known Islamic scientists and philosophers came from Central Asia, and several major Muslim empires, including the Timurid Empire and the Mughal Empire, originated in Central Asia).⁵

Mustaqillik milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish, ularni yanada teranroq anglashimiz uchun keng yo'l olib berdi. Mustaqillik, tufayli islam dini va islomiy qadriyatlarni tiklash borasida asrlarga teng amaliy ishlar qilindi. Xalqimiz hayoti va turmushida islam dini va islomiy qadriyatlar ma'naviy va ma'rifiy hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib qolgan. Prezidentimiz Islom Karimov so'zları bilan aytganda, "biz islam dini ota- bobolarimiz dini ekani, u biz uchun ham iyomon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz...dinga xurmat va e'tiqod- biz uchun o'limas qadriyatdir".

Hamma davrlarda, barcha xalqlar uchun ta'lim-tarbiya eng dorlzarb masala sifatida qaralgan. Xar bir millatning tarbiya borasida o'ziga xos ma'naviy merosi, tajribalari va yondashuvlari mavjud.

Koreya davlati ta'lim tizimida milliy tarbiyaga alohida e'tibor qaratiladi. Davlat maktablarida dinshunoslik o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab "Odobnoma" kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan. Bu fan o'z ichiga dinshunoslik asoslarini ham qamrab olgan bo'lib, qadriyat sifatida o'qitiladi. Ehromlarga sayyohat qilib borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma'naviyat tarixini o'rganish mактаб fanining majburiy davomi hisoblanadi.

Xitoy ta'lim tizimining tarixi juda uzoqdir, uning ildizi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xitoyda dastlabki maktablar eramizdan ancha ilgari vujudga kelgan. Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi (eramizdan oldingi V-IV asrlarda yashagan) Kun Szi (Konfutsiy) qator ilg'or pedagogik g'oyalarni olg'a surgan va xususiy o'qitishga asos solgan.

Globallashuv jarayonining milliy ma'naviyat va ahloqiy qadriyatlardagi o'ziga xosliklari yemirilishining oldiga to'siq bo'la oladigan omillarni yuzaga keltirsa va ulardan samarali foydalanish yo'lida har bir millat harakat qilishga intilsagina integratsiyalashuv jarayonining tabiiy kechishi davom etish imkoniyatlari saqlanib qolishi mumkin. Aks holda globallashuvning milliy o'ziga xosliklarini bir qolipa solishga o'tkazayotgan salbiy ta'siri avj olishi davom etadigan bo'lsa kuchlarning kuchsizlar ustidan hukmronlik qilishi uchun shart-sharoitlar yuzaga kelishi xavfi kuchayib boradi. Yana ham aniqrog'i Integratsiyalashuv jarayonining milliy, ma'naviy madaniyat, qadriyat va ilm-fan sohalarida millatlarning o'zaro tabiiy ta'sir o'tkazish va boyitishdagi imkoniyatlarining cheklanib borishi o'z navbatida har bir millatning mustaqil sub'ekt sifatida mavjud bo'lishiga tahdidning kuchayishiga olib keladi. Aslida globallashuv internatsionallashuv va integratsiyalashuv ta'sirida amal oshsagina barcha sohalarda tenglik tabiiylik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillarining amal qilishiga zamin yaratiladi.

"Xalq pedagogikasi" fanini o'qitishning ustuvor yo'nalishi:

Zamonaviy milliy pedagogika o'z mazmun va mohiyatini boyitishda, shaxs shakllanishiga ta'sirchanlikni oshirishda xalq pedagogikasi g'oyalariiga tayanadi. Xalq pedagogikasi o'z nomi bilan xalqchil usullari, qoidalari va tamoyillari bilan yoshlar tarbiyasida asosiy manba xisoblanadi.

- eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha bo'lgan pedagogika tariximizni chuqr o'rganish, buyuk mutafakkirlar merosini hozirgi davr mezonida tahlil qilish, xalq pedagogikasi, ma'naviy qadriyatlar asosida qo'llanmalar yaratish, milliy pedagogikada xalqimizning tarbiya borasidagi tajribasini singdirish, undan foydalanish metodikasini yaratish;

- xalqimizning mentaliteti, milliy mafkura, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari, demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatni talablari asosida

⁵www.pfh.de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf

mustaqillikni mustahkamlash, ma’naviy salohiyatni oshirish, har bir insonni, yosh avlodni XXI asr sharoitida baxtli yashashga tayyorlash omilini oshirish.

- ta’lim metodlarini takomillashtirish, milliy ta’lim modeli asosida pedagogik texnologiyani yaratish;

- tarbiyaning mazmuni va har bir insoniy fazilatning hozirgi davrdagi mohiyatini aniqlash, tarbiya mazmunida milliylik va umuminsoniylik uyg‘unligiga erishish. Hamkorlikdagi jahon xalqlari milliy qadriyatlarini o‘rganish va ommalashtirish;

- tarbiyaning umumiylarini takomillashtirish, Sharq xalqlarining tarbiya borasidagi tajribalarini qo‘llash metodikasini yaratish, tarbiya mazmuni va metodini insonparvarlashtirish;

- ma’naviy-axloqiy mazmunni takomillashtirish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish. Axloqiy tarbiyada sharqona namuna metodini qo‘llash texnologiyasini yaratish. Mahallada, oilada axloqiy tarbiya nazariyasi va ommabop metodikasini ishlab chiqish;

- “Xalq pedagogikasi” fanini o‘qitish jarayonida rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni didaktik jarayonga tatbiq etish usullarini takomillashtirish;

- Xalq pedagogikasi fani tarkibidagi mavzularni samarali o‘qitish orqali bo‘lg‘usi mutaxassislarda shaxs kompitensiyasi sifatlarini shakllantirish.

Demak, zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish hisoblanadi. Shu boisdan fan, texnika va ilg‘or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishning maqsad, mazmun, uslub va vositalarini ilmiy jihatdan ta’minalash pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

5-MAVZU: XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY O'YINLARNING MAZMUNI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Reja:

1. Milliy o'yin turlari.
2. Ta'lim-tarbiya jarayonida uo'yinlardan foydalanish.
3. O'yinlarning tarbiyaviy axamiyati.

Tayanch atamalar: O'yin, o'yinning mohiyati, chumurdi-qochdi, milliy o'yinlar, yetakchi faoliyat.

O'yin - inson faoliyatining ko'rinishlaridan biridir. Murakkab va qiziqarli hodisa sifatida u turli kasbdagi kishilar diqqatini jalb etadi. O'yin - inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rinni tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni "bolalikning hamroxi" ham deb atash qabul qilingan. U maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi, u mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi; o'yin

jarayonida bolani xayoloti, xotirasi faol ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatlari namoyon bo'ladi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'yinning pedagogik nazariyasini uning mohiyati va xususiyatlarini chuqurroq tushungandagina yaratish mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlar o'yin nazariyasining asosiy masalalarini birmuncha chuqurroq; yoritish imkonini beradi, chunonchi:

- 1.O'yinning mohiyati va o'ziga xosligi.
- 2.O'yinning bola tarbiyasidagi o'rni va uning bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayonda tutgan mavqeи.

Tabiyki, aqliy tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p jihatdan oila, ota-onas, keksalar va ustozlarning tarbiyasiga bog'liqdir. Ular jamiyatda, turmushda yuz bergan hodisalar natijasi bo'lgan ko'p yillik hayotiy tajribalarini yoshlarga o'rgatib, bolalarni bilim egallashga va mehnat qilishga jalb qilganlar.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham muayyan urug', qabila, elat yoki millat yashaydigan hududni begonalardan himoya qilish yashash tarzining muhim shartlaridan ana shu ruhda tarbiyalashga e'tibor qaratilgan. Bolalar o'zlarining psixologik xususiyatlariga ko'ra to voyaga etgunlaricha buning mohiyatini chuqur anglamaganliklari bois kattalarning Bu boradagi harakatlariga jiddiy yondashmaganlar va mas'uliyatni etarlicha his etmaganlar.

Hudud uchun kurash hayot kechirish va tiriklikni ta'minlash uchun zaruriyat ekanligini chuqur anglagan kattalar esa bolalar, yoshlarda hududni qo'riqlash, uni dushmanidan himoyalash ko'nikmalarini shakllantirishning samarali yo'llarini izlagan-lar. Bunday samarali yo'l sifatida bolalar faoliyatining asosiy ko'rinishlaridan bo'lgan o'yinlar tanlangan. Ibtidoiy odamlar mevalarni terib eb kun kechirish bilan mashg'ul bo'lgan davrda Bu sohaga oid ish tajribalari bilan birga o'yin-musobalarga ham ehtiyoj sezila boshlangan.

Birinchidan, mevalarni terib eyish davrida kim ko‘p va tez meva zahirasini yig‘sa, u to‘q bo‘lgan. Bu o‘ziga xos musobaqani vujudga keltirgan.

Ikkinchidan, mohir terimchilar qariganda, ularga daraxt uchiga chiqib, xatarli shoxlarda turib, meva terish qiyin bo‘lgan. Bundan foydalangan qariyalar bolalarga meva terishni ish sifatida emas, balki o‘yin shaklida o‘rgatishgan.⁶

Xalq og‘zaki ijodi namunalari merganlik, kamondan otish, nayza sanchish, kurash, qilichbozlik, ot yoki tuyalar ishtirokidagi poyga hamda uloqning ommaviy tadbirlarning tarkibiy ko‘rinishi bo‘lganligi, ular vositasida yoshlarda mardlik, epchillik, chaqqonlik, uddaburonlik, matonat kabi sifatlar tarbiyalan-ganligi, jangovarlik kayfiyati hosil qilinganligi to‘g‘risida hikoya qilinadi. Turli davrlarda yigitlarning jismoniy chiniqqanligi, ularning mard va jasur bo‘lishlariga jiddiy e’tibor qaratilganligi “Alpomish” va “To‘maris” dostonlarida keltirilgan quyidagi lavhalar ham isbotlaydi:

1. Balog‘at yoshiga etgan Barchinoy unga uylanish niyatida bo‘lgan yigitlar oldiga shart qo‘yib, otlar ishtirokidagi poygada g‘olib chiqqan, ming qadam masofada turib, yoy bilan tanga pulni mo‘ljalga ola bilgan va kurash tushib to‘qson alp (bahodir)ni yiqitgan yigitga turmushga chiqishini aytadi;

2. “Vaqt alla – palla bo‘lganda kuyov bilan kelinni ular uchun belgilangan soyabon aravaga chiqarish oldidan kurashtirib ko‘rishadi(bo‘lg‘usi kelin-kuyovlarning kuch sinashishi o‘zbeklar orasida yaqin kunlargacha saqlanib qolgan tortishmachoqning ibridoiy shakli edi)”.⁷

3. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, qadimdan “Qilich jangi”, “Tuya poyga”, “Tuyalar jangi”, “Otliqlar poygachi”, “Podachi”, “Poda to‘p”, “Jun to‘p”, “CHim to‘p”, “CHavgon” va boshqa o‘yinlardan yoshlarni jangovorlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali foydalanilgan.

O‘zbek xalq pedagogikasida aqliy tarbiyaning amalga oshirilishi shuni ko‘rsatadiki, bu sohada o‘yin faoliyati muhim rol o‘ynagan. Zero, bolalar tug‘ilganidan boshlab, ularda atrof-muhitni anglashga qiziqish uyg‘otishga ahamiyat berilgan. Ularga o‘sigan sayin bu qiziqish ham rivojlanib borgan. Natijada, bolalarda aql, xotira, ko‘p narsani bilishga havas, fikrni bir nuqtaga qaratish, mantiqiy fikrlash qobiliyati kengayib borgan, ular asta-sekin murakkab o‘yinlarni o‘ynay boshlaganlar.

Qadimda o‘yin turlari, jumladan, qo‘sinq shaklida, qo‘z bog‘lash, o‘yinga da’vat etish, chek tashlash, og‘iz boylash, o‘rtta qo‘limni top, sanoq kabi tarzda bo‘lgan. *Qizlar juft-juft bo‘lishib, kaftlarini bir-biriga urib aylanishib “CHittigul” qo‘shig‘ini aytganlar:*

CHitti gul-o, chittigul,
Hay-yu chittigul.
CHittigulga gul bosay,
Bir yonini yonbosay.
Hay-yu chittigul,
Hay-yu chittigul....
O‘g‘il bolalar esa:
Tomda tovuq qatormi,
Ayroningdan tortaymi?
O‘yin yoqmas bolalar,
Nomozshomdan qatormi?

⁶ Корабоев У. Ўзбек халқ ўйинлари. –Т.: “Санъат”, 2001, 6-бет.

⁷ Осим М. Широқ. Тарихий киссалар. –Т.: “Ёзувчи”, 1995, 4-бет.

Kel – ho!

Qo'shilg'ini aytishib, o'rtoqlarini o'yinga da'vat etganlar:

Bir, ikki o'n olti,

O'n olti deb kim aytidi?

O'n olti deb men aytdim,

Ishonmasang sanab boq....

Qo'shilg'ini aytib sanoqni o'rganganlar.

O'zbek xalq pedagogikasida **tez aytish** – bolalar aqliy faoliyatini, fikrlash qobiliyatini va nutqini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

Qizarib pishgan olmadni,

Olmadan nega olmadni,

Olmagan xo'p bo'bdi,

Endi kelsa, olma de...⁸

Yoki:

G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.

Olima olimdan olma oldimi,

Olima olimdan olma oldimi?

Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uzun quluoq.

To'p-to'p ko'k koptok, har to'p ko'k koptokda bittadan katta koptok.⁹

O'zbek xalqining uzoq yillar davomida aqliy tarbiyada qo'llagan yaratilgan “Bekinmachoq”, “Quvlashmachoq”, “Zag'izg'on”, “Aylanma darra”, “O'rtal qo'limni top”, “Kim chaqqon”, “Ayyor tulki”, “Tortishmachoq”, “YOshlom-yoshlom”, “Sarinchoq”, “Olma menda”, “CHumurdi - qochdi”, “Oq terakmi, ko'k terak” va boshqa harakatlari o'yinlari yosh yigit-qizlarda harakat faolligini, mustaqillik, fikrlash, chaqqonlik, do'stni himoya qilish, o'hshatish, chandalash, so'zlarni to'g'ri va bir vaqtida aytish, bir joyda turib turli harakatlarni bajarish kabi malaka va ko'nikmalarni egallashga yordam berdi. Masalan, “Oq terakmi, ko'k terak?” o'yinida oralig'i 10-12 metrli masofada 7-8 nafardan yoki undan oshiq bolalar saf tortib, ikki tomonda qo'l ushlashib, zanjirsimon shaklda turishadi. Bir tomonda saf tortib turgan bolalar baravariga qo'shiq qilib aytadilar:

Oq terakmi, ko'k terak,

Bizdan sizga kim kerak?

Javob:

Oladigan jon kerak!

Yana javob:

Ol-o oladigan janingni!

Narigi tomonning bolalaridan bittasi o'z to'dasidan ajralib chiqib, to'g'ri biron bolaning qo'liga uradi. Zanjirni uzadi yoki uzolmaydi, yo asir oladi yoki o'zi asirlikda qoladi.

“Chumurdi – qochdi” o'yinida 4-5 bola qatnashadi. Bolalar ariq bo'yicha keladilar. Shunda bolalardan biri “Chumurdi-qochdi” o'ynaymiz deb taklif qiladi. O'yin qoidasi bo'yicha suvgaga kim kechikib tushsa. SHu chumiriladi (sho'ng'itiladi). Uch-to'rt bola keyin tushgan bolani suv tagiga sho'ng'itib keyin qochib-suzib ketadilar. Chumurilgan bola boshqalarni quvadi. Kimni tutib olsa, endi shu chumuriladi.

⁸ А. Зуннунов. Халқ педагогикасида ақлий тарбия// Халқ таълими, 1994 йил 3-4-сонлар, 49-50-бетлар.

⁹ Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1995, 24-бет.

“Olma menda” o‘yinida esa bir necha bola suvgaga tushadi. Ulardan biri “Olma menda” deya sho‘ng‘ib ketadi. Keyin go‘yo olma qalqiyotgandek suvdan faqat boshini chiqarib yuboradi. Qolgan bolalar uni tutishga harakat qiladilar. “Olma menda” degan bola yana suv ostiga kirib qochadi davom etadi. Kim oldin haligi bolaning boshiga qo‘l tegizsa, olmani shu organ hisoblanadi. U qochadi va bolalar uni tutishga urinadilar.¹⁰

O‘zbek xalq pedagogikasining zukko tadqiqotchisi Zokir Mirtursunovning ta’kidlashicha, ov qilish o‘yinlari orqali tarbiyalashning ahamiyati juda kattadir: “YOshlarni ov qilishga o‘rgatishning biz uchun qimmatli tomoni shundaki, ov qilishga bog‘liq bo‘lgan bir qator jismoniy mashq malakalari egallanadi. YA’ni bola otda chopish ot ustida tik turish, yotish, ot yoniga og‘ish, otda chopcha turib kamon va miltiqdan o‘q ota bilih va hakozo mashq malakasini egallagan bo‘lishlari zarur. SHu bilan birga ov qushlari ulardan, qирг‘иу, qarchig‘ой va ov iti – tozi itni boqish, ovga o‘rgatish hamda ulardan foydalanish yo‘llarini o‘rganish talab qilinadi. YOshlarni ovga o‘rgatish, albatta, ma’lum tajribaga ega bo‘lgan kishilar tomonidan olib borilar edi”.¹¹

Xalq pedagogikasining asosiy qoidalardan biri bolalarni o‘z tengqurlari muhitida tarbiyalashda turli o‘yinlardan foydalanilgan. Xalk pedagogikasi o‘yinlar jarayonida bolalarda qat’iylik, tirishqoqlik, halollik, rostgo‘ylik va adolatlilik tarkib topishini, shuningdek, o‘yinlarning bolalar o‘rtasida do‘stlik va o‘rtoklikni hamda boshqa olijanob fazilatlarni rivojlantirishini yaxshi bilgan.

Boshqa xalqlardagi singari o‘zbek bolalarining o‘yinlari ham ularning jamoa bo‘lib qatnashuvini taqozo etishi ma’lum.

Binobarin, shunday o‘yinlar jamoatchilik hissini tarbiyalashda, xamjihatlik bilan harakat qilish, umumiyligini qabul kilingan normalar va qoidalarga bo‘ysunish malakalarini, ziyraklikni tarkib toptirishda katta ahamiyat kasb etadi. O‘yin qoidalari oldida barcha o‘yinchilar tengligi tuyg‘usini vujudga keltiradi.

O‘g‘il va qiz bolalarning mehnatga doir o‘yinlari, jumladan, qizlar mehmonlarni kutib olish va mehmondorchilik odobi, o‘zaro insoniy muloqotlar, turmush masalalarini xal etish, to‘y va hokazolardan iborat turli xalq milliy urf-odatlari va an‘analariga taqlid qilinadigan ko‘g‘irchoq o‘yinlarini o‘ynashi ular tarbiyasida juda muhim o‘rin tutadi. SHu o‘yinlar jarayonida bolalar kattalarning yaxshi xatti-harakatlarini va ishlarini takrorlaydilar. Ularning yaxshi so‘zlari - pand-nasihatlari, maslaxatlariga taqlid qiladilar (masalan, ona qo‘g‘irchoq orqali o‘z qiziga, ya’ni qo‘g‘irchoqning esa kizchaga o‘gitlar berishi va hokazo).

Bolalar o‘yinlarida kattalar foydalanadigan mehnat quollarining kichkina nusxalari, chorvadorlar, dehqonlar, hunarmandlar, ovchilar va boshqalarning mexnati jarayonlariga taqlid qilish katta o‘rin tutadi va bu hol ularni mehnatga psixologik hamda amaliy jihatdan tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, ko‘p o‘yinlar bolalar tafakkuri, idroki, xotirasi, zehni va abstrakt tasavvurini rivojlantirishda yordam beradi. SHu jihatdan ayrim manbalarda o‘zbeklarning juda qadimiy va o‘tmishda bolalar hamda yoshlar orasida bag‘oyat ommalashgan deya ta’riflangan turli o‘yinlari alohida qimmatga molik.

Zero, umr ko‘klamidagi o‘yin murg‘aklarni ulg‘aytiradi, hayotga tayyorlaydi. Bu jarayon ming yillar davomida ruhiyatimizga singib, irsiyatimizga o‘tgan. SHu bois hunar ham suyk suradi, jumladan, kichkintoy o‘zi to‘la anglab etmagan holda ajdodlari shug‘ullangan kasb -hunarni egallashga beixtiyor intiladi va murg‘ak ongida shakllangan

¹⁰ F. Жаҳонгирров. Ўзбек болалар фольклори. –Т.: “Ўқитувчи”, 1975, 110-115-бетлар.

¹¹ З.Миртурсунов. Ўзбек халқ педагогикаси –Т.: “Фан”, 1973, 116-бет

narsalarni yasashga urinadi. Bu sa'y-harakatlar odatda ko'pincha o'yinlar orqali amalga osha boradi. O'yinlar esa turmush tarzimizni har tomonlama qamrab olgan. Masalan, ot o'yin, qo'tir echki, do'ppi o'yin, hammompish, tosh o'yin, dastachilildak, uyakam o'yin, loyparsildoq, qurmatoyov, ko'ch-ko'ch o'yini va hokazo. Ro'yxatni istalgancha davom ettirish mumkin.

CHorvador oilasida tug'ilgan o'g'il yugurib yuradigan bo'lgach, novdani ot qilib minib, chopib o'ynay boshlaydi. Uni ko'rgan onalari yoki akalari:

Toyi, toyi jijincharoq,

Toy bo'lib o'yinqaroq, - deya erkalab, uni ruhlantiradi.

Dehqon oilasida tug'ilgan bolalar yozning issiq kunlarida to'planishib, hammompish o'ynashni yoqtiradilar. Bu o'z nomiga monand "uysozlik o'yini" bo'lib, kichkintoylar tuproqni hammomning gumbazi shaklida uyib, rosa shapatilab, so'ngra og'izlarida suv keltirib, gumbaz ustiga oz-oz sepib, yana shapatilab, gumbazning ustki qismini qotirib qo'shiq aytishadi:

Hammompish, hammompish,

Hammanikidan oldin pish.

Hammadan oldin pishmasang,

Buzilib ket, o'yilib tush!

Keyin bir tomonidan eshik ochib, gumbaz ichidagi xom tuproqlar qo'l bilan chiqarib tashlanadi. Bunda pishiq shibalangan gumbaz buzilmay qoladi. Gumbazi buzilmay qolgan "usta" ruhlanib, baqirib-chaqirib, oyoq-qo'llarini harakatlantirib, qo'shiq aytib yuboradi:

Mening buvim: "Suv", - dedi,

"Oyoq-qo'ling yuv", - dedi.

Bu o'yin jarayonida norasidaning uysoz-ustachilikka bo'lgan havasi orta boradi, mehnatga layoqati oshadi.

Loyporsildoq o'yini juda qiziq: loydan kosacha yasab, uni to'nkarib turib, silliq erga urilsa, bu "idish" ichida siqilgan havo porsillab, boshmaldoqning tirnog'icha joyni o'pirib chiqadi, porsillagan tovush qancha baland chiqsa, jajjilarning quvnok shovqini shunchalik avjlanadi, turli-tuman, uzuq-yuluq qo'shiqlarga ulanadi... Loy erga urilaverib, rosa pishigach, undan uzun chorqirra g'ishtchalar tayyorlanadi va bir-biriga o'xshamaydigan, har biri o'ziga xos tarh asosida – qadimgi paxsa devor imoratlar andozasida uychalar yasaladi. Bu ham uysoz ustachilik hunariga bolaning qo'lini o'rgatib, ko'zini pishitib boradigan o'yinlardan biridir.

O'yinlar qaysi shakl, mavzu, yo'nalishga ega bo'lmasin, loy tuproq bilanmi, cho'pu latta bilanmi, ipu arqon bilanmi, murg'akni hayotga, turmush ikir-chikirlariga, ro'zg'or ishlariga hozirlashda o'ziga xos hunar maktabi vazifasini bajargan. Bolalar o'yinlarining barchasi, ba'zan yuqori pardada, ba'zan xirgoysi qilgan holda, bari bir qo'shiq aytib turib bajarilgan, uning uchun ularga o'ziga xos bir sinkretik asar sifatida qarash lozim.

Ma'lumki, kichiklar kattalarning yurish-turishiga. xatti-harakatiga, so'ziga, ishiga taqlid qilishni ma'qul ko'radilar. Qo'shiklar xirgoysi qilish bilan birga, meqnat jarayonida ota-onasi, aka-opasi yonida turib ishlashni yoqtiradilar. Kichkintoylar mehnat qo'shiklarini bevosita bir ish bilan mashg'ullik jarayonida juda ko'tarinki kayfiyatda ijro qiladilar. O'zlarini kattalardek sezadilar. CHunki ulardag'i ulg'ayish istagi, hayotda o'z mavjudligini his etish, zavq-shavq mana shu holatda murg'ak qalbdagi to'lqinlarni jo'sh urdiradi, kuylatib yuboradi. SHu yo'sinda ma'sumlar o'zlar shug'ullanayotgan o'yin-mehnat maromiga hamohang qo'shiqlar ham to'qib aytadilar.

Bolalar ruhiyatida kechayotgan ijodiy jarayonni kattalar o‘z o‘rnida, me’yorida rag‘batlantirmoqlari lozim. Ularning qobiliyati va ijro imkoniyatiga qarab, yo‘l-yo‘riq berib turmoqlari zarur. Xato qilsa, sira kamsitmay, ohista, samimiy tushuntirib turilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayniqsa, ota-onas mehnat jarayonida farzandlarini yonlarida olib yursalar, ularga zerikib qolmaydigan darajada ish buyursalar, o‘zlari ko‘sish xirgoyi qilib ishlasalar, bu norasidaning ham akdiy, ham jismoniy o‘sishi uchun eng asosiy omillardan an’anaviy o‘zbekona tarbiya usullaridan bo‘ladi.

Turli o‘yinlar jarayonida bolalar tabiat, hayvonot dunyosi va hokazolar bilan tanishadilar. Masalan, bolalar toshlar bilan o‘ynayotganlarida ularning rangi, shakli, og‘irligi va hokazolarni bilib oladilar, toshlar ana shu xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanishini tushunadilar. O‘yinlar jarayonida ularning nutqi o‘sadi, tafakkuri rivojlanadi, lug‘at boyligi kengayadi.

O‘tmishda o‘z otlariga ega bo‘lgan oilalardaga bolalar kichik yoshlaridan chavandozlikni o‘rgana boshlagan. Inqilobgacha o‘tgan ayrim mualliflarning kitoblarida o‘zbeklar o‘g‘il bolalarni besh yoshidan otga mindirganini va ular o‘n yoshlaridan jang o‘yinlari xamda chavandozlik poygalarida qatnashgani tilga olingan.

YOzma manbalarda o‘zbeklarning faqat erkaklari emas, balki ayollari ham ot minishni yaxshi bilgani qayd qilingan. Rasmiy nashrlarda yozilganidek, o‘zbek ovullarida ot poygalari har qanday kulay hollarda, hatto, yangi uy solinishi munosabati bilan ham o‘tkazilgan. Bunday musobaqalarga kishilar qunt bilan tayyorgarlik ko‘rganlar, o‘z otlarini tayyorlaganlar va bunday ishlarda o‘smirlar hamda yoshlar zimmasiga ko‘p vazifalar yuklangan. Ayrim kishilar o‘zining butun hayotini poyga otlarini tayyorlash kasbiga bag‘ishlagan. Otalar yoki bobolar o‘zlarining ana shu sohadagi tajribalarini va chavandozlarga muxabbatini kichkintoylargan o‘rgatgan.

O‘zbek bolalar o‘yinlarining ayrimlari harbiy o‘yinlar bo‘lib, buning sababi vatan mudofaachilarini tayyorlash va tashqaridan tez-tez bo‘lib turadigan hujumlarni muvaffaqiyatli qaytarish zarurligadan edi. "Kamon otish", "Nayzabozlik", "Urush" va boshqalar xarbiy o‘yinlarga kirgan. O‘zbek bolalari orasida 5-6 yoshlaridan boshlab kamon otish o‘yini juda ommaviy tus olgan. Jamoatchilik bu o‘yinni ma’qullagan va kattalar doimo bolalarni qamon otishga rag‘batlantirganlar. Xalq tarbiyada kamon otish o‘yiniga qanchalik e’tibor bergenini shundan xam anglash mumkinki, onalar o‘z allalarida o‘g‘lining kuchli va kamon otishda mohir bo‘lishi haqidagi istaklarni kuylaganlar. Uzoq o‘tmishda o‘zbeklar o‘lgan kishining qabriga ham kamon o‘qini qo‘yib ko‘mganlar. Boshkacha aytganda, o‘zbek uchun kamon o‘qi qabristongacha hamroh bo‘lgan. Kamon otish jasurlikni tarbiyalagan, mohir kamonchi-jangchilar tayyorlashning yaxshi maktabi bo‘lgan.

6-MAVZU: DINIY TA'LIMOT, HADISLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.

Reja:

1. Islom dinini insonlar tafakkurini o'stirishdagi xizmati .
2. «Qur'oni Karim»-ibrat kitobi .
3. Hadis ilmining rivojlanishida allomalarining qo'shgan hissasi.

Tayanch atamalar: Iyomon, e'tiqod, tolibi ilm, ilmu hikmat, hikmat, sabr-qanoatli, ehsonli, saxovatli, muruvvatlik.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) Hadisi Shariflarida ilm inson kamolotining negizi, ezgulik va poklik insonlarni turli ofatlardan saqlovchi vosita deb qaraladi. Hadislarda ilm poklik, halollik, kishilarni yaxshilik sari boshlovchi, qorong'ilikda yo'l ko'rsatuvchi mash'al tariqasida talqin qilinadi. Ilm-bu hikmat, poklik ramzi, ilmsizlik johillik, u bilan shug'ullanmaslik nopoliklikka va jaholatga olib kelishi ham, ham ulardan ta'kidlanadi.

Islom dinining asosini imon, e'tiqod tashkil etadi. Shuning uchun hadislarda "Dinning ofati uchtadir:

- 1) beamal olim;
- 2) zolim hokim;

3) bilmasdan fatvo aytuvchi ulamo" deyiladi;¹² Shuning uchun ilmni qadrlovchi kishiga o'rgatish lozimligi, uni xo'rlovchi, mensimaydigan kishiga o'rgatish gunoh, deb qaraladi.

Ilm bilan shug'ullanishning o'zi yetarli emas. Boshqalarni undan xabardor qilish muhimdir. Hadislarning birida ilm o'rganmoq uni tarqatmoq bilan barobar olib boriladi, deyiladi: "Kimki ummatlarimga mening sunnatimga oid 40 hadisni yodlab yetkazsa, qiyomat kunida men uni shafoatinga loyiq kishilar safiga kirgizaman" (112-Hadis).

Tolibi ilmnинг xolis, kamtarin bo'lishi o'ta muhimdir. Bilganini ko'z-ko'z qilish, maqtanish gunohdir. Kishi bilganini e'tirof etish bilan birga bilmaganini ham tan olishi joiz. Ayniqsa, diniy faoliyat bilan shug'ullanadigan ulamolar, maktab va madrasalarda tolibi ilmlarga saboq beruvchi ustoz-mudarrislar aytadigan gapini, qiladigan ishini, chiqaradigan fatvosini va beradigan bilimini o'ylab berishi kerak. Hatto aytadigan maslahati ham holisona, beminnat bo'lishi lozim. Hadislarning birida shunday deyiladi: "Kimki birodariga bir ish qilishga bilib noto'g'ri maslahat bersa, demak birodariga xiyonat qilgan bo'ladi" (110-Hadis).

Ilm o'zligini anglash, xudoni, dinni bilish demakdir Ilm olimniki pesh qilish vositasi bo'lmasligi zarur. "Kimki olimlarga maqtanish uchun, - deyiladi hadislarda,- yoki nodonlar bilan tortishish, yoxud odamlarning dillarini o'ziga moyil qilish uchun ilm olsa do'zaxga boradi" (108-Hadis).

Ilmli kishilarni e'zozlash, hurmat qilish har kim uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ilmli kishilarga insonlar, butun mavjudot xayrixoh. Bir hadisda aytildi: "Ilmga har bir narsa istig'for aytadi, hatto dengizdagи baliqlar ham" (93-hadis).

Ilm olish hunar o'rganish olajanob va savobli. Ilm, hikmatlar, hunar kishini turli noplardan asraydi: "Hattoki bir soat ilm o'rganish kechasi bilan ibodat qilib chiqqandan afzaldir" (536-hadis).

Ilm kishilarga naf keltirishi lozim. Olimlar ilm o'rganib boshqalar yo'lini yorug' qilishlari, ularga rahnomo bo'lishlari joiz. "Ilm ikki xildir, biri qalbda bo'ladi – uni ilmi nofe' (foydali) deyiladi, ikkinchisi tilda bo'ladi – u odam bolasiga yuborgan Alloh taoloning xujjatidir" (95-hadis). Ilm foydali bo'lishi uchun u odamlarga o'rgatilishi lozim. Ilmli kishi sadoqatl bo'lishi, kishilarga yaxshilikni o'rgatishi kerak. Ilm bilimli kishi uchun fazilat bo'lsa, bu holatni u boshqalarga singdirishi zarur.

¹² Ҳадис. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). I, II, III, IV жилд. Қомуслар Бош таҳририяти; -Т.: 1991-1996 (кейинги мисоллар одам шу мањбалардан олинди).

“Odamlarga yaxshilikni o‘rgatib, o‘zini esidan chiqargan olim, kishilarga yorug‘lik berib, o‘zini quydiradigan shamchiroqqa o‘xshaydi” (106-hadis) yoki “Ilmni o‘rganib uni hech kimga aytmayotgan odam boylikni to‘plab uni hech (narsaga) sarf qilmayotgan baxilga o‘xshaydi” (106-hadis).

Ilmu xikmat o‘tkinchi emas, u abadiy. Shuning uchun mo‘min kishiga vafotidan keyin yetib turadigan savob narsa uning tarqatgan ilmdir.

Hadislarda ilmli kishi mevali daraxtga o‘xshatiladi. Lekin ilmli kishining aytadigan fikrlari boshqalarga xush kelishi, tushunarli bo‘lishi darkor. Muhammad payg‘ambar o‘z hadislarda va’z aytganda kishilarni zeriktirmaslik, aytilayotgan fikrni tushunarli bo‘lishini ta’kidlagan: “Osonlashtiringiz, qiyinlashtirmangiz! Xushxabar aytингiz, nafratlantirmangiz (o‘zingizdan bezdirmangiz)!” (121-hadis).

Ilmni o‘rganish shaxsiy manfaat uchun bo‘imasligi darkor. “Bir kishi Alloh ilmini (Islomni) teran o‘rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadir va Alloh yuborgan hidoyatni o‘zi o‘rganib, o‘zgalarga ham o‘rgatadilar. Ikkinchi bir kishi ilm o‘rganib, odamlarga o‘rgatadilar. Ammo o‘zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib o‘zi ham o‘rganmaydir, o‘zgalarga ham o‘rgatmaydir. Bulardan birinchisi mo‘min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir” (26-hadis).

Ilm kishilarni odillik va insonparvarlikka undaydi. Ilmli kishilarni hadislarda unumdon tuproqqa o‘xshatiladiki, undan ungan o‘simliklar, giyohlar insonlarni ozirlantiradi. Suv yerlarga hayot bag‘ishlaganidek, ilm ham kishilarga ezbilik, yaxshilik keltiradi: “Ilm ko‘p yoqqan yomg‘irga o‘xshaydir. Ba’zi yer sof unumdon bo‘lib, yomg‘irni o‘ziga singdiradirda, har xil o‘simliklar va ko‘katlarni o‘stiradilar va ba’zi yer qurg‘oq, qattiq bo‘lib, suvni emmasdan o‘zida to‘playdir. Undan Alloh taolo bandalarini foydalantirgaydir. Odamlar suvdan ichgaydir, hayvonlarni va ekinlarni sug‘orgaydirlar. Ba’zi yer esa tekis bo‘lib, suvni o‘zida tutib qolmaydir, ko‘katni ham ko‘kartirmaydir”, - deyiladi hadislarda.

Ilm, hikmat o‘rganmoq mo‘minning eng yuksak fazilatidir. Chunki ilm kishilarga tayanch, rahnamo, zebu-ziynat, mo‘min uchun ilm hayotining yo‘ldoshi va dushmanlarga qarshi kurashda quroldir. “*Ilm egallang!*”- deb xitob qilgan payg‘ambarimiz. – Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida – yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir”. Shuning uchun ilm olish yo‘lida har qanday riyozat bo‘lsa ham kishi undan qaytmasligi kerak. Ilm-hunar o‘rganish mashaqqatdir. Ammo inson o‘z irodasi, aql-zakovati bilan unga intilmog‘i lozim. “Ilmu hunarni Xitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar”, deydi (126-hadis) Muhammad payg‘ambar.

Ilm – bu ma’rifat, fazilat. Ilm jamiyat musaffoligining belgisidir. Ilm- ma’rifat bor joyda diyonat bor. Agar ilm susaysa – jaholat, nodonlik kuchayadi. Ilmsiz mamlakatda fitnalar kuchayadi, qotillik avj oladi.

Ilm susaysa nopoklik, fohisha zo‘rayadi. Bu borada hadislarda: “Ilmning susaymog‘i – jaholatning kuchaymog‘i, zinoning avj olmog‘i, xotinlarning ko‘paymog‘i – erkaklarning ozaymog‘i”, - deyiladi (36-hadis).

Ilm, xikmat jamiyatdagi ma’naviyat manbai. Shuning uchun ilm o‘rganib uni tarqatish avj olsa fitnalar, haraj (qotillikning) oldi olinadi. Hadislarda ulamolar ilm o‘rganib, ilm tarqatishga kirishsinlar, bilmaganlarga o‘rgatsinlar. Zero, ilm sir tutilsa, halokat boshlanadi, deb aytilgan. Shu bilan birga ilm faqat birovlar mulki emas, u butun mo‘minlarning ma’naviy mulkidir. Ilmni sir tutish, uni tarqatmaslik jamiyatni halokatga olib keladi. Hadislarning o‘zidek ilm, xikmat ham umumbashariyat mulki bo‘lmog‘i lozim.

Hadislarning qimmatli, insoniy va axloqiyligi shundaki, ularda barcha masalalar holisona ifodalangan. Ularda ta’limning hozirgi ko‘p muammolari o‘ziga xos tarzda bayon etilgan. “**Har bir muslimonga ilmga intilish farzdir**”. Bu fikr ta’limning umumiy majburiyligiga ishora emasmi? Bu fikrlar Ya.A. Kamenskiyning “Buyuk didaktika”si yozilmasdan bir necha asr avval aytilgan.

Umuman hadislardagi fikrlarning qimmatli tomoni yana shundaki, ular umumbashariydir. Ular biron bir ijtimoiy guruh manfaati nuqtai-nazaridan yozilmagan. Bundan tashqari ular insoniyat ma'naviyati, axloqi, madaniyat tarraqqiyotining sarchashmalari, ular rivojining poydevorini tashkil qilganligi bilan ham ardoqlidir. Qolaversa, hadislarning o'zi ham xikmat, ham ilmdir.

Shunday qilib, Qur'oni Karim va Hadislarda insonni o'qib-o'rganishga, ilm vositasi bilan dunyodagi voqeа-hodisalarning tub mazmun-mohiyatini anglab yetishga targ'ib qilinadi.

Qur'oni Karimda axloq va odob masalasiga alohida e'tibor berilgan. Ta'kidlanishicha, insonning jamiyatda tutgan o'rni bilan chambarchas bog'liq axloq-odob, ota-oni va qarindosh-urug'larga hurmat yetim-esir, qambag'al-miskinlarga muruvvat va saxovatlilik, halollik, poklik, to'g'rilik, o'z halol mehnati va kasb-hunari bilan yashash, oila va nikoh munosabatlari, o'z bolalarini boqish, ta'lim va tarbiya berish, omonatiga xiyonat qilmaslik, adolatparvarlik, do'stlik va birodarlik kabi yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlardir.

Qur'oni Karimda sabr-qanoatli, ehsonli, saxovatli, muruvvatlik, keng fe'lli bo'lish yuksak ma'rifat va yuksak axloqiy fazilat belgisi, deb ta'kidlanadi: "Albatta sabrlilar o'z savoblarini hisob-kitobsiz to'liq oladilar" ("Zumar" surasi, 10-oyati). "Sabr-qanoatga ehson bilan bir qatorda eng yuksak fazilat sifatida katta e'tibor beriladi: Muhammad, mashaqatli va ozorlarga sabr qiling! Zotan, Alloh chiroyli amal qiluvchilarning ajr-mukofotlarini zoe etmas" ("Hud" surasi, 115-oyati).

Shuningdek insondagi axloqiy fazilatlardan eng muhimi xayri ehson haqida alohida fikr yuritiladi: "Alloh senga ehson qilgani kabi sen ham (Allohnинг bandalariga) infoq-ehson qil" ("Qasas" surasi, 77-oyati).

Qur'oni Karimning "Al-Isro" surasini 23-24-oyatlarida ota-onaning bolani dunyoga keltirishi bilan birga, farzandga yaxshi ism qo'yishi, o'z farzandini jismoniy va ma'naviy tomonidan yetuk kishi qilib tarbiyalashi, ya'ni ilmu ma'rifatga o'rgatish va biror bir kasb-hunar egasi qilish, o'g'il bola bo'lsa uylantirish, qiz bola bo'lsa turmushga chiqarish, ularga moddiy va ma'naviy yordam berib turishi ta'kidlanadi.

Shuningdek, mazkur oyatlarda farzandlar zimmasidagi uchta vazifa o'z ifodasini topgan. *Birinchisi, farzandlar ota-onalariga yaxshi muamala, shirinsuxan bo'lishlari, ularga mehribon bo'lmoqlari lozim. Ikkinchidan, ota-oni kafolatini yaxshilash, nafaqa berish, ularni so'rashga muhtoj qilmay yoki minnat qilmay izzat-hurmat ko'rsatishdan iboratdir. Uchinchidan, ota-oni o'z farzandlari mol-mulkidan foydalanishga haqlidir va hokazo.* Qur'oni Karimda marhamat qilinadi: "Rabbing o'zidan boshqa narsalarga ibodat qilmaslikka va ota-onasiga xayr-ehson va yaxshi muamala qilishga buyurdi. Ota-onangizdan biri yoki ikkovlari ulug'lik, keksalik yoshiga yetsalar, ularga "uf'demang, gapiring. Va ota-onangizga rahmat qanoatini yozing va hamda "Ey parvardigoro, ota-onamni meni yoshligimdan qanday qilib tarbiyalab o'stirgan bo'lsalar, shundayin rahmat qil" ("Al -Is" surasi, 23-24-oyatlar).

Qur'oni Karimning ma'lum oyatlarda insondagi eng zarur insoniy fazilatlardan sanalgan shirinsuxonlik, to'g'ri so'zlik va muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalari talqin etiladi: "Kishilarga chiroyli so'zlar so'zlangiz" ("Baqara" surasi 53-oyati); "Alloh tomonidan bo'lgan bir marhamat sababli ularga (sahobalaringizga) yumshoq so'zli bo'ldingiz. Agar qo'pol, qattiqqo'l bo'lganiningizda edi, albatta atrofingizdan tarqalib ketgan bo'lar edilar" ("Ol-i Imron" surasi, 159-oyati).

Qur'oni Karimni "Nur" surasining 27-28-oyatlarida yaxshi fazilatlari kishilar bilan ham, yomon xislatli kishilar bilan ham muomala-muloqotda bo'lish va salomlashishning o'ziga xos odob-axloq qoidalari berilgan. Shuningdek, "Niso" surasining 86-oyatida esa salomga alik olishga oid qoidalari bo'yicha muhim ko'rsatmalar mavjud: "Qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo'lmasa) o'sha iborasni qaytaringlar".

Qur’oni Karimda insondagi eng zarur xislatlardan sanalgan oljanoblik ulug’lanib, baxillik esa lan’atlanadi. Baxillik yo‘lini tashlab saxiylikka tomon yuz o‘girganlar najot topguvchilar sifatida talqin etiladi: “Kimki o‘z nafsining baxilligidan saqlana olsa, bas, ana o‘shalar najot topguvchi zotlardir” (“*Xashr*” surasi 9-oyati).

Qur’oni Karimda insonni axloqiy kamolotga yetkazishga zid xususiyatlar: manmanlik, takabburlik, yolg‘onchilik, munofiqlik, xiyonatkorlik, xasislik, zulmkorlik, buzuqchilik, o‘g‘rilik, poraxo‘rlik, ichkilikbozlik, zinokorlik, qimorbozlik, giyohvand-lik, nohaq qon to‘kishlar, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, chaqimchilik, baxillik, g‘iybatchilik, hasadgo‘ylik, g‘azabnoklik, ochko‘zlik va hakoza xususida ham ibratli fikrlar bildirilgan.

Ma’lumki, manmanlik – aybini tan olmaslik, takabburlik sanaladi. Manmanlik haqida Qur’on Karimni “Isro” surasining 37-oyatida: “Er yuzida Kibr-Havo bilan yurmagin! Chunki sen (oyoqlaring bilan) hargiz yerni teshib (uning tubiga) ketolmaysan va bo‘yi bastda tog‘larga yetolmaysan”, - deyiladi.

Bu to‘g‘rida payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislaridan birida: “Kimki o‘zini katta olsa, yurishida o‘ziga bino qo‘ysa, oxiratda Allohning g‘azabiga uchraydi” (821-hadis), deb ogohlantiradi.

Ma’lumki, VIII - IX asrlar Hadis ilmi uchun «oltin davr» hisoblanadi.

Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to‘plam (as-sahih as – sitta) ni yaratgan muhaddislar “ham vatandoshlarimiz bo‘lib, ilm – u fan rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al - Buxoriy 194 (810) – 256 (870), Imom Muslim ibn al – Xajjoj 206 (819) – 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at –Termiziy 209 (824), - 279 (892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy 202 (817) – 275 (880), Imom Ahmad an – Nasoniy 215 (830) – 303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Majja 209 (824) – 273 (886) kabi allomalardir.

Olimlar “al-kutub as-sitta” (olti kitob)ni quyidagilardan iborat deb ko‘rsatadilar:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan “As-Sahih”.

2. Imom Muslim an-Nishonpuriy (imom Muslim ibn al - Hajjoj) tomonidan yozilgan “As-Sahih”.

3. Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan “Sunnai”.

4. Imom Abu Dovud Sulaymon – Sijistoniy tomonidan yozilgan “Sunnai”.

5. Imom ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan “Aj-jami al-Kabir”.

6. Ahmad an – Nasoiy tomonidan yozilgan “Sunnai” kabi to‘plamlardir.

7. Imom al – Buxoriyning shoh-asari “Al-Jome’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”) 4 jiddan iborat bo‘lib, unga 600 ming hadidan 7275 ta eng “sahih” hadislar kiritlgan, takrorlanmaydiganlari 4000 hadisdan iboratdir.

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytganda, islom ta’limoti mujassamlashgan Qur’oni Karimdagi “Biz odam bolalarini aziz-mukarram qildik... ularga halol-pok narsalardan rizqu – ro‘z berdik va ularni o‘zimiz yaratgan juda ko‘p jonzotlardan afzal-ustun qilib qo‘ydik”; “Ey mo‘minlar, sizlarga rizq qilib berganimiz-pokiza narsalardan yenglar”, “Bandalarimga aytingki, ular eng go‘zal so‘zlardan so‘zlashsinlar”, “Odamlarni aldab fitnaga solish o‘ldirishdan yomonroqdir”, “Alloh zulm qiluvchilarni sevmaydi”, “Parvardigoringiz... otanonaga yaxshilik qilishlarining amr etdi...” kabi muhim g‘oyalar; shuningdek, Hadisi Sharifdagи “Ilм egallang! Ilм-sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida – yo‘Idosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir”; “Ilм olish har bir muslim va muslima uchun farzdir”; “Beshikdan to qabrga kirgunlaringizcha ilм izlangiz”, “Yoshlikda olingan ilм toshga o‘ylgan naqsh kabidir”; “Yolg‘on so‘zlama”, “o‘zinga ravvo ko‘rganni boshqalarga ham ravvo ko‘r”, “Englar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka o‘tmanglar”, “Ahmoqdan uzoqlashing”, “Nonni e‘zozlanglar”; deb zikr etilgan hikmatlar komil insonni tarbiyalashda muhim manbadir.

Ta'kidlash joizki, Muso al-Xorazmiy, Imom Ismoil al – Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Shayx Najmuddinov Kubro, Sulaymon Boqirg'oniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamashshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Davoniy, Voiz Koshifiy va ulardan keyin ijod qilgan boshqa mutafak-kirlar islom ta'limotini, Qur'oni Karimni, payg'ambarimizning aytgan so'zları, diniy va axloqiy yo'l-yo'riqlari, hikmatlaridan iborat manba-Hadisi Shariflarni yaxshi bilganlar, ularning ta'sirida ijod etib, kelgusi avlodlar uchun benazir meros qoldirganlar. Aslini olganda esa, mutafakkirlarimizning tabiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari-ning asosi, shuningdek, asarlarining mazmun – mohiyati va g'oyasi ham Qur'oni Karim va Hadisi Sharif ta'limotiga asoslanadi. Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o'rgatish Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlarni o'rganish va ulardag'i ko'rsatmalarni o'zlashtirish bilan olib borilgan. Shunga ko'ra, Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga kuchli ta'sir etgan va islom ta'limoti allomalarimiz asarlarida ilmiy talqin etiladi. Bularda ilgari surilgan g'oyalar yosh avlodning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishiga, pedagogik fikr taraqqiyoti tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shunday qilib, biz islom ta'limotida, ta'lim-tarbiya masalalarining tutgan o'rnni tahlil etar ekanmiz, bu davr ma'naviy-ma'rifiy tafakkurining xarakterli tomoni shundaki, ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq sohasidagi tasavvur, fikr, bilimlar islom diniy aqidalari va ta'limotlarini ham bilimning, ilmiy tasavvurning bir ko'rinishi sifatida o'z ichiga singdirib yubordi. Dunyoviy ilmlar va diniy ilohiy tasavvurlar bir butun holda qabul etilib, inson ilmiy tushunchalari asosida talqin etilib, ular jahonga mashhur qomusiy mutaffakkir-larimiz asarlarida keng o'rinn egalladi.

Iymon – bu Olloxning borligiga, uning sifatlariga, paygambarlariga, kiyomat kuniga, yaxshilik va yomonlik. Ollox subxonaxu va taolonning uzidan bulishiga a dinda kursatilgan narsalarning majmuasiga ishonish demakdir. Imon arabcha Suz bulib, Ishonch ma'nosini bildiradi. Imonlik kishining mumin deyishadi.

Mo'min, ya'ni imon keltirgan, ishongan odam.

Imon – kalbning duri bulib, kishini e'tikodli, yaxshilikka, ezgulikka, xalol va pok bulishga undaydi. Ollox taologa keltirilgan imon muminni xar kanday dashat va kulfatdan saklovchi kuchdir. Paygambarimiz insonlar kalbidan bezovtalikni ketkazish, uning dunyoviy extiyolariga kul bulmasligi, xayoti davomida utkinchi istaklar va xatarlar ta'sirida kolmasliklari uchun ular diliqa imonni joylashga uz xayotlarini baxsh etdilar.

Rasulullox salolloxu alayxissalom xazrati Abbos ugillariga shunday nasixat kilgan edilar:

«Ey farzand Olloxni yodda tut sang, u seni unutmaydi biror narsani suramokchi bulsang xudodan sura, undan madad kut. Bilginki, boy bergen narsang kulingga kytmaydi, mubtalo bulgan narsang seni chetlab utaolmaydi».

Imonli bulgan musilmon kuyidagilarni bilib kuyishi lozim.

Imon keltirish nima?

Imon keltirish, ya'ni «Lo iloxa Olloxu Muxammadur Rasulullox» deyishi.

Islomning besh rukni nima?

1. Imon keltirish.
2. Besh vakt nomoz ukish.
3. Zakot berish.
4. Ruza tutish.
5. Xaj kilish.

Ollox taologa imon insonni jismoniy va akliy kullikdan ozod etar ekan, uni marifatli kasb va xunarda moxir bulishga undaydi.

Imon takozosi Bilan xayot kechirgan ajdodlarimizdan jaxon axli ilmu xunar urganganligiga butun tarix guvoxdir.

Xazrati Ali shunday degan edilar:

«Mening besh pandimga kulok soling: xar biringiz xudodan uzgadan umid kilmang.

2. gunoxdan boshka narsadan kurkmang.

3-4. bilmagan narsani urganishdan va bilmagan narsani suraganda bilmayman deyishdan uyalmang.

5. sabrli buling. Boshning tanada tutgan urni kanday bulsa, sabrning imonda tutgan urni shundaydir.

Boshisiz tana bulmaganidek, sabrsiz imon xam bulmas. Xakikiy olim kimligini sizlarga aytadigan bulsam: insonlarga gunolarni bezab kursatmaydi. Ollox taolo makridan saklanishga kafolat bermaydi va Ollox taolo marxamatidan ularni noumid kilmaydi».

Al-Buxoriy uz xadislarida uz kushnisiga ozor bermagan, mexmonni xurmat kilgan, yaxshi suzlardan suzlagan yoki jim utirgan kishining oxirati imonli bulishligini kursatib:

«Imon oltmisht tub'alardan iborat bulib, ularning eng afzali. «Lai loxa illolloxo» kalimasi bulsa, eng akllisi odamlarga oqr beoadigan narsalarni yuldan chetga chikarib tashlashdir.Xay xam imon shochalaridan biridir» - deb ta'kidlaydilar.

A.Navoiy imonli odam uzi tuku kushnimini och bulishiga chiday olmasligi xususida suzlab:

**Anga dogi kerak yetursa nasib,
Xoxida gar kulochu xoxi ummoch**

deydar.

Och va muxtojlar bilan dasturxonida borini baam kurmok bu diyonat va saxovat. Saxiy ximmatli va marxamatli inson fakiru kambagal xonodoniga uz xadya va exsonini olib Kirishi imonli kishiga xosdir. Ajdodlarimiz uzlarining ishlarini imon, diyonatga asoslanib olib borganlar.

Ulug bobomiz Amir Temur xam «dalat ishlarining 9 ulushi kengash, tadbir va mashvarat kolgan bir ulushi esa kiliya Bilan bajo keltirilur» - deb shark odatlarining uziga xos xususiyatlarini jaxonga taratgan edilar.

Imonli kishilarning kalbi tinik a begubor bulishi bilan birga, ma'rifatparardir.

Imonli kishi akl-zakovat soxibibilishi bilan birga insoniy, ijtimoiy muammolarni xal kilishda faol ishtirot etadi. Birovga iyonat kilmaydi. Imonli bulish odamni tanlagan yuli, goyasi.

Kimki shu yuldan kurashsa, uz goyasiga sodik, imonli odam buladi. Imonli bulish uz xalqiga va uning yaxshi an'analariga xurmat bilan karashadi.

Imon – bu or-nomus, ijdon, sadokat, burch kayui axloqiy tushunchalarni ifodalaydi. Yurtimiz ozodligi, or-nomus va inson kadr-kimmati yulida kurbon bulgan F.Xujae, A.Ikromov, Usmon Nosir, Chulpon, A.Kodiriylar chinakam imonli, insofli, vijdonli odamlar bulishgan.

Ularning uz xalqiga bulgan sodikligi, sadokati uzlari tanlagan yuldan kaytara olmadi. Mansab, pul uchun milliy an'annani oyok osti kilish imonga shak keltirishdir. Imonli kishi shunday saxovatliki, uning yuzidan nur yogilib turadi. Bu nur kishilarni uziga sexrlab kuyadi. Ziyo, nur fikr tovlanib turgan bunday imonli odamlar bor bulsin.

Imonning xususiyatlari xakida «Arastuning Iskandarga nasixati» da kuyidagicha kursatilagan: «Takadorlik imon vositasida kamol topadi. Imon esa fikru andisha soyasida xosil buladi. Bu dunyo xakida uzing bir fikr kilib kursang, uni uluglash maksadida narigi dunyoni xor tutmogini noloyik ish ekanligini tushunasan. Zero bu dunyo ranju balo xonasi, turumsiz muvakkat manzildir».

Imon- e'tikod susaygan joyda yolgonchilik, kalloblik razolat va kaboxat tantana kiladi.

Jamiyatni manna shunday illatlardan saklash va tozalash uchun avvalo yoshlarda e'tikodni mustaxkamlash shart. Chunki e'tikodsiz, imonsiz kishidan xar kanday yovuzlikni kutish mumkin. Imon-e'tikod esa bolalikdan tarkib toptiriladi. Bu soxada xalqmiz boy ijodiy

tajribasi va an'anaga ega. Masalan yolg'on gapirmaslik, xaromdan xazar kilish, chakimchilik, giybitdan uzini tiyish, omonatga xiyonat kilmaslik, tuxmat kilishdan kurtish, xatto dushmanga xam yomonlikni ravo kurishdan saklanish kabi fazilatlarni tarkib toptirish yoshlarni imon-e'tikodli kilib tarbiyalashga zamin yaratadi.

Anna shunday fazilatlarga eag bulgan yoshlар yuksak ma'naiyatli, dunyokarashining kalbi boy, oilasiga, dustlariga okibatli, xalqi va ataniga sadokatli, imoni but e'tikodi mustaxkam kishilar bulib yetishadi. Kelajagimizni Uzbekiston kelajagini anna shunday yoshlар yaratadi. Ana ixlos, ana e'tikod! Aynan shunday ixos, e'tikodni yoshlarda tarkib toptirishimiz kerak.

Biz shundagani komil ishonch Bilan kelajagimiz ishonchli kullarda deb ayta olamiz. Shunday yoshlarni tarbiyalagan xalq ulmaydi. Nomi o'lmaydi.

7-MAVZU: MILLIY MUSIQA, QO'SHIQCHILIK VA MILLIY TEATRLAR XALQ PEDAGOGIKASINING TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Reja:

1. Og'zakichilik-etnopedagogika manbalarining yaratilish tarzidmi sifatida.
2. Mavsumiy marosim qo'shiqlari.
3. Qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch atamalar: Iymon, e'tiqod, tolibi ilm, ilmu hikmat, hikmat, sabr-qanoatli, ehsonli, saxovatli, muruvvatlik.

Etnopedagogika geneseologik, tarixiy, mantiqiy tuzilishi nuqtai-nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

Etnopedagogika manbalari jamoaviy ijod mahsuli bo'lib, ularning vujudga kelgan vaqt ham, muallifi ham noma'lum.

Og'zakichilik-etnopedagogika manbalarining yaratilish tarzidir; U hali yozuv vujudga kelmasidanoq ajdodlarimiz turmushi, dunyoqarashi, pedagogik qarashlarining ifodasi sifatida vujudga kelgan.

Vorisiylik-etnopedagogika manbalari bulmish folklor asarlariga xos xususiyat bo'lib, ular zamirida pedagogik fikrlar xalqning xotira manbaidan og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan.

Ko'pvariantlilik-ma'lum bir etnopedagogik asarning yonma-yon yashay oladigan, bir-birini mantiqan inkor qilmaydigan, ammo o'zaro farqlanuvchi nusxalarida o'z ifodasini topadigan xususiyatdir. Masalan, "Alpomish" dostonining xalq orasida 30 dan ortiq variantlari yashab kelmoqda:

An'anaviylik-etnopedagogika manbalarining avloddan-avlodga o'tish jarayonida o'zining dastlabki shakli va qahramonlarini saqlab qolganligida ko'zga tashlanadi.

MDH mamlakatlarida xalq pedagogikasi muammolari Rusiyalik G.S. Vinogradov, gruziyalik A.F. Xintibidze, chuvashistonlik G.N. Volkov, tataristonlik Ya.I. Xanbikov, ozarbayjonlik A.SH. Hoshimov, tojikistonlik Sh.A. Mirzaev, turkmanistonlik K.Pirliev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbekistonda xalq pedagogikasining ba'zi muammolari Z.Mirtursunov, B.Qodirov, I.Ashirboev, G.Ubaydullaev, M.SHerboev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

"Etnopedagogika" atamasini ilk bor chuvashistonlik G.N.Volkov pedagogik adabiyotlarga kiritdi va uni alohida fan sifatida ta'riflab berdi. (Volkov G.N. va boshqalar. Etnopedagogika. Toshkent, "FAN", 2000 s.6.).

Xalq pedagogikasi manbalari va ulardag'i pedagogik fikrlar xilma-xilligi, rang-barangligi ham kishi diqqatini o'ziga tortadi. Avvalo, xalq pedagogik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida etnopedagogika manbalarida pedagogika nazariyasi muammolari emas, balki pedagogik amaliyotiga doir fikrlar ko'proq o'z aksini topgan. Shuningdek, etnopedagogika manbalarida shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, xalq muhim deb hisoblagan tarbiya yo'nalishlari haqidagi tasavvurlar, yoshlar tarbiyasida foydalanish mumkin bo'lган ilg'or tarbiya an'analaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Xalq pedagogiksida faqatgina tarbiya jarayoni emas, balki ta'lim jarayoniga dahldor fikrlar ham olg'a surilgan. Shunday bo'lishi tabiiy ham. Chunki, yosh avlodga hamisha xalqning o'zi tarbiya bilan birga ta'lim ham berib kelgan, ularga kasb-kor, amaliy san'at

malakalari, sport o'yinlarini o'rgatib kelgan. Demak, etnopedagogikada ta'lim va tarbiya yaxlit pedagogik jarayonning komponentlari sifatida qaraladi.

Insonga sog'liq, to'kin-sochinlik tila sh, uning hayotidagi biror muhim sanani nishonlash maqsadida o'tkaziladigan, an'anaga aylanib qolgan harakatlar marosim deyiladi. Marosimlarning mavsumiy va oilaviy-maishiy marosim turlari mavjud.

Mavsumiy marosimlar bahorgi, yozgi, kuzgi, qishki marosimlar kiradi. Ular ham turlarga bo'linadi. Jumladan, bahorgi mavsumiy marosimlarga: loy tutish, shox moylar (dalaga qo'sh chiqarish), navro'z, yomg'ir chaqirish, "Sust xotin" ("Avesto" da madh etilgan) marosimlari kirgan. Chunonchi:

Havolarni yog'dirgan, Sust xotin,

Bug'doylarni bo'ldirgan, Sust xotin.

Osmondan tomchi tashlab, Sust xotin,

Elu yurtni to'ydirgin, Sust xotin...

Yozgi marosimlar: "CHoy momo" (SHamol ona demakdir, unda shamolda mevalarni to'kilishdan saqlashga undalgan), va boshqalar.

Oilaviy-maishiy marosimlar jumlasiga to'y, (beshik) to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi, kelin salom, motam marosimi, yig'i-yo'qlovlар va boshqalarda ko'zda tutilgan kishining tarbiyaviy sifatlari ulug'langan, insoniyat qadr-qimmati yuqori ko'tarilgan, insonparvarlik, yoshlarda ularga havas, hurmat uyg'otishga undalgan.

Qo'shiqlar – voqelikni yakka shaxs kechinmalari orqali aks ettiradi. "Qo'shiq" – turkiy "qo'shmoq" so'zidan olingan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nolarini anglatadi.

Qo'shiqlarda xalq ma'naviyati qudrati, irodasi ifodalanadi. U kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlikka, vatanparvarlikka, do'stlikka, sevgi sadoqatga chorlaydi. Xalq qo'shiqlarining mehnat qo'shiqlari (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik), lirik qo'shiqlar, tarixiy qo'shiqlar, termalar singari turlari mavjud.

Doston – qissa, hikoya, ta'rif, sarguzasht ma'nolarini anglatadi. U keng tarqalgan etnopedagogik janr bo'lib, xalqning ma'naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari,adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik kabi tarbiyaviy sifatlarni targ'ib etadi. Dostonlarda komil shaxs tarbiyaviy sifatlari umumlashgan holda beriladi. Oliy insoniy sifatlar bo'rttiriladi. Shuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o'rnak olish hissi tug'iladi. Dostonlarni baxshilar kuylashadi. "Baxshi" mo'g'ulcha va buryatcha "baxsha", "bag'sha" so'zlaridan olingan bo'lib, "ustod" , "ma'rifatchi" degan ma'nolarni anglatadi.

Og'zaki drama – etnopedagogika yo'nalishidagi ijodning mustaqil turi bo'lib, qadim zamonlarda vujudga kelgan. U xalq ongi, axloqiy mezonlari, estetik didini tarbiyalashga xizmat qiladi. Og'zaki dramada tomosha ko'rsatish bahonasida hayot qiyinchiliklari, sinfiy munosabatlar fosh qilingan, tomoshabinda zarur tarbiyaviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Og'zaki dramani qiziqchilar, askiyabozlar, masxarabozlar satirik uslubda ijsro etishgan. Ularda ochko'zlik, ko'zbo'yamachilik, zulm, adolatsizlik, zo'ravonlik, buzuqlik kabi salbiy axloqiy sifatlar hajv va yengil kulgi ostida tanqid qilingan.

Askiya – arabcha "zakiy" so'zidan olingan bo'lib, "so'zamol", "o'tkir", "zehnli" degan ma'nolarni anglatadi. Askiya – so'z o'yini yoki hozirjavoblar musobaqasidir. Askiyaning payrov turida "Bo'lasizmi", "O'xshatdim", "Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz" kabi turlari mavjud. Ularda kishilarning salbiy xislatlari achchiq kulgi

vositasida tanqid (masxara) qilinadi. Askiya ko'pincha to'y, sayil, marosimlarda uyushtiriladi. Askiya Farg'ona vodiysida keng tarqalgan bo'lib, u kishiga estetik zavq berish bilan birga did-farosat, aql-zakovat, sezgirlik, topqirlik, hozirjavoblik sifatlarini tarbiyalaydi. Insonni izza qilish vositasida o'z-o'zini tarbiyalashga undaydi.

8-MAVZU: XALQ AMALIY SAN'ATI, TASVIRIY SAN'AT, MUSIQA SAN'ATI YOSH AVLODNI ESTETIK TARBIYALASHDA MUHIM OMIL SIFATIDA

Reja:

1. Xalq pedagogikasida kasb-hunar egallashning afzalligi haqida
2. Kasb-xunarning vorisiyligi va kasb-hunar sohibining ma'naviy-axloqiy sifatlari xususida.
3. Etnopedagogikada iqtisodiy tarbiyaning yoritilishi.

Tayanch atamalar: Kasb-hunar, kasb-hunar tarbiyasi, kasb-hunar o'rghanish, sohibining axloqiy sifatlari, kasb-hunarning vorisiyligi.

Etnopedagogikada kasb-hunar egallashning afzalligi va vorisiyligi haqida

"Insonning o'zi va o'z oilasining baxt-saodati yo'lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil etadi", -degan edi Prezident I.A. Karimov ("O'zbekiston - buyuk kelajak sari", T., "O'zbekiston", 1998. 63- bet). Darhaqiqat, bugungi yoshlarni kelajak hayotiga tayyorlash ularga zamon talabiga mos kasb-hunar o'rgatishni taqoza etadi. Zero: "Jahon bozoridagi integratsiya, ilmiy – texnikaviy taraqqiyot sur'atlari ... tarbiya, ta'lim, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik masalalarini hal etishga jamul – jam yondoshishni taqoza qilmoqda". Hozirgi paytda yoshlarga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishlariga sharoit yaratmay turib, biz respublika xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish sohalarini tubdan o'zgartira olmaymiz. Chunki, ishsizlik, maosh kamligi, kadrlar taqchilligi va boshqalar ana shu tufaylidir. Bunda unutib yuborilgan xalq an'analarini va udumlarini tiklashga ham e'tibor berish kerak" (Usha manba).

Ko'rinib turibdiki, kasb-hunar tarbiyasi hozir mamlakatimizda ustivor yo'nalishga aylanmoqda. "Ta'lim to'g'risidagi Qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ham xuddi shu maqsadga qaratilgan hujjatlardir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda bizga xalq pedagogikasi yordam berishi mumkin. Chunki ajdodlarimiz kasb-hunar tarbiyasiga alohida e'tibor berishgan. Ilmni, kasb-hunarni so'rab o'rghanish or hisoblanmagan, balki "Orlanib so'ramagan o'ziga zolim" hisoblangan.

Qadimgi xalq maqollarida kasb-hunar egallashning afzalligi va ijtimoiy ahamiyati ko'rsatib utilgan. Chunonchi, "Temirchining ming urgani, bosqonchining bir urgani" maqolida temirchiga qaraganda bosqonchining zarbi kuchliligi emas, balki hunarsizdan hunarlining zarbi unumli ekanligi aytilsa: "Ko'ra-ko'ra ko'zchil bo'lsan, so'zlay-so'zlay so'zchil bo'lsan" maqolida esa, ilmni va kasb-hunarni asta-sekinlik bilan o'rjanib, mahoratli bo'lish mumkinligiga ishora qilinmoqda. Xalq maqollarida hunarni mashaqqatsiz o'rjanib bo'lmasligi "Tikansiz gul bo'lmas, mashaqqatsiz - hunar" makolida yakkol ko'rsatiladi. Hunar boylikka yetaklovchi yo'l ekanligi shunday ta'kidlanadi: "Tekin boylik axtarguncha, o'zingga bop hunar top!". Hunarni bilimdon ustozdan o'rghanish lozim, deyiladi xalq maqolida. Aks holda: "Usta ko'rmagan shogird, har maqomga yo'rg'alar". Har bir ishni shu sohani kasb qilgan kishi bajarsa sifatli bo'lishi: "CHumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin" maqolida ta'kidlanadi. Hunarning inson hayotidagi ahamiyati makollarda shunday ko'rsatiladi: "Hunar – zar, hunarsiz – xor", "Hunarli kishi och qolmas", "Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining" kabi va b.. Shuningdek, kasb-hunarni o'rghanishda kechikmaslik zarurligi: "Qirqingda surnaychi bo'lsang, qachon chalasan?", yoki: "Qirqida qo'liga soz olgan, qiyomatda qulog'ini burar" maqollarida ta'kidlangan.

Kasb-hunar o'rganishning ijtimoiy ahamiyati ham etnopedagogika manbalarida alohida ta'kidlab o'tilgan. Jumladan, "CHistoni Elikbek" afsonasida jinlarga qarshi kurashgan Elibek, "Xubbi" afsonasida Amudaryoda 700 yil hukmronlik qilgan Xubbi, "Gershasp" afsonasida ajdarga qarshi kurashgan Gershasp, Ibn Sinoning "Tadbiri manozil" asarida ("... bir kasb-hunarni o'zlashtirishga kirishgan bo'lsin ..."), Kaykovusning "Qobusnoma" sida ("... Ey farzand, ogoh bo'lqilki, hunarsiz kishi ... hech kishiga naf' yetqurmas ..." tarzida) kasb-hunar egallahning ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan.

Kasb-hunarning vorisiyligi, kasb-hunar sohibining axloqiy sifatlari xususida

Pedagogika fanida tarbiyaning vorisiyligi haqidagi tushunchaga asoslanib, kasb-hunar tarbiyasingin ham vorisiyligini tushuntirish mumkin. Chunki o'tmishda xalq o'z farzandlariga ilm va tarbiya berish bilan birga ularga ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan kasb-hunar o'rgatishni ham zarur hisoblagan. Bu kasb bolaga kelajakda uning o'zi va oilasi uchun moddiy ta'minot vositasi bo'lishi bilan birga, xalqi va Vatani uchun ham foyda keltirishi zarurligi ta'kidlangan. O'tmishda kasb-xunar urganishning ijtimoiy axamiyatini ajdodlarimiz tug'ri anglab yetganlar. Kasb xunarni ota-onu uz farzandlariga, ustozlar esa shogirdlariga meros koldirganlar. Xozir xam xalq orasida kasb-xunar vorisiyligi davrm etmokda va bu xodjisaning pedagogik axamiyati pasaygan emas.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida farzand dunyoga kelgach, ota-onaning asosiy burchlaridan biri unga yaxshi ism qo'yish, oqil tarbiyachiga berish, sunnat qilish, savod o'rgatish bilan birga unga hunar va kasb o'rgatmoqni meros deb bilgil, deyiladi. Shuningdek: "Hunarsiz kishi bila do'stlik qilmag'il, nedinkim bunday kishi do'stlik va dushmanlikka loyiq ermasdur," - deydi Kaykovus.

Islom ta'limotining manbalaridan biri hisoblangan "Hadis" larda dehqonchilik kasbi shunday ulug'lanadi: "Ekin ekinglar. Ekin ekish barokatli kasbdir. Ekinlaringni barakasini oshirish uchun qo'riqchilarni ko'paytiringlar".

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida bilimli bo'lishni ham oliy kasb deb hisoblaydi:

Bilim ma'nosin bil, nima der bilim:

Bilimdan yo'lni chap soldi o'lim.

Bilimsiz barchasi dardmanddir, dardmand,

Bu dard davosiga bilim hunarmand.

Hatto, 3000 yil ilgari yaratilgan "Avesto" da tasvirlangan "Odami Od" hikoyasidagi Odami Od (forscha – "ulkan odam" demak) ham mohir duradgor usta sifatida chinordan kema yasab, odamlarni qutqarib qolgan bo'lsa, bu g'oya dostonlar, aytishuvlar, madhiya va marsiyalarda ham davom etib, hunarli kishining xalq uchun xizmati buyuk va qimmatli axloqiy sifat ekanligi ta'kidlanadi.

Xalq pedagogikasida ta'kidlanadiki, inson uchun va har qanday kasb sohibi uchun yaxshi axloqiy fazilatli bo'lish katta ahamiyatga ega. Aks holda, xalqqa, Vatanga foydasiz kasbning ijtimoiy ahamiyati yo'q. Hunarli kishi, kasb sohibi xalqning koriga yarashi, ommanning mushkulini oson qilishga bel bog'lasa, uning mehnati qadrlanadi. Jumladan, A. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning toshlarni qo'porish va kanal qazish hunari, "Alpomish" dagi Hakimbekning jang qilish. kamon otish hunari va boshka ijobjiy axloqiy sifatlari xalq tomonidan ulug'lanadi. Kaykovus inson xar kanday xunarni egallagan bulsa xam kishi albatta ijobjiy axloqli bulishi lozim deb xisoblaydi va bani -nsonni yumshoq so'zli bo'lishga chaqirib: "Barcha hunarlar ichida eng ulug'i, so'z hunaridir", - deb hisoblaydi.

Navoiy muallimlik kasbini eng ulug kasblar jjumlasiga kiritadi. Muallimga xos sifatlar haqida gapirib, u: “Mudarrisning kerakki g’arazi mansab bo’lmasa va bilmas ilmni ayturg’a murtakab bo’lmasa, hundamolig’ uchun dars havzasin tuzmasa ... va g’avg’o ko’rguzmasa. Jahldin dostori boshida ... uzun bo’lmasa ...”, - deb, salbiy sifatlarini tasvirlasa, ijobjiy sifati haqida: “... Aning ishi odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas ...” deydi. Demak, etnopedagogikadagi kasb xunar egallashning ijtimoiy axamiyatiga doir ushbu g’oyalarni, hozirgi bo’lajak pedagoglar, albatta, bilishi zarur.

Etnopedagogikada iqtisodiy tarbiyaning yoritilishi

Xalq pedagogikasida iqtisodiy tarbiya ijtimoiy ahamiyatga ega yo’nalish sifatida tarlikin etiladi. Zero, yer yuzidagi mavjud moddiy boyliklar qancha ko’p bo’lmasin, undan tejab-tergab foydalanish zarurligi uqtiriladi. Shuningdek, inson hayotda yashar ekan o’zi, o’z oilasi, xalqiga moddiy foyda keltirishi zarurligi, moddiy muhtoj bo’lib qolmaslik choralarini ko’rishi lozimligini ta’kidlaydi. Chunki: “Nonsiz yashab bo’lmas, gapni oshab bo’lmas”, “Oz bo’lsa, eplab ko’r, ko’p bo’lsa, seplab ko’r”, “Suv qattiq yerda to’xtaydi”, “Taom – tuz bilan, tuz o’lchov bilan”, “Tejog’lik ish - bejog’lik” ekanligini xalq o’z tajribasida sinab ko’rib, keljak avlodlarga pandnomma sifatida qoldirgan.

Xalq hamisha yoshlarning tejamkor bo’lishiga g’amxo’rlik qilgan. “Yotib yeishiga tog’ ham chidamaydi” qabilidagi maqolda mavjud moddiy boyliklarni tinimsiz sarf qilish tufayli eng katta boylik ham poyoniga yetishi ta’kidlanadi, so’ngra: “Yo’qni yo’ndirib bo’lmas” ligixam eslatiladi. Shuning uchun: “Yarim kunlik umring qolsa ham, bir kunlik mol-dunyong bo’lsin!” deb, o’git beradi. Aks holda “Hisobini bilmagan, hamyonidan ayrilar,-” deydi xalq. Chunki, hayotda hamisha: “Avval iqtisod, keyin siyosat” tarzida ish yuritish taqoza etiladi.

“Avesto” da inson o’z hayotini moddiy to’kinlikda o’tkazishi lozim deb ko’rsatiladi. Bu moddiy farovonlik tufayli amalga oshadi. Shundagina inson sihat-salomat bo’ladi, uzoq umr ko’rib, baxtli bo’ladi, deyiladi zardo’shiylik ta’limotida.

Islomda ham iqtisodiy tarbiyaga jiddiy e’tibor beriladi. Jumladan, “Qur‘on” da ta’kidlanishicha, mol—dunyo insonni sinash uchun beriladi. Mol-dunyoga erishgan kishi uni to’g’ri yo’lda sarflashi kerak (“Anfol” surasi, 28-oyat). “Kaxf” surasining 28-oyatida “... Ishi isrofgarchilik bo’lgan kimsalarga itoat etmang!” – deyiladi. Hadislarda ham xayr-saxovatli bo’lib, yeb-ichish, lekin isrof qilmaslikka da‘vat etiladi.

So’fiylik ta’limotida ham iqtisodiy tarbiya musulmon dini qoidalariga muvofiq targ’ib etiladi. Uning taniqli vakillaridan biri Ahmad Yassaviy nafsga mute bo’lganlarni qoralaydi:

*Nafsdan kechib, qanoatni pesha qilg’an,
Har kim topsa, rozi bo’lib, bo’yi sung’an.
Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg’an,
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo’q.*

Ibn Sino “Luqmoni Hakimning aziz farzandiga qilgan yuz nasihat” da:... “8. Do’stni foyda va ziyonda imtihon qil”. ...21. «Ishni, xarjni kirimga qarab qil”. Ammo: “...67. Bolalaring nima desa, o’shani qilaverma” slikni, ... 98. Inson o’zini o’ta xor (ham) qilmasligi” kerakligini ta’kidlaydi.

“Qobusnama” da: “Har narsa qo’lingga tushsa: bir tangadan ikki hissani o’z oilangga xarj etgil, bir hissani qarilig’ va ojizlig’ vaqtining zaruriy ishlarig’ a ehtiyyot qilib qo’yg’il”, - deb ta’kidlangan. Demak, iqtisodiy tarbiya bola uchun hayotda zarur vositadir.

2. SEMINAR MASHG'ULOT MATERIALLARI

AMALIY MASHG'ULOTI MAVZULARI.

1-AMALIY MASHG'ULOTI: "XALQ PEDAGOGIKASI" FANINI O'RGANISHNING DOLZARBLIGI.

Reja:

1. Fanni o'rghanishning dolzarbligi.
2. Kursning predmeti, obyekti.
3. Xalq pedagogikasi fanini o'rghanishning maqsad va vazifalari
4. Xalq pedagogikasining pedagogika fanlari tizimidagi o'rni.

1-guruh “Xalq pedagogikasi fanining maqsadi, vazifalar”ga doir toifalash jadvalinito`ldiring

“Xalq pedagogikasi” tushunchasi	Xalq pedagogikasi – pedagogikaning alohida sohasi sifatida	Xalq pedagogikasi ning asosiy kategoriyalari	Xalq pedagogikasining ilmiy- tadqiqot metodlari	Xalq pedagogikasi rivojiga doir xorij tajribasi

2-guruh Xalq pedagogikasi fanining maqsadi, vazifalariga doir quyidagi jadvalinito`ldiring

“Xalq pedagogikasi” tushunchasi	Xalq pedagogikasi – pedagogikaning alohida sohasi sifatida	Xalq pedagogikasi ning asosiy kategoriyalari	Xalq pedagogikasi ning ilmiy- tadqiqot metodlari	Xalq pedagogikasi rivojiga doir xorij tajribasi

KEYS

Pedagogik annotatsiya: tarbiya va ta'limganlikning ikki qanoti bor: Birinchisi-ota-onao'giti va oiladagi muhit hisoblansa, ikkinchisi-maktab, o'rta maxsus o'quv yurtlari va nihoyat olyi ta'limgan bosqichi hisoblanadi. Demak, ta'limgan olishda ota-onalar birinchi mas'ul shaxslar hisoblanadi. Ular farzandlar kelajagi uchun umr bo'yli qayg'urishlari lozim. Agar farzandlar ota-onalar izidan chiqishmasa ular muktabda ham, o'rta maxsus o'quv yurtlarida ham namunali o'quvchi hisoblanadi. Shu tufayli bo'lsa kerak, jamoatchilik yaxshi farzandlar suhabatida bo'lsa "Bo'tam, kimning farzandi bo'lasiz", -deb so'rab qoladi. Ota-onalarining ismi sharifini eshitgach "Ha, ota-onasi ham yaxshi insonlarda" deb qo'yadi. Intizomsiz, aroq ichuvchi, nasha chekuvchi, ma'muriy organlar qo'lliga tushgan yoshlarning avlodini eshitgach, hech narsa demay, "him"...deb qo'yishadi. **Vaziyat:** Roviyarning rivoyat qilishicha, kunlardan bir kuni do'stlari Eron shohining vaziri Anushirvoni Odildan "Hazrat, aytingchi, do'stingiz kimu-dushmaningiz kim?" -debsa'rab qolishadi. Eron hukmdorining eng yaqin kishisi hisoblangan vaziru a'zam uchun muxoliflari tomonidan berilgan bu savol juda qaltis edi. Bu davrda uning do'stlari ham, dushmanlari ham serob edi. Biroz mulohazadan so'ng vaziru a'zam: "Mening eng yaqin do'stlarim ham farzandlarim, dushmanlarim ham farzandlarim" -deb donolarcha javob bergan ekan. Mashvaratda hozir bo'lgan podshohi olam qars urib, eshik og'asiga vazirgazarbop chopon yopishni buyuribdi.

Topshiriq:

1. Rivoyatdagi vaziyatni tahlil qiling
2. Vaziyatda vazir javobining mazmuni nimada?

“Muammoli vaziyat” jadvalini to’ldiring

Muammo (asosiy vakichik muammolar)	Yechim	Natija

1. Xalq Pedagogikasi fani nimani o’rgatadi?

- Pedagogika taraqqiyotida falsafa muammolarini
- Yosh avlodni anatomik tuzilishini
 - xalqimizning asrlar davomida to’plagan boy tajribalarini
 - Bolalarni bilimli qilishni
- 2. Pedagogika ilmida “xalq pedagogikasi” atamasining izohlashga necha xilyondoshuv mavjud:
 - 1
 - 2
 - 3
 - 4

Xalq Pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlarini aniqlang.

- modellashtirish, intervyu, anketa, kuzatish, suhbat, pedagogik eksperiment
- kurgazmali, og’zaki, laboratoriya
- tarbiyalovchi vaziyatlar, pedagogik talab, o’rnak
- reproduktiv mashq o’rganish, jamoatchilik fikridan foydalanish.

2. Xalq Pedagogikasi fanda yana qanday deb yuritiladi.

- etnopedagogika
- aksiologiya
- akmeologiya
- didaktika

3. Ped. fanida xalq pedagogikasiga xos eng muhim belgilaridan biri uning

- qadimiyligidir
- yangiligidir
- tarmoqligidir
- tizimligidir

4. Xalq pedagogikasi bilan bog`liq fanlar aniq ifodalangan javobni ko’rsating.

- didaktika, metodika, siyosatshunoslik, bolashunoslik
- tarix, adabiyot, san’at, falsafa, musiqa
- umumiy, maxsus pedagogika, xususiy metodika, pedagogika tarixi
- xususiy metodika bolalar anatomiyasini va fiziologiyasi maktab gigienasi

5. Xalq pedagogikasi ilmining asosiy xususiyatlari:

- Ijtimoiylik-pedagogika ilmi avvalambor ijtimoiy vazifalarni hal

etishgayo'naltirilgan va qaratilgan bo'ladi.

-gumanitar- pedagogika ilmi o'z mohiyatiga ko'ra gumanitar hisoblanib, insonnio'rghanish, uning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishini o'rganadi.

- ochiqlilik- pedagogika ilmi boshqa fanlardan farqli o'laroq, inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi.

-barcha javoblar to'g'ri

6. Xalq pedagogikasi:

-tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui;

- adabiyot va san`at asarlarida xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o'zida ning tarixan aniq tipini mujassamlantirgan, shuningdek, muallifning ma`naviy estetik kontseptsiyasi;

- Pedagogika taraqqiyotida falsafa muammolarini o'rganuvchi fan;

- Pedagogik atama

7. Aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sir hisoblanib, ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirishga yo'naltirilgan jarayon-

-ta'lim

-tarbiya

-ma'lumot olish

-dars

8. Bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, ki-shini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.

-ta'lim

-tarbiya

-ma'lumot

-dars

2 AMALIY MASHG'ULOTI: XALQ PEDAGOGIKASIDA OILAVIY TARBIYANING AKS ETISHI

.Reja:

- 1.Xalq pedagogikasida bola – ta’lim va tarbiya obyekti va subyekti sifatida.
- 2.Oilaviy tarbiyada xalq pedagogikasidan foydalanish imkoniyatlari
3. Oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Xalq pedagogikasida oila ma’naviyati.
- 4.Barkamol shaxs tarbiyasida oilaning muhim ahamiyati

KEYS

Pedagogik annotatsiya: Ota – ona o’zлari tuqqan bolasini eru jahonga ishonmay bu dunyoning markaziga aylantirib oladilar. Bolaga buni (dunyoning markazi bo’lishni) o’rgatishadi. Bola nima qilsin? O’rganadi. Bunday ota – onalar tarbiyasida: “Faqat mening bolamga yaxshi bo’lishi kerak. Bolam baxtli bo’lishi kerak” degan tamoyilga amal qiladilar va ... qattiq adashadilar.

Bolasining istagan, hatto istamagan, so’ramagan narsalarni ham uyub tashlashadi. Mehnatni, birovga g’amho’rlikni, boshqalar ham xuddi o’zi kabi odam ekanligi, ularning ham hurmati, manfaatlari borligini eslatmaydilar.

Vaziyat: Bola bog’chaga boradi. O’zidek bolalar bilan birinchi uchrashuv. Boshqalardan ota – onasinkichalik g’amxo’rlikni kutadi. Ko’rmagach talab qiladi. Birinchi uchrashuv – jamoa bilan birinchi to’qnashuvga aylandi. Yig’laydi.

Maktabda muomala, murosa, burchni bilmaydi. Ma’suliysiz. Jon kuydirmaydi. Ota – ona buni qo’llab – quvvatlaydi. Boshqa maktabga ko’chiradi. “katta bo’lsa hammasijoyiga tushib ketadi”, - deb o’zlarini aldanadilar. U katta bo’ladi. Unga qo’shilib talablari, ishyoqmaslik, mas’uliyatsizlik, boshqalarga iddaolari, illatlari ham voyaga etadi. Kuchgakiradi.

Ota–onaning belidan kuchi, cho’ntagidan qurbi ketadi. Endi befoyda, keraksiz odamlarga aylaniб qoladilar.

Xudbin yigit endi jamoaviylik, ko’pchilik bo’lib yashash tartib qoidalariga, burchlariga to’qnashadi. Birinchi to’qnashuvdayoq engiladi. “Men yaxshi – hamma yomon” degan qulay yolg’on qobig’iga uy qurib, yashay boshlaydi. Shunday qilib, ota –onaning odamlarning loqaydligi jamiyatdan, hayotdan asossiz norozi egotsetristlarni paydo qiladi. Ma’naviy qarovsizlik, burchsizlik o’smirni giyohvandlarga, jinoyatchilarga, kim mo’may pul va’da qilsa, o’shalarga topshiradi.

Shu tariqa, xudbinlar jabrini birinchi – ularning ota-onalari tortadi. Keyin boshqalar. Chunki tushuntirib, odamlarga yaxshilik qilish kerak desangiz, “buning tomi ketibdi”, - deb o’ylaydi. “Vatanga nima berding?” desangiz, u: “Vatanim menga nima berdi?” deydi o’qravib. Chunki u tug’ilgani, yashayotgani borligi uchun hamma unga nimadir berishi kerak. U esa hech kimga hech narsa bermasligi kerak. U sizga “foydalansa bo’ladigan yo bo’lmaydigan narsa”- deb qaraydi. Inson deb emas, Vataniga ham. Shunday yashab o’tadi. Bizlarni bu ko’yga tushishdan Xudoning o’zi asrasin.

Topshiriq:

- 1.Matndagi vaziyatni tahlil qiling
2. Vaziyat yechimida oila tarbiyasining ahamiyati va xalq pedagogikasining qaysi manbalaridan foydalanish yo’llarini ko’rsating.

“Muammoli vaziyat” jadvalini to’ldiring

Muammo (asosiy vakichik muammolar)	Yechim	Natija
------------------------------------	--------	--------

Ped. fanida xalq pedagogikasiga xos eng muhim belgilaridan biri uning

- qadimiyligidir
- yangiligidir
- tarmoqligidir
- tizimligidir

Xalq pedagogikasi bilan bog’liq fanlar aniq ifodalangan javobni ko’rsating.

- didaktika, metodika, siyosatshunoslik, bolashunoslik
- Tarix, adabiyot, san’at, falsafa, musiqa
- umumiy, maxsus pedagogika, xususiy metodika, pedagogika tarixi
- xususiy metodika bolalar anatomiyasini va fiziologiyasi maktab gigienasi

Xalq pedagogikasi ilmining asosiy xususiyatlari:

- Ijtimoiylik-pedagogika ilmi avvalambor ijtimoiy vazifalarni haletishga yo’naltirilgan va qaratilgan bo’ladi.
 - gumanitar- pedagogika ilmi o’z mohiyatiga ko’ra gumanitar hisoblanib, insonnio’rganish, uning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishini o’rganadi.
 - ochiqlilik- pedagogika ilmi boshqa fanlardan farqli o’laroq, inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi.
 - barcha javoblar to’g’ri

Xalq pedagogikasi:

- tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui;
- adabiyot va san`at asarlarida xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o’zida ning tarixan aniq tipini mujassamlantirgan, shuningdek, muallifning ma`naviy estetik kontseptsiyasi;
- Pedagogika taraqqiyotida falsafa muammolarini o’rganuvchi fan;
- Pedagogik atama

Aniq maqsadga yo’naltirilgan ta’sir hisoblanib, ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o’stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirishga yo’naltirilgan jarayon-

- ta’lim
- tarbiya
- ma’lumot olish
- dars

Bilim berish, malaka va ko’nikmalar hosil qilish jarayoni, ki-shini hayotga vamehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.

- ta’lim
- tarbiya
- ma’lumot
- dars

B/B/B texnikasini qo`llash bo`yicha ko`rsatma

1. Mavzu rejasiga mos holda 2-ustunni to`ldiring.
2. O`ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo`yicha nimani bilasiz,
3. 3-ustunni to`ldiring.
6. O`ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo`yicha nimani bilishkerak,
- 4-ustunni to`ldiring.
7. mavzu eshitig.
8. 5-ustunni to`ltiring.

Nº	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3	4	5
2				
3				

Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruh a`zolarining har biri

- o`z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishslashlarilozim;
- o`zlariga yordam kerak bo`lganda so`rashlari mumkin;
- yordam so`raganlarga ko`mak berishlari lozim;
- guruhnini baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- “Biz bir kemadamiz, birga cho`kamiz yoki birga qutilamiz” qoidasini yaxshibilishlari lozim.

3 AMALIY MASHG’ILOT: XALQ PEDAGOGIKASIDA YOSHLARNI TARBIYALASHNING METOD, USUL VA VOSITALARI

REJA:

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.
2. Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni.
3. Tarbiya metodlarining tasnifi.
4. Tarbiyada ibrat-numana ko‘rsatishning tutgan o‘rni.
5. Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlari.

Tayanch ibora va atamalar: tarbiya, tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining turlari, ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar, odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari, tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlari.

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.

Maqsad, mazmun, shakl kategoriyalari tarbiya jarayonining mohiyati (u nimaga qaratilgan, nimani to‘ldiradi, nimaga yo‘naltirilgan, qanday shaklda tugallanadi)ni ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda qanday qilib tarbiyalash savoli bilan aloqador yana bir muhim kategoriya ham mavjud. Bu tarbiya metodi tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironqa tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish tarbiya usullari deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilarini bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda. Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta’sir ko‘rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig‘indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko‘rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko‘rsatish – bu usullar. So‘z (keng ma’noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqkoslash – usullar. Bu bilan bog‘liqlikda ba’zan tarbiya metodlari qo‘yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo‘ladi.

2. Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni

Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘liq.

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur.

2. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. SHuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir.

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko‘rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o‘z aksini topadi. Aytaylik, mas’uliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta’lim, o‘rtta ta’lim va o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog‘liqlikda pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari ham o‘zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma’lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xosliklari. Umumiylar, umumiylar dasturlarning o‘zi tarbiyaviy o‘zaro ta’sir etishning asosi bo‘la olmaydi. Ularni individual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o‘ziga xosligini rivojlanishiga, o‘ziga xosligini saqlashga, o‘zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo‘llashga harakat qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma’lumki, mavhum shart-sharoitlar bo‘lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko‘rinadi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.

7. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog‘langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo‘llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko‘rgazmali qo‘llanmalar, tasviriy san’at asarlari va musiqa san’ati, ommaviy axborot vositalari.

8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o‘zi biladigan va qo‘llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko‘plab metodlar murakkab bo‘lganligi bois, o‘kituvchida ko‘p kuch ishlatsizni talab etadi. Bunday mas’uliyatdan bo‘yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasini past bo‘ladi.

9. Tarbiya vaqt. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo‘lsa, «kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo‘llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «ayaydigan» metodlaridan foydalilanadi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo‘linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o‘rgatish bilan bog‘liq.

10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo‘lishi kerak. Buning uchun qo‘llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko‘ra bilish kerak.

3. Tarbiya metodlarining tasnifi

Zamonaviy pedagogikada ba’zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba’zilari faqat nazariy vazifalarni o‘zida aks ettiradigan o‘nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o‘ziga xos xarakteriga ko‘ra ishontirish, mashq, rag‘batlantirish va tanbeh berishga bo‘linadi. Mazkur holatda metodning umumiylar xarakterli belgisi uo‘zida yo‘nalganlikni, o‘ziga xoslikni, qo‘llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko‘proq umumlashganligi

bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o‘zida ishontirsh, faoliyatni tashkil etish, o‘quvchilarning xulq-atvorini rag‘batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S. Marenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlar quyidagicha nomlanadi: tushuntirshli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o‘rgatish va mashq metodlari, rag‘batlantirish, to‘sinqinlik qiluvchi, boshqarish, o‘zini-o‘zi tarbiyalash.

Tarbiyanuvchilarga ta’sir etishi natijalariga ko‘ra metodlarni ikki guruhgaga bo‘lish mumkin:

1. Axloqiy me’yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g‘oyalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi.

2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta’sir etuvchi.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi.

O‘quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta’sirga turlicha munosabatda bo‘ladi. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o‘rinli va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo‘llanganiga bog‘liq. Tarbiya metodlarini to‘g‘ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobjiy hal qilishda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o‘qituvchi birinchi sinf o‘quvchilari bilan ishslash jarayonida o‘quvchilarni ular uchun yangi bo‘lgan mehnat faoliyatini o‘rgatishda o‘quvchilarning xulq-atvor qoidalarini, ularda kun tartibi aniq bo‘lishi muhimligini, ularga o‘quvchilarning qat’iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi. Tushuntirish bilan bir qatorda sinfga to‘g‘ri kirib kelishga, ularni o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan salomlashishga, tartib-intizomni saqlashga mashq qildirib boradi. Shuning bilan birgalikda birinchi sinf o‘quvchilarini yuqoridaagi jarayonlarga dars vaqtida odatlantirib boradi. Bu jarayonda ularning amalgalari oshirgan ijobjiy ishlari, o‘quv ishi natijalari rag‘batlantirib borishni taqozo etadi. Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo‘llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib guruhlarga ajratish mumkin. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o‘qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o‘zlashtirib olish maqsadga muvofiqdir. 1-shakl.

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o‘quvchining ijtimoiy ongiga hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me’yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me’yorlar shaxsning e’tiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi. Ushbu guruhgaga ma’naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna ko‘rsatish metodlarini kiritish mumkin.

Ikkinci guruh metodlari yordamida o‘quvchida ma’naviy mazmunga oid odatlar hosil qiladi. O‘quvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma’naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi.

Faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Ikkinci guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarni bajarilishi, ya’ni ijtimoiy xulq-atvor me’yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo‘lgan aniq bir vazifani amalgalari oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo‘lishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo‘yilishi mumkin. Bevosita talablar qat’iy buyruq yoki ko‘rsatma, ishchanlik, yo‘l-yo‘riq beruvchi tavsifdagi ko‘rinishda bo‘ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg‘usini uyg‘otishi ko‘zda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta’na qilish, faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg‘otish tarzida namoyon bo‘ladi. Talablar o‘quvchida u yoki bu darajaja ong, asos, maqsad

hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtida o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobjiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi.

O'rgatish – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

O'rgatish o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi. Faoliyatda mashqlar mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilganligidir. Mashq qilish o'rgatish bilan yaqin aloqada bo'ladi. Agar o'rgatib borish negizida bolaning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish o'rgatib borishga suyangan holda ko'p bora takrorlashni, mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazorat qiladi, bular esa bora-bora ijtimoiy xulq-atvorning asosi bo'lib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda ko'pincha maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tug'iladi, bunda mustaqil tanlash uchun imkon bo'ladi. Pedagogik vaziyatlarda o'quvchilar o'z fikri va xulq-atvoring qayta o'zgartirishi lozim bo'lgan sharoit yaratiladi.

Ikkinci guruh metodlari orasida musobaqa o'quvchilar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish metodlari samaradorligini oshirishning zarur va muhim sifati hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining barcha sohalarida o'quvchilarning faolligi va ijodkorligini rivojlantirishga, o'quvchilar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Musobaqa to'g'ri tashkil qilinganda jamoa hissi muvaffaqiyatli shakllanadi, intizom va o'quvchilarning uyushqoqligi mustahkamlanadi.

Musobaqaning alohida turi bo'yicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyuştiriladi: chunonchi, eng yaxshi sinf, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi maktab va h.k.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zлари tashabbus va g'ayrat ko'rsatishi asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishini ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarur. Musobaqani rasmiy axborotlar uchun tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Jamoatchilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo'lib qoladi.

Birinchi va ikkinchi guruh metodlarini o'zaro bog'liq holda qo'llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki o'qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o'quvchi ongi, xulqiga ta'sir etadigan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko'ra olishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda bugungi o'quvchi tarbiya natijasida ertagni komil inson, ya'ni jamiyatning barkamol a'zosiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobjiy fazilatlarni o'zida shakllantirib borishi lozim.

Xo'sh, inson ongi va u borliqni, atrof-muhitni anglashi uchun qanday faoliyat darajasiga yetishi kerak?

Inson ongi – uning idroki, aql orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir.

Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobjiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalilanadi. Ushbu guruhga rag'batlantirish va jazo berish kabi metodlar kiradi.

4. Tarbiyada ibrat-numana ko'rsatishning tutgan o'rni

Farzandlarimizning keljakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-on, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ilgarigi zamonda shunday maqol bor edi: «Domlaning aytganini qil-u, qilganini qilma». Hozir bu maqol eskirdi: o'smir va o'spirinlar ko'pincha ustozlari va kattalarning tashqi yashash tarzidan o'rnak oladilar, ya'ni ular «domlaning qilganini... qilishadi». Bu o'rinda ularning quyidagi haqli e'tirozlarini inobatga olish zarur.: «Nima uchun chekmagin, ichmagan deyishadi-yu, o'zлari chekishadi, ichishadi?», «Nima uchun rost gapirgin deydilar-u, o'zлari yolg'on so'zlaydilar?», «Nima uchun to'g'ri, halol bo'lish kerak deydilar-u, o'zлari pora oladilar?». Agar o'qituvchi va boshqa ana shunday so'zda to'g'ri-yu, amalda noto'g'ri ish tutishsa, shogirdlari qanday qilib uni hurmatlaydi? Undan nimani o'rnak qilib oladilar? Shu ma'noda tarbiyachi har vaqt o'z so'ziga amal qilishi va so'zining ustidan chiqishi kerak. Ibratning aynan ana shu jihatni komil inson tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Ibrat tarbiyasi insonni qadimdan qiziqtirib kelgan. Bu ayniqsa, Yunonistonning mashhur mutafakkirlari – Aflatun va Arastuning nomi bilan bog'liq pandnomalaridan keng o'rin olgan. Jumladan, Sharq mamlakatlarda Aflatunning Arastuga, Arastuning Iskandarga nasihatni va vasiyatnomalari yaxlit asar sifatida tarqalgan. Arastuning aytishicha, tarbiyachining o'zi tarbiya ko'rgan, insoniy fazilatlarni egallagan bo'lishi darkor. «Shuni bilginki, - deydi Arastu, - ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam o'zi tarbiya ko'rmagan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qilolmaydi. Xulqi yaxshi kishi boshqalarni yaramas, va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar sen o'z o'quvchingni tarbiyalamoqchi bo'lsang, avval o'z ruhingni yaxshilashdan boshla. Mabodo o'zgalar aybini bartaraf etmoqni ixtiyor etsang, bundan oldin o'z nafsingni nuqson va illatlardan tozalashing zarur. Ammo ko'zi ojiz bo'lgan kishi qanday qilib ko'rga yo'l ko'rsata oladi? Xor va tuban kishi boshqalarga obro'va qadr-qimmat ato qila oladimi?».

Bulardan tashqari Sharq mamlakatlarda axloq va ta'lim-tarbiyaga oid «Rushnoinoma», «Qobusnomax» Farididdin Attorning «Pandnoma»si, O'bayd Zakoniyning «Sad pand» kabi asarlari keng tarqalgan. Ilk o'rtalarda Arastu va uning izdoshlarining risolalari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ta'limotlari Al-Kindiy, Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq faylasuflari tomonidan o'rganildi va boyitildi.

Demak, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida ibrat-namunaning o'rni beqiyosdir. Bu o'z navbatida Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli a'zolarini tayyorlashni kafolotlaydi.

5. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari

Rag'batlantirish metodlari – o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z faoliyati va xulqiga mas'uliyatini oshiradi. Rag'batlantirish metodlari xilma-xil bo'lib, ular tarkibiga ma'qullah, ko'ngil ko'tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og'zaki va yozma tashakkur bildirish, mukofatlash va boshqalar kiradi.

Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchining jamoa oldidagi chinakkam xizmatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o'rnini hisobga olish va u ketma-ket bo'lmashligi kerak. Haddan oshirib maqtash jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni

bo'shashtirib yuborish, bular o'quvchida man-manlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batni tashkil etishda o'quvchining muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o'rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

Jazo berish metodlari – bu o'quvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me'yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatishi, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyg'otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo'llab-quvvatlashi asosida jazo berish metodlari ham hilma-xil bo'lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish xatti-harakatlarni jamoa o'rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatidan chetlatish va boshqalar kiradi.

Jazo berish ham pedagogik talablarga amal qilish zarur. Berilayotgan jazo maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarning aybiga, salbiy xatti-harakatiga qarab berilishi lozim. Jazo berish chog'ida salbiy xatti-harakatning sabablari uning jamoaga yetkazadigan zarari, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Jazo berish o'quvchining manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi lozim. Jazo jamoa tomonidan ham berilishi mumkin. Barcha hollarda ham o'quvchini jismoniy va ruhiy azobga solmasligi, uni tahqirlanmasligi, sha'nini yerga urmasligi, huquqini paymol etmasligi kerak. Tarbiya metodlari sharoitni, vaqtini, shuningdek, o'zaro bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiq tarbiya metodlari, tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada hatto, bir-biriga singib ketgan bo'lsada, ular bir-biridan farq qiladi. Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turiga kiradi.

O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Chunonchi, ko'rgazmali, o'quv qurollari badiiy-ilmiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio, televideeniye, kompyuter, magnitofon, slaydo, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, his-tuyg'u, xulq-atvor tarkib toptiriladi. O'quvchining turli ko'rinishdagi faoliyati uyuşhtiriladi.

Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnika vositalaridan foydalanishga alohida diqqat-e'tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Tarbiya jarayonining asosini, ijtimoiy hayotining obyektiv talablarini, shaxsning ijtimoiy mohiyatini hamda tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etgani bois tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarni chuqur o'rganishni talab etadi.

2. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilib yozilganligiga ham bog'liq. Tarbiya tamoyillari yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqqan va komil insонни tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisidir.

3. Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari o'zaro o'hshash jihatlariga ko'ra uch guruhga bo'linadi. Tarbiya

jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari metodlari ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Esda saqlab qolish uchun zarur bo'lgan tushunchalar:

Metod – lotincha metodos so'zidan olingan bo'lib, tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot tushunchalarini anglatadi. O'qitish va tarbiyalashning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki yo'llari, uslublari, vositalari majmui tushuniladi.

Tarbiya metodlari – metod lotincha metodos – yo'l so'zidan olingan. Metod tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so'zi keng ma'noda muayn maqsadga erishish yo'li tushuniladi.

Rag'batlantirish – talabaning namunali xulqi uchun boshqalarga ibrat qilib ko'rsatish, faxriy yorliqlar bilan taqdirlash, devoriy gazetada talaba to'g'risida kichik ma'lumotnoma berish, uning suratini maxsus doskaga qo'yish, ota-onasining nomiga tashakkurnoma yuborish.

Mashq - bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq atvor qoidalarini bajarishga oatlantirish

Jazolash – tarbiyanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarbiya metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyaning qanday metodlari bor?
3. Rag'batlantirish metodi nima va uning turlari mavjud?
4. Jazolash metodi va uning turlarini tushuntirib bering.
5. Tarbiya jarayonida nima uchun metodlar qo'llaniladi?
6. Shaxsga ta'sir etish orqali tarbiyalash metodlari va usullariga qaysilar kiradi?
7. Tarbiya usullari nima?
9. Tarbiya vositalariga nimalar kiradi?
10. Xalq pedagogikasida qo'llaniladigan tarbiyaning umumiy metodlari qaysilar?
11. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar qaysilar?
12. Mashq va o'rgatish metodlari qanday?
13. Jazolash metodlariga nimalar kiradi?

Mavzularni o'rghanishda foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174 b.
4. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. «Ma'rifat gulshani» gazetasi, 6 (11) – 2007 yil.
5. To'raqulov X.A. Kamolot sari. Jizzax, 2007, 181-182 betlar.
6. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2006, 250 bet.
7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8-jild, 270 bet.
8. Quronov M. Otalar kitobi.
9. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent: Fan, 2006, 284 bet.
10. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. - 480 b.

4 AMALIY MASHG'ULOT: XALQ PEDAGOGIKASI VA XALQ OG'ZAKI IJODI JANRLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Reja

1. O'zbek xalqining yozma va og'zaki ijodi
2. Xalq og'zaki ijodining ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy axamiyati
3. Xalq og'zaki ijodi xususiyatlari va janrlari

O'zbek xalq og'zaki ijodi (folklori) xalqimiz o'z tarixiy ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og'zaki ijod merosini yaratgan. Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon xalq pedagogikasining tarbiya vositalaridan biri bo'lib kelgan. O'zbek xalq og'zaki ijodining barcha janrlari, jumladan, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, naqlar, latifalar, loflar, xilma-xil qo'shiqlar, allalar, termalar, maqollar, matallar, topishmoqlar, dostonlar, askiyalar, aytishuvlar, tez aytishlaming tarbiyaviy imkoniyatlari cheksizdir. Barkamol shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiyqismi, ya'ni aqliy, axloqiy, jismoniy mehnat, nafosat tarbiyasiga oid ajoyib ma'lumotlar o'zbek xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida o'z ifodasini topgan. Chunonchi, Topishmoq — xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va ommaviy janri. Ingliz olimi E.B.Taylorning fikricha, topishmoq madaniyat tarixida maqol bilan paydo bo'lgan, uning gullagan davri sivilizatsiyaning quyi va o'rta bosqichlariga to`g`ri keladi. Uning fikricha, topishmoq ananaviy savol- javob shaklidagi odatda quruq xazilga olib boruvchi shunchaki so`z o'yini emas, balki u jiddiy javob berishni talab qilgan qadimiy shaklda tuzilgan topshiriqdir. Sfinks topishmog'i buning u jiddiy javob berishni talab qilgan qadimiy shaklda tuzilgan topshiriqdir. Sfinks topishmog'i buning yorqin namunasidir.

Topishmoqning javobini topish mobaynida bola zehnini o`sadi, tafakkurini yuksaladi, xotirasini mustahkamlanadi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida nihoyatda keng foydalaniladigan, topishmoqlar, tarbiyalanuvchilarining diqqatini tortib ularni fikrlashga tafakkur qilishga undaydi. Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo'lgan va yozma adabiyotning bunyodga kelishi uchun zamin hozirlagan. Xalq yaratgan asarlar o'zining g'oyaviyligi, chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiyili bilan ajralib turadi. U xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bo'lgan ishonchini, haqiqat,adolat,tinchlik va baxt haqidagi tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi. Xalq shoirlari yoki jamoat tomonidan yaratilib, og'izdan-og'izga , avloddan-avlodga o'tib kelgan badiiy asarlar xalq og'zaki ijodi deyiladi. Xalq og'zaki ijodi fol'klor deb ham yuritiladi. Xalq og'zaki ijodiga quyidagi janrlar kiradi: qo'shiq, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, doston, askiya, tez aytish, masal, alla, yor-yorlar, kelin salomlar va h.k.

Xalq og'zaki ijodida eng kichik yoshidagi bolalarning tarbiyalashda ishlataladigan janrlari esa quyidagilarkiradi: alla, ertak, maqol, topishmoq, tez aytish, qo'shiq kabilari. Alla—bolalarni uxlashi uchun onalar aytadigan qo'shiq. Onaning bolaga bo'lgan mehr-muhabbati, umid va orzulari, yaxshi niyat va tilaklarini anglatish hamda ruhiy kechinmalarini ham ifo-dalaydi. Shu bois ba'zi namunalari yig'i ohanglariga yaqin bo'ladi Ayrim tax-minlarga ko'ra, A. nomi "Alloh" so'zidan kelib chiqib, Yaratgandan chaqaloqni o'z panohida asrashni iltijo qilishga nis-bat bilan bog'liq. Bola uchun allaning so'zi emas, kuyi yoqimli. Chunki u hali so'zni anglamaydi. Ona uchun esa alladagi suzlar muhim: ular – ona qalbining nidolari. Bir xil ohangdagisi kuy bola ma'naviy ehtiyojining dastlabki asosiy qondirgichi sifatida xizmat eta boshlaydi. Chindan ham "Bola birinchi oyligidayoq musiqiy idrokini – ritm va ohangni idrok eta olishini namoyon etadi. CHunki allalar har qanday holatda ham jismoniy harakat, ham ruhiy faoliyat bilan uzviy bog'liqdir. Jismoniy harakat bolaning muttasil o'sishini, vujudining chiniqishini rag'batlantiruvchi muhim

vosita bo'lsa, allalarning monoton ohangi esa shu jismoniy rivojlanishni ma'naviy rivojlanishga ulaydigan, bola ruhiy faoliyatini faollashtiradigan vosita bulib xizmat qiladi. M. Alaviya: "Alla, asosan, to'rtlikdan tashkil topgan bo'lsa ham, ba'zan allalovchi to'lqinlanib ketsa, davom ettirib, boshqa misralarni ham qo'shib yuboradi va bir-biriga yaqin bir qancha to'rtliklarni aytib, bu bilan o'zining tilak, armonini izhor etadi", - degan edi. Ertak – xalq og`zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy harakterdag'i epik badiiy asar Asosan, nasr shaklida yaratilgan. M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'ati turk" asarida etuk shaklda uchraydi va biror voqeani og`zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertaklar, asosan, didaktik vazifani bajaradi. Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirot etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijobjiy qahramonlarga nihoyatda hayrixoh bo'lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg'anchiqlikka, makrxiylaga nisbatan murosasiz bo'lishga majbur etadi. "Maqol" atamasi arabcha "kavlun" – gapirmoq, aytmoq so'zlaridan olingen bo'lib, ommaning muayyan voqe-a-hodisalar, voqelik haqidagi qisqa xulosalarini ifodalaydi. Ularda fikr aniq, muayyan mantiqiy izchillikda, ba'zan to'g'ri, ba'zan ko'chma ma'noda ifodalanadi. Maqolda ifodalangan pedagogik g'oyalari alohida shaxsgagina emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan bo'ladi. Maqolda hayotiy tajribada sinalgan pedagogik fikrlar bayon qilinadi. U o'z shakliga ko'ra ixcham, mukammal, lekin ommabop bo'ladi. Shuningdek, maqollar xalq pedagogik tafakkuri yo'nalishlarini, uning pedagogik madaniyatini, ma'naviy-axloqiy e'tiqodini, turmush va mehnat mezonlarini, sevgi va nafratini, orzu va intilishini ifodalaydi. Qo'shiqlar – voqelikni yakka shaxs kechinmalari orqali aks ettiradi. "Qo'shiq" – turkiy "qo'shmoq" so'zidan olingen bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nolarini anglatadi. Qo'shiqlarda xalq ma'naviyati qudrati, irodasi ifodalanadi.

2. Milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlar. Milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar zamirida katta tarbiyaviy imkoniyatlar mavjud, zero ularning barchasi ajdodlarimizdan qolgan madaniy meros sanaladi. Milliy to'ylar, ommaviy bayram - sayllar, sharqona va turkona an'analar, hayit bayramlarida xalqimizning o'ziga xosligi yorqin aks etadi.

3. Xalq o'yinlari va o'yinchoqlari. O'zbek xalq o'yinlari o'zlarining serharakatligi, chidamlilikka o'rgatuvchanligi, chiniqtiruvchi harakatlardan iboratligi bilan ajralib turadi. Xalq o'yinchoqlarida xalqning turmushi, uning qadriyatları va orzu istaklari ustalik bilan tasvirlangan. O'yin – bola faoliyatining asosiy qismini tashkil qiladi. bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasidir. O'yin jarayonida bola faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. Har bir yosh davrida bolalar o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. O'yinlar o'z mazmuni va tashkil etilishi, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, vositalarning turlari hamda kelib chiqishiga ko'ra xilma-xildir. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muamolardan biridir. O'yin jarayonida bolaning barcha psixik jarayonlari tarkib topishida imkon bo'ladi. Chunki o'yin faoliyatı bolalarning sezgisi, diqqati va xotirasi, nutqi, xayoli, xissiyoti, tafakkuri, mexnatga doir malakalari va qobiliyatları namoyon bo'ladi. O'yinchoq –bolalar o'yini uychun yasalgan buyum. O'yinchoq bola hayotining yo'ldoshi, sirdoshi uning quvonchi manbaidir. O'yinchoq o'yin yaratishda ishtirot etadi, bolaning o'ziga hos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga katta ta'sir o'tkazadi. Bolaning tasavvuri, xayolini rivojlantiradi, qiziqishlari, didini ifodalaydi. Xalq o'yinchoqlarida xalqning turmushi, uning qadriyatları va orzu istaklari ustalik bilan tasvirlangan

4. Diniy ta'limotlar odob-axloqqa, insoniylikka oid qimmatli pedagogik g'oyalari ilgari surilgan.

5. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining sohalari xalq moddiy hayotining ko'zgusi va ijtimoiy hayotining aksi boMib, o'quvchilarda nafosat his-tuyg'ularini shakllantiradi.

6. Miliv musiqa va qo'shiqchilik san'ati. Musiqa ma'lum darajada hayotni va davrni aks ettiradi. Jumladan, o'zbek musiqa va qo'shiqchilik san'ati xalqimizning turmushini, uning orzu-istaklarini o'zida mujassamlashtirgan.

7. Tasviriv san'at. Xalqning hayoti, u turmush kechirayotgan tabiiy sharoit, insoniy obrazlar ma'lum darajada pedagogik bilimlar va ma'lumotlarni ifodalab bergen.

8. Tarixiy vodgorliklar va milliy me'morchilik. Har bir tarixiy yodgorlik zamirida xalqning ma'lum davrdagi tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy hayoti yotadi. Har bir tarixiy obidalar yoshlarda vatanparvarlik hissini, bunday betakror obidalami yaratgan ajdodlar bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi.

9. Xalq rags san'ati. o'ziga xos ma'noni anglatuvchi chiroyii, mutanosib harakaatlар nafosat tarbiyasining muhim vositalaridan biri boMib kelgan.

O 'rta Osiyo va o'zbek xalqi mutafakkirlarining asarlari.

Misol uchun, Ibn Sino o'zining "Tadbiri manozil" asaridagi "Maktabda bolalarni o'qitish va tarbiyalash" deb nomlangan bobida umumta'lim g'oyasini ilgari suradi. Shuningdek, ta'limda suhbat metodini qo'llashni, aqliy mashg'ulotni jismoniy mashg'ulotlar bilan almashib turishni tavsiya etadi. Jamoada o'qitish afzalliklarini uqtiradi. Bunday ilg'or pedagogik fikrlarni Beruniy, Forobiy, Rudakiy, Nosir Xisrav, Sa'diy, Yusuf Xos Hojib, Umar Hayyom, Burxoniddin Zarnudjiy, Ahmad Yugnakiy asarlarida ham ko'rish mumkin. Buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlari shakl va mazmuniga ko'ra xalqning pedagogik donishmandligi bilan uyg'unlashib ketgan. Ular Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik madaniyatining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Demak, xalq pedagogik g'oyalari buyuk mutafakkirlar pedagogik qarashlari bilan hamohang shakllanib, ular bir-birini takomillashtirib, boyitib borgan. Donishmandlar asarlarida xalqning amaliy pedagogikaga doir fikrlari ilmiy pedagogik tusga kira borgan. Shu taxlitda pedagogika ilmi takomillasha borgan. O'zbek xalqi yaratgan va avloddan-avlodga brogan sari sayqallanib o'tib kelayotgan xalq pedagogikasi har tomonlama mukammal shaxsni tarbiyalash, voyaga yetkazishni o'ziga bosh g`oya qilib olgani ham muhimdir.

5-AMALIY MASHG'ULOTI: XALQ PEDAGOGIKASI MANBALARIDA MEHNATSEVARLIK TARBIYASI.

Reja:

- 1.«Avesto»da mehnatsevarlik tarbiyasining aks etishi.
- 2.Qo'shiqlar, maqol va matallar mehnatsevarlikning ulug'lanishi.
- 3.Afsonalar va rivoyatlarda mehnatsevarlik g'oyalari ifodasi.

«XUDBINLIK – KATTA ILLAT!»

Masala. Bir hovlida ikki aka-uka istiqomat qilishadi. Aka o'g'liga mashina o'yinchoq harid qildi. O'g'li esa mashinani hovliga olib chiqib, o'ynay boshladи. Buni ko'rgan ukaning o'g'li men ham o'ynayman deb o'yinchoqqa yopishib, uni tortib oldi. Bolalar janjallahib qolishdi. Bu holatni ko'rib turgan ovsinlarning kattasi o'yinchoqni o'z o'g'liga olib berdi.

Masala katta ovsin tomonidanadolatli hal qilindimi?

Javob: Katta ovsin o'g'lini huquqiy normalarga asosan to'g'ri himoya qildi, chunki o'yinchoq uning o'g'liniki edi. Ammo axloqiy normalar nuqtai nazaridan uning tutgan yo'li noto'g'ri. Buning oqibatida aka-ukalar orasida begonalik, mehr- oqibatning yo'qolishi, molparastlik kabi illatlar va munosabatlarning kelib chiqishiga sharoit yaratildi. Bu masalada ham hayotiy vaziyat katta ovsin tomonidanadolatli hal qilinmadи. Agar katta ovsin: voy, o'g'lim, nega unday qilasan. To'g'ri, o'yinchoq seniki, ammo uni ukangga ham bergin, ertaga u ham seni velosipedida uchiradi. Aka- ukalar bir-biriga mehrli bo'ladi, bir-biridan hech nimani ayamaydi. U akam bor deb xursand bo'lsa, sen ukam bor deb xursand bo'lasan. Axir sizlar bir-birlaringga jigansizlar-ku, deb ikkalasini ham erkalatib, yarashtirib qo'yanida edi, masalaadolatli hal qilingan bo'lar edi. Farzandlar esa onadan olgan bu alqash va mehr gashtini tanasida his qilar, uning ko'zga ko'rinnmas ruhiy ozuqasidan bahramand bo'lgan bo'lar, o'zgalar ham mehrga muhtoj bo'lishini, hayot mazmunining asosi insonlarning bir- biriga bo'lgan mehridan iborat ekanligini tushungan bo'lar edilar.

Eng qadimgi kishilarga xos xususiyatlarni o'rganishda qaysi manbalar asosbo'ladi

*Arxeologik qazilmalar, topilmalar, Xalq og'zaki ijodi, Buyuk adib allomalariningijodiy merosi
Arxeologik qazilmalar, topilmalar, diniy kitoblar

Xalq og'zaki ijodi, epos, dostonlar

Buyuk adib allomalarining ijodiy merosi

Dastlabki urug'chilik davridan oldin jamoa a'zolarining yosh jixatlariga ko'raqanday tasniflangan

*Bolalar va o'smirlar, mehnatga to'la ishtirok etuvchilar, keksalar

Mehnatga to'la ishtirok etuvchilar

Bolalar va keksalar

Bolalar va

o'smirlar

Erimizning avvalgi birinchi ming yillikda turli qabila va elatlar yashagan vohava o'lklalar ko'rsatilgan to'g'ri qatorni belgilang?

*Baqtriya, Xorazm, Sug'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Zarafshon vohalari va Parkana kabi o'lklalar

Bulung'ur, Xorazm, Isfaxon, Marg'iyona, Nuroat, Zarafshon vohalari va Parkentkabi o'lklalar
Baqtriya, Xiva, Sug'diyona, Marg'ilon, Parfiya, Zarafshon vohalari va Poykent kabio'lklalar

Varg’onde, Xorazm, Surxon, Marg’iyona, Parfiya, Zarafshon vohalari va Peshko’kabi o’lkalar
Eramizdan avvalgi 1000 yilliklar o’rtalarida paydo bo’lgan yozuvlarnianiqlang.

*Oromiy, yunon, mixxat

Xorazm, so’g’d, run, uyg’ur

Oromiy

Sug’d, mixxat

Eng qadimgi kishilarning daslabki oddiy istaklari, Ruhga sig’inish ilmiy jihatdan qanday nomlanadi?

*Onimiz

m

Totemiz

m

Fateshiz

m

Shoveni

zm

Ajdodlarimizning hayotiy tajribalari ta’lim-tarbiyaga doir qarashlari bizgacha qaysi manbada etib kelgan.

*Geradotning “Tarix”, Pulutarning “Xarbiy xiyllalar”, “Devonu lug’atit turk” asarida To’maris Shiroq afsonasida

“Devonu lug’atit turk” asarida

Geradotning “Tarix”,

Arastuning Etika asarlarida

6-AMALIY MASHG'ULOT: QAHRAMONLIK, JANGNOMA, TARIXIY, ROMANTIK DOSTONLARNI O'QISH VA TAHLIL QILISH.

Reja:

1. Romantik dostonlar yaratilish tartibi
2. Romantik dostonlar badiiy xususiyati.
3. Dostonlar tasnifoti masalasi.
4. Dostonlarning badiiyati.
5. Dostonlarni to`plash, yozib olish, nashr ettirish va ilmiy tadqiq etish
masalasining ahamiyati

Dostonlar tasnifi. O'zbek xalq dostonlari nihoyatda ko'p tarkibli bo'lib, uzoq asrlar davomida yaratildi va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib keldi. Bu hol ularni muayyan turlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi. Dostonlar dastlab V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov, keyinroq M.S.Saidov, B.I.Sarimsoqovlar tomonidan tasnif qilindi. Jumladan, V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar o'zbek xalq dostonlarini qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romanik hamda kitobiy kabi turlarga ajratadilar. M.S.Saidov esa o'zbek og'zaki an'anaviy dostonlarini qahramonlik, sof muhabbatni kuylovchi, romanik, jangnoma va tarixiy kabi turlarga ajratadi. 60 B.I.Sarimsoqov esa xalq dostonlarining tarixiylik tamo-yillariga asoslanib, ularni qahramonlik, romanik va tarixiy kabi uch turga bo'ladi. Uning tasnifiga ko'ra, jangnoma va kitobiy dostonlar romanik dostonlarning bir ko'rinishidan iborat. Darhaqiqat, eposning tarixiylik tamoyillari, voqelikni aks ettirish tarzi xalq dostonlarini qahramonlik, romanik va tarixiy dostonlar kabi uch yirik turga bo'lib o'rganish zarurligini taqozo etmoqda.

Qahramonlik dostonlari. O'zbek xalq dostonchiligi taraqqiyotida ko'pgina qatlamlar bo'lsa-da, ayniqsa, ikki qatlam, davomiy ikki bosqich — qahramonlnk va romanik dostonlar bosqichi alohida ajralib turadi. O'zlarining yaratilish davri, mundarijasi, g'oyaviy mazmuni, ijtimoiy voqelikni tasvirlash tamo-yillari bilan ham bu dostonlar bir-birlaridan jiddiy farq qiladi. Biroq ular bir necha asrlar davomida baxshilar tomonidan baravar kuylab kelingan, shuning uchun ham bu xil dostonlar orasida muayyan yaqinliklar mavjud. Demak, biriga xos xususiyatning ikkinchisida zohir bo'lishi, sof qahramonlik dostonlariga xos belgilarning keyingi o'ringa surila borishi, qahramonlik dostonlaridan romanik motivlar va epizodlarning o'rinni olishi tabiiy edi.

«Qahramonlik» termini o'zbek folklorshunosligida ikki ma'noda — keng ma'noda, umuman o'zbek eposiga nisbatan, tor ma'noda, uning bir turiga nisbatan ishlatalidi.

Qahramonlik dostonlari patriarchal-urug'chilik munosabatlari, ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik hayot tarzi bilan mahkam bog'liqidir. Bunday dostonlar xuddi shu turmush tarzining ifodasi sifatida patriarchal-urug'chilik jamiyatining so'nggi bosqichlarida yoki ilk feodalizm davrida turli urug'lar o'rtasida nizolar davom etayotgan va ular muayyan hududlarga joylashayotgan hamda yagona xalq sifatida uyusha boshlagan davrlarda yaratilgan. Bir qator urug' va qabilalarning muayyan xalq sifatida tashkil topa borishi, ilk davlatchilik kurtaklarining paydo bo'lishi va shu munosabat bilan xalqlar hamda elatlarning o'z mustaqilliklari uchun chet el bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashlari qahramonlik dostonlarni uchun boy material bo'ldi. Mana shu kurashlar va tarkib topishlar, birlashishlar va joylashishlar jarayonida o'z-o'zini anglashning buyuk ifodasi sifatida qahramonlik eposi yuzaga

keldi. «Qahramonlik eposining mahobatli realizmi real ijtimoiy voqelikni qahramonlik idealizasiyasi shakllarida tasvirlaydi. Shu bilan birga, qahramonlar obrazi va ular amalga oshirgan jasoratlar tabiiylik chegarasidan birmuncha yuqori bo'ladi. Shu ma'noda ular ajoyibg'aroyib, qiziqrarli, ammo g'ayritabiyy emas, kuychining subyektiv uydirmasi va ijodiy fantaziyasiga asoslangan romanik fantastika bo'lmaydi. Qadimiy qahramonlik eposida ajoyibg'aroyiblik mifologiyaning, xalq ishonch-e'tiqodining real unsuri sifatida namoyon bo'ladi...». Qahramoilik dostonlari bizgacha sof holida «Alpomish» misolida etib kelgan.

Romanik dostonlar. O'zbek xalq baxshilari repertuaridagi dostonlarning eng katta qismi romanik dostonlardir. «Xalq romani», «romanik» terminlari turkologiyada shartli ravishda kabul qilingan bo'lib, ular og'zaki yaratilgan, ba'zan kelib chiqishi jihatidan kitobiy manbaga ega bo'lgan va og'zaki ijro etilgan muayyan dostonlar guruhini bildiradi. V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar bu terminlarni muayyan dostonlar turiga nisbatan qo'llaganlarida, atamaning shartli ekanligini va ularni Evropadagi «xalq kitoblari» bilan aralashtirmaslik kerakligini ta'kidlagan edilar. Chunki bu xil dostonlarda ko'tarinki, romantik sevgi motivlari doston qahramonlarining fantastik, g'ayritabiyy sarguzashtlari girdobida tasvirlanadi.

O'zbek dostonchiligining qahramonlik eposidan keyingi yangi taraqqiyot bosqichi — romanik dostonlar o'tmish davrlarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, ularning mohiyatini sevgi mojarolari, qo'rqinchli sarguzashtlar, ertakka xos fantastik voqealar, shu bilan birga, hayotiy hodisalar tasviri belgilaydi. Ko'tarinki ishq tuyg'ulari va bu yo'ljadi jasorat ideali bu tip dostonlarning asosini tashkil qiladi. Ularda ulug'vor sevgi romantikasi bilan unga erishish yo'ljadi fantastik sarguzashtlar qahramonligi birlashib, chatishib ketgan.

Romanik dostonlarning syujeti sxemalari nihoyatda bir-biriga o'xshash bo'lib, odatda, qahramon g'oyibona oshiq bo'lgan go'zalni izlab safarga otlanadi, ajoyibg'aroyib hodisalarni, mashaqqatli sarguzashtlarni boshidan kechiradi, g'ayritabiyy kuchlar bilan to'qnashadi, barcha qiyichiliklarni engib, o'z maqsadiga erishadi. Doston voqealarini hashamatli saroylarda, shovqinli bozorlarda, sehrli bog'larda, tilsimli qo'rg'onlarda, vahimali g'orlarda, qo'rqinchli er va suv osti yo'llarida kechadi. Biroq bu dostonlarning har biri kompozision qurilishi, obrazlari, motivlarining ishlanishi, xarakteri va mazmuni jihatidan mustaqildir.

Fantastik voqealar, sarguzashtlar girdobida murakkab ijtimoiy voqelikni barcha real tafsilotlari, ikir-chikirlari va qarama-qarshiliklari bilan tasvirlash romanik dostonlarga xos sodda realizmni tug'diradi. hayotiy-maishiy xarakterdag'i bunday realistik mavzu xalq yumori va didaktikasi xususiyatlari bilan mahkam bog'liqidir.

Romanik dostonlarning tarkibi nihoyatda murakkab. Qahramonlik dostonlarida romanik unsurlar bo'lganidek, romanik dostonlardan qahramonlik elementlari, jangnomalarga xos xususiyatlari ham mustahkam o'r'in olgan. hatto bir dostonda bir necha mavzu baravar ishlangan bo'lishi mumkin. Shularni hisobga olib, bu tip dostonlarning beshta ichki turga bo'lish mumkin. Bular:

- a) jangnoma-dostonlar («Yusuf bnlan Ahmad», «Alibek bilan Bolibek»);
- b) qahramonlikromanik dostonlar («Yakka Ahmad», «Ernazar», «Rustam» turkumi, «Go'ro'g'li» turkumi);
- c) ishqiy-romanik dostonlar («Kuntug'mish», «Ravshan», Xorazm dostonlari);

d) maishiy-romanik dostonlar («Sohibqiron», «Orzigul», «Erali bilan Sherali», «Shirin bilan Shakar», «Xurshidoy»);

e) kitobiy dostonlar («Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom», «Varqa bilan Gulshoh», «Vomiq bilan Uzro», «Zavarxon»).

Jangnoma-dostonlar qahramonlik dostonlari bilan romanik epos o'rtasidagi alohida bosqichni tashkil etadi. Shu ma`noda ular alohida turni tashkil etishi mumkin. Ammo ularning qadimgi namunalarni bizgacha etib kelmaganligi sababli qo'limizdagi mavjud nusxalarida romanik dostonlarning janr xususiyatlari yetakchilik qiladi va ular o'zlarining keyingi taraqqiyotida romanik eposga yaqinlashib bordilar hamda uning tarkibiy qismiga aylandilar.

Jangu jadallar, tarixiy yoki afsonaviy urushlar va bunday jang epizodlarida qo'shin va yakka shaxslarning jasoratlarini tasvirlovchi dostonlar jangnoma-dostonlar deb yuritiladi. Jangnomalar qahramonlik dostonlari ta'sirida feodalizm davrida shakllangan. Agar bosh qahramon faoliyati qahramonlik dostonlarida yakkama-yakka olishuvlarda, bahodirlik shartlarini bajarishda namoyon bo'lsa, jangnomalarda turli-tuman xarakterdagi urush epizodlarida ko'rsatiladi.

Hukmron tabaqa islom dinini harbiy kuch bilan yoygan shaxslarni xalq orasida targ'ib qilish maqsadida jangnoma ko'rinishidan foydalangan. Natijada «Jangnomai Abo Muslim», «Jangnomai Sayid Battol G'oziy», «Jangnomai Amir hamza» kabi islom dinini zo'rlik bilan targ'nb etgan shaxslarning nomi bilan bog'langan jangnomalar yuzaga kelgan. O'rta Osiyoda keng tarqalgan jangnomalarning qadimgi namunalariga «Rustami Doston», «Jangnomai Jamshid», «Qahramoni qotil», «Hushang», «To'maris» kabilarni ko'rsatish mumkin.

O'zbek baxshilari repertuarida jangnomalar nihoyatda ozchilikni tashkil etadi. Urug', qabila yoki xalqning mustaqilligi uchun olib borilgan janglarni tasvirlovchi qadimgi jangnomalar («To'maris» kabi) zamonlar o'tishi bilan turli sabablarga ko'ra, epik repertuardan tushib qolgan bo'lishi mumkin. Buning o'rniga ideologik tazyiq tufayli janglar biror xalqning diniy e'tiqodlarini g'ayri dinlardan himoya qilish, o'z dinini o'tkazish tarzida talqin etila boshlagan.

Biroq baxshilar repertuaridagi jangnomalarda «muqaddas urushlar» umumiy bir fondir, xolos. Aslida esa, dushmanqa qarshi kurashda mardlik va jasorat ko'rsatish, ona-er daxlsizligi uchun kurash, el-yurtlar birligi, vatanparvarlik va do'stlik kabi oljanob g'oyalar kuylanadi. «Yusuf bilan Ahmad» va uning davomi bo'lган «Alibek bilan Bolibek» dostonlari buniig yorqin misolidir. har ikkala doston vatanparvarlik tuyg'ulari, ona-yurt sog'inchi bilan yo'g'rilgan. Masalan, Yusufning Go'zalshoh huzurida o'z yurtini maqtashi, asirligida turnalar orqali diyoriga salom yo'llashi, Alibekning o'zga mamlakatlarda bo'lganida, Urganch elini qo'msashi epizodlari g'oyatda ta'sirlidir, ularni to'lqinlanmay o'qish va eshitish mumkin emas. Yoki jangnomadostonlarning ko'pgina xususiyatlari mujassamlashgan «Xoldorxon» dostonida urush oqibatlarini, keraksiz jangu jadallarni tasvirlash orqali xalqning bosqinchilik urushlariga qarshi keskin noroziligi baralla yangraydi. Demak, jangnoma-dostonlarning asosini xalqchil g'oyalar, umumbashariy qarashlar tashkil etadi.

Romanik dostonlarning qahramonlik-romanik turiga mansub asarlarda qahramonlik yo'nalishi yetakchilik qiladi, ya'ni ularda sevgi, mojarolariga nisbatan qahramonlik temasini ishslash birinchi planda turadi. «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarining ko'pchiligi bunga yorqin misoldir.

7 AMALIY MASHG'ULOT: MILLIY URF-ODATLAR, AN'ANALAR VA UDUMLARNING AHAMIYATI VA TARBIYAVIY KUCHI

Reja:

1. Milliy marosimlarning mohiyati, mazmuni.
2. Oilaviy-maishiy va mavsumiy marosimlar.
3. Bayramlar. Xalq sayllari. Davlat bayramlari, diniy bayramlar.
4. Bayram va marosimlarning e'zozlanishi, avlodlarga me'ros qoldirilishi va ularning barqarorligining ta'minlanishi.

a) Kiyim kechaklar.

1. Erkaklar kiyimi, uning tikilishi, qanday matolardan tayyorlanishi. Mavsumiy kiyimlar (qishki, yozgi).
2. Ayollar kiyimining o'ziga xosligi, qanday matolardan tayyorlanishi va ularni nomlari, kiyim-kechaklarining turlari.
3. Bolalar kiyimi. Uning o'ziga xosligi, o'g'il bolalar, qiz bolalar va yoshchaqaloqlar kiyimlaridagi o'ziga xoslik va farqlar.
4. Taqinchoqlar, bezaklar. Ayollar taqinchoqlari, ularning turlari va spetsifikasi.

Taomlar.

1. Taomlarning turlari. Bahordagi, qishdagi taomlar. Qanday mahsulotlardan tayyorlanishi.
2. O'simlik, sabzavot mahsulotlaridan tayyorlanadigan taomlar.
3. Undan tayyorlanadigan taomlar va non. Ularni tayyorlash usullari. Qandolat mahsulotlari.
4. Go'shtli taomlar.
5. Baliqdan tayyorlanadigan taomlar.
6. Sutdan tayyorlanadigan taomlar.
7. Ovqatlanish tartibi va ovqatga bo'lgan munosabat.
8. Idish-tovoqlar.

V. To'y, oila va nikoh munosabatlarini o'rganish uchun so'rov nomasi To'y marosimlari.

1. Turmush juftini tanlash shakllari: a) qo'shnilar, b) tanish-bilishlar, v) qarindoshlar, g) muhabbat asosida
2. Kelin tanlashda qizning qaysi fazilatlariga alohida e'tibor beriladi?
3. Hozirgi kunda sovchilikning qaysi an'anaviy udumlariga amal qilinadi?
4. Yilning qaysi faslida to'y o'tkazish maqsadga muvofiq?
5. Yilning qaysi oyida irim sifatida to'y qilinmaydi? (nima uchun).
6. Turmush juftini tanlashda jamoa fikriga e'tibor beriladimi? (qo'ni-qo'shni, mahalla, tanish-bilish).
7. Siz yashayotgan hudud aholisining to'y marosimlarda farq bormi?

Sovchilik.

To'ydan oldin o'tkaziladigan marosimlar.

8. Sovchilar tarkibiga kimlar kiradi?
9. Sovchilarning qaysi fazilatlari e'tiborga olinadi?
10. Sovchilarni tayinlashdan oldin kimlar bilan maslahat qilinadi?
11. Ayol yoki erkak sovchilarni tanlashda alohida e'tibor beriladimi?
12. Kelin tomonning roziligini olish uchun necha marta sovchilikka boriladi?
13. Sovchilarning birinchi tashriflari bilan bog'liq ramziy ma'noni anglatuvchi qanday odatlar bor. («kovush yirtdi», «eshik supurdi», «so'qmoq ochdi» va h.k.).
14. Kelin tomonning roziligini qanday odatlar orqali bilish mumkin.

Fotiha to'y bilan bog'liq marosimlar.

15. Fotihada kimlar ishtirok etadi?
 - a) qo'shnilar
 - b) qarindoshlar
 - v) mahalla ahli
16. Marosimga qatnashuvchilarning ma'lum bir yoshda ishtirok etishi belgilanganmi?
17. Nikohda kuyov tomondan kelin tomonga beriladigan qalin masalasi qachonhal qilinadi?
18. Qalinga sizning munosabatingiz?
19. Fotiha va nikoh to'ygacha ikki tomonning bir-birnlariga in'omi-bayramlik, xayitlik kabilar.
20. Fotihada kuyov tomondan kimlar ishtirok etadi?
21. Fotiha marosimlariga mulla taklif qilinadimi?
22. Kelin va kuyov sarpolari tarkibiga nimalar kiradi?
23. To'ydan oldin o'tadigan marosimlarda diniy urf-odatlar bilan bog'liq marosimlar bormi?
24. To'ydan oldin bajariladigan taomil va udumlar? Osh tarqatish, xotin oshi va hakazo.
25. To'y marosimlarida dasturxonchining o'rni (mahalliy terminda dasturxonchi kim).
26. Kelin-kuyov uchun tayyorlangan uy qachon va kim tomonidan jihozlanadi? Jihozlar tarkibiga kiruvchi ashyolar.
27. Kelinni olib ketishda qanday urf-odatlar bajariladi?
28. Nikoh qaerda va kim tomonidan o'qiladi? (masjidda, kelin uyida va h.k.).

To'y boshlanguncha o'tkaziladigan tadbirlar.

29. To'ya kimlar taklif qilinadi?
30. To'ya bajariladigan vazifalar kim tomonidan taqsimланади?
31. Kelin-kuyov xonadoniga qachon olib kelinadi?
32. Kelin bilan birga kimlar boradi?
33. Kelinni kuyov xonadoniga keltirganlaridan keyin qanday udumlar bajariladi?

Yanganing vazifalari:

34. An'anaviy udumlardan: «oyoq bosdi», olovda aylantirish, poyondoz tashlash, kelinka shirin choy berish kabi odatlarga amal qilinadimi? (mahalliy odatlarni qayd etishingiz mumkin).

35. Kelin uchun yasatilgan xonaga chimildiq tutiladimi?

36. Kuyov tomonida nikoh kuni o'tadigan yana qanday odatlar bor?

To'ydan so'ng o'tkaziladigan marosimlar.

37. Kelin salom: yuz ochar, yo'qlandi (mahalliy udumlar yoziladi).

38. Kelinga qanday sovg'alar beriladi?

39. Kelinni uy-ro'zg'or ishlariga jalb qilish bilan bog'liq qanday marosimlar bajariladi?

40. Chilla davriga amal qilinadimi? (qanaqa irimlar mavjud).

41. Kuyov chaqiriq.

42. Quda chaqiriq.

43. Qiz chaqirdi va yo'qladi.

Beshik to'vi.

44. Kimlar ishtirok etadi?

45. Qanday sovg'alar tayyorlanadi?

46. Bu to'y qachon va qanday o'tadi?

47. To'ya bajariladigan vazifalar kim tomonidan taqsimlanadi?

48. Kelin-kuyov xonadoniga qachon olib kelinadi?

49. Kelin bilan birga kimlar boradi?

50. Kelinni kuyov xonadoniga keltirganlaridan keyin qanday udumlar bajariladi?

8 AMALIY MASHG'ULOTI: TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA DINIY TA'LIMOTLARNING O'RNI

Reja

1. Diniy bag'rikenglik.
2. Diniy adabiyotlar – pedagogik fikrlar manbai sifatida.
3. Diniy fanatizm, fundamentalizm, terrorizm xavf-xatari – diniy savodsizlik oqibatiekanligi.
4. Diniy ta'lilot, hadislarning tarbiyaviy ahamiyati.

Qur`oni Karim va Hadisi shariflardagi axloqiy-tarbiyaviy g`oyalarni piramida usulida tavsiflang:

«Piramida» usuli

«Piramida» - g`oyalarni ierarxiyaga asoslangan holda ko'rsatishning boshqa bir usuli. Bu usulda asosiy g`oyalalar va o'rnlardan muammo yoki masalaning ikkinchi darajali tomonlarni batafsilroq ko'rib chiqishga xizmat qiladigan **kichkina shoxchalar ajralib chiqadi**. SHu sababli g`oyalardan bittasining rivojlanishini ancha chuqurroq va butun tafsilotlari bilan tekshirib chiqishingiz mumkin. *Mukamallik mayda-chuydalardan iborat, lekin mukamallikning o'zi esa mayda-chuyda narsa emasligini esda saqlang!*

- 1.Diniy bag'rikenglik.
2. Diniy adabiyotlar – pedagogik fikrlar manbai sifatida.
3. Diniy fanatizm, fundamentalizm, terrorizm xavf-xatari – diniy savodsizlik oqibati ekanligi.
4. Diniy ta'lilot, hadislarning tarbiyaviy ahamiyati
5. Tayanch atamalar: Islom dini, Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, Arab istilochilar, diniy tarbiya, terrorizm, diniy qadriyat, umumbashariy qadriyat, Islom ta'liloti, g`oyaviy tahdid, terrorizm, fanatizm, fundamentalizm, ekstremizm, mafkuraviy kurash.
Islom dinining umumbashariy qadriyat, ilohiy, ilmiy-dunyoviy ta'lilot sifatida barhayotligini.
6. ta'minlab kelayotgan asosiy manbalari Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardir. Qur'oni Karim bilan tanishar ekanmiz, “Ilm” so‘zi asosidagi “alima” (bilmoq) fe'l negiziga tayangan kalimalar turli hollarda 750 marta takrorlanganligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan bo'lib, bu o'zak faqat “Alloh”,
7. “Rabb” (Parvardigor ma'nosida), “bo'lmoq” va “gapirmoq” kabi eng ko'p ishlatalgan o'zak-so'zlardan keyin beshinchi o'rinda turar ekan. Rasulohga nozil bo'lgan 5 oyat hozirgi Qur'oni Karim matni 96-surasi (“Alaq”)ning birinchi oyatlari bo'lib, shunday boshlanadi: “Iqra' bismi robbikal-lazi xalaq!” (“Yaratgan rabbing nomi bilan o'qi!”). Oradan bir oyat o'tib yana “o'qi!” so‘zi qaytariladi: “Iqra' va robbikal akram, allazi allama bil qalam. Allama-l-insona ma lam ya'lam” (“O'qi! Sening o'ta karamli parvardigoring qalam vositasi bilan ta'lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarni o'rgatdi”). Ilmga
8. qiziqtirish borasida Alloh Qur'onda shunday deydi: «Aytgin, ilmlilar bilan ilmsizlar teng bo'la oladilarmi albatta bu haqda faqat aqlli 6 Qur'oni Karim.

- 8.O’zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. – T.: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1992, 5-532-betlar (Keyingi misollar ham shu manbadan olindi). 82 kishilarga eslaydilar: (“Zumar” surasi, 9-oyat). Boshqa bir oyatda ilmli kishilar Allohning ho‘zurida boshqalardan ko‘ra yuqori darajada turishlari ochiq-oydin aytilgan: «Alloh taolo sizlardan imon
- 9.keltirganlarni va ilmli bo‘lganlarning darajasini ko‘taradi» («Mujodala» surasi, 11-oyat). Arablar tomonidan bosib olingan erlarda xalqlar Islom dinini qabo‘l qilishga majbur etildi. Arab istilochilari xalqni o‘zlariga bo‘ysundirish va ular tomonidan Islom dinini qabo‘l qilinishiga erishish maqsadida harbiylar hamda Islom dini targ‘ibotchilarining xizmatidan birdek foydalandilar. Natijada o‘z
10. oldilariga qo‘ygan asosiy maqsadga erishdilar. Movarounnahrda Islom ta’limoti g‘oyalarining yoyilishi, kishilar tomonidan SHariat qoidalari, Islom dini aqidalariga bo‘ysunish, yagona va qudratli Ollohga sig‘inish, shuningdek, Ollohning erdag‘i rasuli (elchisi) bo‘lgan Muhammad Alayhis-salom ko‘rsatmalariga rioya etish xalqning ongiga chuqur singib, ular tomonidan mazkur din asoslarining qabo‘l qilinishiga zamin hozirladi. Natijada Movarounnahrda islomiy qadriyatlar tarkib topa boshladi.Ulkan hududni qamrab organ Arab xalifaligi davlatining hukmronligi davrida ijtimoiy hayot, turmush tarzi, shuningdek, ilm-fan va madaniyat yanada rivojlandi. Ushbu davrlarda qadimgi yunon va rim madaniy merosi negizida bir qator fanlar yangi tushuncha va bilimlar bilan boyidi. YUnion va rim mutafakkirlari tomonidan yaratilgan va astronomiya, tibbiyat, kimyo, matematika va geografiyaga oiddeyarli barcha yirik asarlar arab tiliga tarjima qilindi.

G‘oyaviy kurash-xalqaro maydonda ustuvor mavqega ega bo‘lish, keng xududda xukumronlikka erishish yo‘lida olib borilayotgan harakat shakli hisoblanadi. Xukumronlik uchun intilayotgan kuchlarning maqsadlari, faoliyat yo‘nalishlari hamda ilgari surayotgan ta’limotlariningmohiyatiga ko‘ra g‘oyaviy kurash turli ko‘rinishlarda amalga oshiriladi.

G‘oyaviy kurash jarayonida ayrim ekstremistik kuchlar insoniyat hayoti uchun o‘ta havfli sanaluvchi terrorizmdek g‘oyaviy tahdiddan foydalanishga zo‘r bermoqda. Terrorizm: terrorchi yoki terrorchilik tashkiloti tomonidan birdan ortiq davlat xududida amalga oshiriladigan yoki bittadan ko‘p davlat manfaatlariga zarar etkazadigan, bir davlatning fuqarolari tomonidan boshqa davlatning fuqarolariga nisbatan yoki boshqa davlatning xududida amalga oshiriladigan haraqatlardir. Insoniyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan, XX asrning 83 umumbashariy muammosiga aylangan diniy-siyosiy ekstremistik oqimlarning deyarli barcha terrorchilikka asoslanib, ochiqdan-ochiq hokimiyatni egallah uchun harakat qilmoqdalar. Manbalarda “ekstremizm- keskin fikr va choralarni yoqlash, keskin choralarga tarafdarlik ” tarzida talqin etilgan va aksariyat o‘rinlarda mazkur tushunchaning yuridik atama ekanligiga urg‘u berilgan. Diniy ekstremizm rasmiy xokimiyatni “keskin qat’iy choralar ko‘rish” yo‘li bilan o‘zgartirish harakatini biniy ta’limot, qarash va g‘oyalar asosida amalga oshiradigan oqim hisoblanadi. Islom ekstremizmida ikki belgini ko‘zatish mumkin.

1.Hozirgi zamon musulmon jamoalari o‘zining islomiy xususiyatlarini yo‘qotgan va jaholat tusiga aylangan degan mafkurani targ‘ib qilish;

2.Mamlakatda islom qoidalarini o‘rnatish, hokimiyatga haqiqiy musulmonlar kelishi uchun xech bir ikqilanmasdan faol urush harakatlarini, “kuch ishlatish” zarurligini insonlar ongiga singdirish. Islom ekstremizmi o‘tgan asrning 50-60 yillarda xorijda, ayniqsa, Yaqin va O‘rta SHarq mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Aslida ekstremistik kuchlarning ildizi juda chuqur, ya’ni islomdini shakllangan ilk davrlardayoq paydo bo‘lgan.

“Fundamentalizm” atamasi keng ma’noda islom g’oyalarining Muhammad S.A.V. davrlarida qanday talqin etilgan bo’lsa, shundayligicha saqlashni, ularni o’zgartirmaslikni, muqaddas manba “Qur’oni Karim”da vahiy va mo‘jizalar qanday bayon etilgan bo’lsa, shundayligicha qabul qilishni, dinning barcha an’anaviy yo‘lyo‘riqlarini qat’iy va og‘ishmay bajarishni talab etadigan oqimlarni ifodalaydi. Ushbu atama dastlab 1908 yilda AQSHning Kaliforniya shtati protestantlari tomonidan qo‘llanilgan bo‘ilib, protestant oqimlar harakati mohiyatini ifodalashga xizmat qilgan. Dastlab fundamentalizm faqat diniy g’oyalarnigina ilgari surgan bo’lsa, bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy qarashlarni ham ilgari surmoqda. Bu holat fundamentalizm, xususan islom fundamentalizmining siyosiylashganidan dalolat beradi. Fanatizm o‘z aqidasingning shak - shubhasiz to‘g‘riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

Fundamentalizm – ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo‘nalishi. Diniy fundamentalizm – aqidaning o‘zgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va mo‘jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiytalqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so‘zma - so‘z talqinga asoslangan e’tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo‘yadigan, muayyan diniy e’tiqod shakllanishining boshlang‘ich davrida belgilangan barcha yo‘l-yo‘riqlarni qat’iy va og‘ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo‘llaniladigan istilohdir. Prezidentimiz Sh. Mirziyaev ta’kidlaganidek: “Bugungi kunda ijtimoiy-ma’naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun engasosiy masala bo‘lib turibdi. Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko‘chalarga kirib ketayogan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. Ya’ni, islom faqat nurli hayotga, ilm-ma’rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g’oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo‘lish – bu O‘zbekiston xalqiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi”

Islom falsafasida ma’naviy omil jamiyat rivojida etakchi o‘ringa qo‘yiladi. Ma’naviy-ahloqiy barkamollik hukmron bo`lgan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minalash g‘oyasi hadislар mazmunida o‘z echimini topadi. Alloh o‘zining yagonaligiga ham ilmli kishilarni guvoh qilgan: «Alloh albatta uning o‘zi yagona iloh, undan boshqa ibodatga sazovor zot yo‘qligiga shohidlik beradi. SHuningdek, farishtalar va ilm egalari ham bu narsaga adolat bilan shohidlik berdilar» («Oli Imron» surasi, 18- oyat). Shu oyatda Alloh ilmli kishilarning shohidligini o‘z farishtalarining shohidligi bilan tenglashtirgan. Bu esa, ilmli kishilarning hurmati Alloh ho‘zurida naqadar yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Aksincha, Qur’on ilmsizlarni tanqid qiladi: “Shunday qilib Alloh ilmsizlarning qalbini berkitib qo‘yadi”. (“Rum” surasi, 59-oyat). Qur’on ilmning chegarasi yo‘q ekanligini ham bayon qilib o‘tgan: “Har bir ilmlining ustidan undan ham ilmliroq bor” (“Yusuf” surasi, 76-oyat). Shavkat Mirziyoyev ”Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi 15.06.2017y. 85 Bu oyatdan maqsad shuki, olimlar o‘z ilmlari bilan mag‘rurlanib, o‘z ustida ishlashni tark etmasinlar, doimo ularni ham birov tanqid qilib qolishiga o‘zlarini tayyorlab tursinlar, demakdir. Qur’on musulmonlarni barcha narsaning haqiqatini bilish uchun doimo ilm payida bo‘lishga chaqiradi: «Ey, parvardigor, mening ilmimni ziyod qilgin deb ayt” (“Toho” surasi, 114 -oyat). Islom

kishilarni ilmga chaqirish bilan kifoyalanib qolgan emas, balki aqliy va fikriy harakatsizlikning oldini olish asos-larini kishilarga ko'rsatgan. Bu quyidagi narsalarda ayon bo'ladi: 1. Ilm biror narsani hujjatli, aniq dalil bilan bog'lamaguncha, uni haqiqat deb tan olmaydi. Qur'on ham musulmon-larga dalilsiz narsani qabo'l qilmaslikni buyuradi: «Ular aytdilar, jannatga kim yahudiy yoki nasroniy bo'lsa kiradi. Bu ularning orzusi xolos. Sen, agar gaplaringiz to'g'ri bo'lsa, dalil va hujjat keltiringlar, deb aytgin» ("Baqara" surasi, 111-oyat). Bir narsaga dalil va hujjat bo'lmasa, ishonib bo'lmaydi. Boshqalarga taqlid qilib, shirk e'tiqodida bo'lganlarni Alloh so'roq qiladi: «Kim Alloh bilan qo'shib boshqa ilohga dalil va hujjatsiz ibodat qilgan bo'lsa, uning hisob-kitobi Allohnинг ho'zurida bo'ladi. Albatta kofirlar najot topmaydilar» («Mo'minun» surasi, 117-oyat). Ilm doimo mavhum narsani deb aytishdan qaytaradi. Guman ni rost deyish to'g'ri emas. Bir masala to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilish uchun uning hujjati, kuchiga qaraladi, agar xujjati kuchli bo'lsa, masala haqiqat, hujjat kuchli bo'lmasa, masala guman. Mana shu ilmiy farqlash Qur'on ta'limotlariga ham to'g'ri keladi. Qur'on haqiqiy - ilmiy narsalarga suyanishga, guman va xayollardan uzoqda bo'lishga buyurgan va gumonga ergashganlarning holi yomon bo'lishini aytib o'tadi: «Balki zolimlar ilmsiz ravishda havoyi-nafslariga ergashadilar» («Rum» surasi, 29-oyat). Alloh musulmonlarga ilmiy asosda ish olib borishni ko'rsatib, shunday deydi: «O'zing bilmagan narsaga ergashma. Albatta, ko'z, qulqoq va qalb barcha narsadan so'raladi» («Isro» surasi, 36-oyat). Oyatning ma'nosi shuki, o'zing aniq bilmasang, senga aytildigan turlituman narsalarga ergashma. Chunki inson qiyomat kunida qulog'i eshitgan, ko'zi ko'rgan, qalbi jo qilgan barcha narsalar haqidagi so'roqlarga javob berishi kerak. Biz eslab o'tgan oyatlarning barchasi ishning asosi aniq, sobit, ilmiy ravishda bo'lishi zarurligini, guman va turli fikrlar bo'lmasligini anglatadi.

Ilm ko'r-ko'rona taqliddan qaytarishda Qur'on bilan muvofiqdir. Qur'onda bir fikrni ota-bobomiz qilgan, deb, o'zлari aql ishlatmay yurganlarni tanqid qilingan:

«Agar ularga Alloh tushirgan narsaga va payg'ambarga yaqin kelinglar, deyilsa, ular ota-bobolarimizdan qolgan narsa bizga kifoya qiladi, deydilar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan, va to'g'ri yo'lida yurmagan bo'lsalar, unda nima bo'ladi» («Moida» surasi, 104-oyat). Boshqa bir oyatda shunday deyilgan: «Agar ularga Alloh tushirgan narsaga ergashinglar, deyilsa, ular, yo'q biz ota-bobolarimizdan ko'rganimizni qilamiz, deydilar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan bo'lsalar va to'g'ri yo'lida yurmagan bo'lsalar, unda nima bo'ladi. Kofirlar xuddi bir qo'y podasiga o'xshaydilarki, ular cho'ponning qichqirig'ini eshitadilar-u, ma'nosiga tushunmaydilar. Ular kar va ko'rdirlar, aqlarini ishlatmaydilar» («Baqara» surasi, 170-171- oyatlar). Qur'onning shu oyatlaridan ko'rinish turibdiki, aql ishlatmay, o'zi ishonch hosil qilmay — ko'r-ko'rona taqlid qilish kofirlarning ishi ekan. Har bir inson Islomni bilib, unga ishonch hosil qilmaguncha, ko'rko'rona taqlid qilgani bilan mo'min bo'la olmaydi. Qur'on xalqlarni boshliqlar va yo'lboshchilarga ko'r-ko'rona taqlid qilishdan ehtiyojlanishga chaqiradi. Uning aytishicha, yo'lboshchilar ham va unga ergashganlar ham noto'g'ri yo'lida bo'lsalar — qiyomat kunidateng azob chekadilar. Buning ma'nosi shuki, bu dunyoda yo'lboshchilik qilganlar, qiyomat kunida o'ziga ergashganlardan qochar ekan. Ikki guruh ham azobga duchor bo'lib oralaridagi aloqa o'zilar ekan. Qur'on ota-bobolarga, boshliqlarga va yo'lboshchilarga ko'rko'rona taqlid qilishdan qaytarish bilan birga, faqat bir taraflama fikrlashdan ham qaytardi va biror narsa qilmoqchi bo'lsa o'sha narsaning yaxshisini tanlab olishga chaqiradi: "Ular (musulmonlar) gapni eshitganlaridan so'ng, eng yaxshisiga ergashadilar. SHunday kishilarni Alloh to'g'ri yo'lga boshlaganlar va ular aql egalaridirlar" ("Zumar" surasi, 18-oyat). Mana shu oyatda Alloh musulmonlarni barcha

gaplarni eshitib, tushunib, so'ngra yaxshisiga ergashishga buyuradi. Alloh shunday qilganlarni ilohiy hidoyatga erishganlar va o'tkir aql egalari, deb ataydi. Aslida ilm degani ishlarni aql yordamida bajarishga aytildi. Aql esa, uchragan narsani tushunib olish qobiliyatidir. Qur'on barcha ishlarda aqlni ishlatishga chaqiradi, aqlni ishlatmaganlarni qattiq tanqid qiladi. Qur'onda aqlga taalluqli so'zlar 50 marta ishlatilgan. Aql egalarining so'zi esa 10 martadan ko'proq ishlatilgan. SHuning o'zi ham Qur'on aqlga katta e'tibor berganini dalilidir. Qur'on aqlning ulkan ne'mat ekanligini bayon qiladi: "Albatta bu narsalarda aqlli kishilar uchun belgilar bor" ("Ra'd" surasi, 4-oyat). "Biz oyatlarni aqlli kishilar uchun bayon qilib qo'ydik. Aqlni ishlatmaydilarmi" ("Baqara" surasi, 76-oyat) va hokazo. Qur'on musulmon kishining ko'z oldida turgan mayjudotlarni o'rganishga chaqiribgina qolmay, avvalgi o'tgan halqlarning tarixi, ularning obodonchilik yo'lida olib borgan ishlari, havoyin-nafsga berilib, oqibatda halokatga uchraganlarini ham o'rganshiga undagan. "Rum" surasida shunday deyilgan: "Er yuzida yurib o'zlaridan avval o'tganlarning oqibati nima bo'lganiga nazar solmaydilarmi. O'tganlar bo'lardan ko'ra quvvatliroq edilar, er yuzida asar qoldirgan edilar, bo'lardan ko'ra er yuzini ko'proq obod qilgan edilar va ularga payg'ambarlari ochiq-oydin xabarlar bilan keldilar. Alloh ularga zulm qilmoqchi emas edi, lekin ular o'zlariga – o'zlar zulm qildilar". (9- oyat). Qarang, bir xalqqa shunday ta'limotlar kelibdi. Unda o'tgan ummatlarning taraqqiyot, obodonchiligi, yuz tuban ketishi va harob bo'lishi sabablarini o'rganishga chaqiriq bor ekan. Bu chaqiriq tarix va sotsiologiya ilmini o'rganishga chaqiriq emasmi? Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 28 iyuldagи "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori mamlakatimiz aholisiga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni keng va atroflicha, xolis tahlil etish, bugungi globallashuv sharoitida navqiron avlod ongu shuurini turli yot va zararli g'oyalardan himoyalashga oid dolzarb vazifalarni bajarishda muhim asos bo'ldi. "Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflı burchimizdir. Islom – haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi. Muqaddas dinimiz bundan buyon ham xalqimizni birlashtirib, millati va tilidan qat'i nazar, ma'naviy poklanish, odamlarni tinchlik, ezgulik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va totuvlikka undaydigan, o'rnini Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Imon. –T.: "Kamalak", 1991, 128-136-betlar. 88 hech narsa bosa olmaydigan vosita bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir" - deb, ta'kidlaydi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Darhaqiqat, ushbu buyuk diniy meros oliy qadriyat sifatida yoshlarda insoniylik fazilatlarini shakllantirish, go'zal xulq va pokiza ahloqiy jixatlarni tarbiyalashda eng asosiy manbalardandir.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) Hadisi Shariflarida ilm inson kamolotining negizi, ezgulik va poklik insonlarni turli ofatlardan saqlovchi vosita deb qaraladi. Hadislarda ilm poklik, halollik, kishilarni yaxshilik sari boshlovchi, qorong'ilikda yo'l ko'rsatuvchi mash'al tariqasida talqin qilinadi. Ilm-bu hikmat, poklik ramzi, ilmsizlik johillik, u bilan shug'ullanmaslik noplilikka va jaholatga olib kelishi ham, ham ulardan ta'kidlanadi. Islom dinining asosini imon, e'tiqod tashqil etadi.

SHuning uchun hadislarda "Dinning ofati uchtadir:

- 1) beamal olim;
- 2) zolim hokim;

3) bilmasdan fatvo aytuvchi ulamo" deyiladi.¹⁰ SHuning uchun ilmni qadrlovchi kishiga o'rgatish lozimligi, uni xo'rlovchi, mensimaydigan kishiga o'rgatish gunoh, deb

qaraladi. Ilm bilan shug‘ullanishning o‘zi etarli emas.

Boshqalarni undan habardor qilish muhimdir. Hadislarning birida ilm o‘rganmoq uni tarqatmoq bilan barobar olib boriladi, deyiladi: “Kimki ummatlarimga mening sunnatimga oid 40 hadisni yodlab etkazsa, qiyomat kunida men uni shafoatimga loyiq kishilar safiga kirgizaman” (112- Hadis). Tolibi ilmnning xolis, kamtarin bo‘lishi o‘ta muhimdir. Bilganini ko‘z-ko‘z qilish, maqtanish gunohdir. Kishi bilganini e’tirof etish bilan birga bilmaganini ham tan olishi joiz. Ayniqsa, diniy faoliyat bilan shug‘ullanadigan ulamolar, maktab va madrasalarda tolibi ilmlarga saboq beruvchi ustoz-mudarrislar aytadigan gapini, qiladigan ishini, chiqaradigan fatvosini va beradigan bilimini o‘ylab berishi kerak. Hatto aytadigan maslahati ham holisona, beminnat bo‘lishi lozim. Hadislarning birida shunday deyiladi: “Kimki birodariga bir ish qilishga bilib noto‘g‘ri maslahat bersa, demak birodariga xiyonat qilgan bo‘ladi” (110-Hadis). Ilm o‘zligini anglash, xudoni, dinni bilish demakdir Ilm olimniki pesh qilish vositasi bo‘lmasligi zarur. “Kimki olimlarga maqtanish uchun, - deyiladi hadislarda,- yoki nodonlar bilan tortishish, yoxud 9 SH. Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti

Tashqi ishlar vazirlari kengash 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi 21.10.16 . 10 Hadis. Al- Jomi’ as-sahih (Ishonarli to’plam). I, II, III, IV jild. Qomuslar Bosh tahrir tahririysi; -T.: 1991-1996 (keying misollar ham shu manbalardan olindi). 89 odamlarning dillarini o‘ziga moyil qilish uchun ilm olsa do‘zaxga boradi” (108-Hadis). Ilmli kishilarni e’zozlash, hurmat qilish har kim uchun ham farz, ham qarzdir. SHuning uchun ilmli kishilarga insonlar, butun mavjudot xayrixoh. Bir hadisda aytildi: “Ilmgaga har bir narsa istig‘for aytadi, hatto dengizdagи baliqlar ham” (93-hadis). Ilm olish hunar o‘rganish olijanob va savobli. Ilm, hikmatlar, hunar kishini turli noplari ishlardan asraydi: “Hattoki birsoat ilm o‘rganish kechasi bilan ibodat qilib chiqqandan afzaldir” (536-hadis). Ilm kishilarga naf keltirishi lozim. Olimlar ilm o‘rganib boshqalar yo‘lini yorug‘ qilishlari, ularga rahnomo bo‘lishlari joiz. “Ilm ikki xildir, biri qalbda bo‘ladi – uni ilmi nofe’ (foyDALI) deyiladi, ikkinchisi tilda bo‘ladi – u odam bolasiga yuborgan Alloh taolonning xujjatidir” (95- hadis). Ilm foydali bo‘lishi uchun u odamlarga o‘rgatilishi lozim. Ilmli kishi sadoqatli bo‘lishi, kishilarga yaxshilikni o‘rgatishi kerak. Ilm bilimli kishi uchun fazilat bo‘lsa, bu holatni u boshqalarga singdirishi zarur. “Odamlarga yaxshilikni o‘rgatib, o‘zini esidan chiqargan olim, kishilarga yorug‘lik berib, o‘zini quydiradigan shamchiroqqa o‘xshaydi” (106-hadis) yoki “Ilmni o‘rganib uni hech kimga aytmayotgan odam boylikni to‘plab uni hech (narsaga) sarf qilmayotgan baxilga o‘xshaydi” (106-hadis). Ilmu xikmat o‘tkinchi emas, u abadiy. SHuning uchun mo‘min kishiga vafotidan keyin etib turadigan savob narsa uning tarqatgan ilmdir.

Hadislarda ilmli kishi mevali daraxtga o‘xshatiladi. Lekin ilmli kishining aytadigan fikrlari boshqalarga xush kelishi, tushunarli bo‘lishi darkor. Muhammad payg‘ambar o‘z hadislarda va’zaytganda kishilarni zeriktirmaslik, aytilayotgan fikrni tushunarli bo‘lishini ta’kidlagan: “Osonlashtiringiz, qiyinlashtirmangiz! Xushxabar aytингиз, nafratlantirmangiz (o‘zingizdan bezdirmangiz)” (121-hadis). Ilmni o‘rganish shaxsiy manfaat uchun bo‘lmasligi darkor. “Bir kishi Alloh ilmini (Islomni) teran o‘rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadir va Alloh yuborgan hidoyatni o‘zi o‘rganib, o‘zgalarga ham o‘rgatadilar. Ikkinci bir kishi ilm o‘rganib, odamlarga o‘rgatadilar. Ammo o‘zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib o‘zi ham o‘rganmaydir, o‘zgalarga ham o‘rgatmaydir. Bo‘lardan birinchisi mo‘“min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir” (26-hadis). 90 Ilm kishilarni odillik va insonparvarlikka undaydi. Ilmli kishilarni hadislarda unumdar tuproqqa o‘xshatiladi, undan ungan o‘simliklar, giyohlar insonlarni oziqlantiradi. Suv erlarga hayot

bag‘ishlaganidek, ilm ham kishilarga ezgulik, yaxshilik keltiradi: “Ilm ko‘p yoqqan yomg‘irga o‘xshaydir. Ba’zi er sof unumdor bo‘lib, yomg‘irni o‘ziga singdiradir-da, har xil o‘simpliklar va ko‘katlarni o‘stiradilar va ba’zi er qurg‘oq, qattiq bo‘lib, suvni emmasdan o‘zida to‘playdir. Undan Alloh taolo bandalarini foydalantirgaydir. Odamlar suvdan ichgaydir, hayvonlarni va ekinlarni sug‘orgaydirlar. Ba’zi er esa tekis bo‘lib, suvni o‘zida to’tib qolmaydir, ko‘katni ham ko‘kartirmaydir”, - deyiladi hadislarda. Ilm, hikmat o‘rganmoq mo‘minning eng yuksak fazilatidir. CHunki ilm kishilarga tayanch, rahnamo, zebu-ziynat, mo‘min uchun ilm hayotining yo‘ldoshi va dushmanlarga qarshi kurashda quroldir. “Ilm egallang!- deb xitob qilgan payg‘ambarimiz. – Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida – yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir”. SHuning uchun ilm olish yo‘lida har qanday riyozat bo‘lsa ham kishi undan qaytmasligi kerak. Ilm-hunar o‘rganish mashaqqatdir. Ammo inson o‘z irodasi, aqlzakovati bilan unga intilmog‘i lozim. “Ilmu hunarni Xitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar”, deydi (126-hadis) Muhammad payg‘ambar. Ilm–bu ma’rifat, fazilat. Ilm jamiyat musaffoligining belgisidir. Ilmma’rifat bor joyda diyonat bor. Agar ilm susaysa – jaholat, nodonlik kuchayadi. Ilmsiz mamlakatda fitnalar kuchayadi, qotillik avj oladi. Ilm susaysa nopolik, fohisha zo‘rayadi. Bu borada hadislarda: “Ilmning susaymog‘i – jaholatning kuchaymog‘i, zinoning avj olmog‘i, xotinlarning ko‘paymog‘i – erkaklarning ozaymog‘i”, - deyiladi (36- hadis). Ilm, xikmat jamiyatdagi ma’naviyat manbai. SHuning uchun ilm o‘rganib uni tarqatish avj olsa fitnalar, haraj (qotillikning) oldi olinadi. Hadislarda ulamolar ilm o‘rganib, ilm tarqatishga kirishsinlar, bilmaganlarga o‘rgatsinlar. Zero, ilm sir tutilsa, halokat boshlanadi, deb aytigan. Shu bilan birga ilm faqat birovlar mulki emas, u butun mo‘minlarning ma’naviy mulkidir. Ilmni sir tutish, uni tarqatmaslik jamiyatni halokatga olib keladi. Hadislarning o‘zidek ilm, xikmat ham umumbashariyat mulki bo‘lmog‘i lozim. Hadislarning qimmatli, insoniy va axloqiyligi shundaki, ularda barcha masalalar holisona ifodalangan. Ularda ta’limning hozirgi ko‘p muammolari o‘ziga xos tarzda bayon etilgan. “Har bir musulmonga ilmga intilish farzdir”. Bu fikr ta’limning umumiyligi majburiyligiga ishora emasmi? Bu fikrlar Ya. A. Kamenskiyning “Buyuk didaktika”si yozilmasdan bir necha asr avval aytildi. Umuman hadislardagi fikrlarning qimmatli tomoni yana shundaki, ular umumbashariydir. Ular biron bir ijtimoiy guruh manfaati nuqtainazaridan yozilmagan. Bundan tashqari ular insoniyat ma’naviyati, axloqi, madaniyati taraqqiyotining sarchashmalari, ular rivojining poydevorini tashqil qilganligi bilan ham ardoqlidir. Qolaversa, hadislarning o‘zi ham xikmat, ham ilmdir. Shunday qilib, Qur’oni Karim va Hadislarda insonni o‘qibo‘rganishga, ilm vositasi bilan dunyodagi voqealari hoidalarining tub mazmun-mohiyatini anglab etishga targ‘ib qilinadi. Qur’oni Karimda axloq va odob masalasiga alohida e’tibor berilgan.

Ta’kidlanishicha, insonning jamiyatda tutgan o‘rni bilan chambarchas bog‘liq axloq-odob, ota-onva qarindosh-urug‘larga hurmat etim-esir, qambag‘al-miskinlarga muruvvat va saxovatlilik, halollik, poklik, to‘g‘rilik, o‘z halol mehnati va kasb-hunari bilan yashash, oila va nikoh munosabatlari, o‘z bolalarini boqish, ta’lim va tarbiya berish, omonatiga xiyonat qilmaslik, adolatparvarlik, do‘stlik va birodarlik kabi yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlardir. Qur’oni Karimda sabr-qanoatli, ehsonli, saxovatli, muruvvatlik, keng fe’lli bo‘lish yuksak ma’rifat va yuksak axloqiy fazilat belgisi, deb ta’kidlanadi: “Albatta sabrlilar o‘z savoblarini hisob-kitobsiz to‘liq oladilar” (“Zumar” surasi, 10-oyati). “Sabr-qanoatga ehson bilan bir qatorda eng yuksak fazilat sifatida katta e’tibor beriladi: Muhammad, mashaqatli va ozorlarga sabr qiling! Zotan, Alloh chiroyli amal

qiluvchilarining ajr-mukofotlarini zoe etmas” (“Hud” surasi, 115-oyati). Shuningdek insondagi axloqiy fazilatlardan eng muhimi xayri ehson haqida alohida fikr yuritiladi: “Alloh senga ehson qilgani kabi sen ham (Allohning bandalariga) infoq- ehson qil” (“Qasas” surasi, 77-oyati). Qur’oni Karimning “Al- Isro” surasini 23-24-oyatlarida ota-onaning bolani dunyoga keltirishi bilan birga, farzandga yaxshi ism qo‘yishi, o‘z farzandini jismoniy va ma’naviy tomondan etuk kishi qilib tarbiyalashi, ya’ni ilmu ma’rifatga o’rgatish va biror bir kasb-hunar egasi qilish, o‘g‘il bola bo‘lsa uylantirish, qiz bola bo‘lsa turmushga chiqarish, ularga moddiy va ma’naviy yordam berib turishi ta’kidlanadi. Ma’lumki, manmanlik – aybini tan olmaslik, takabburlik sanaladi. Manmanlik haqida Qur’on Karimni “Isro” surasining 37-oyatida: “Yer yuzida Kibr-Havo bilan yurmagin! Chunki sen (oyoqlaring bilan) hargiz erni teshib (uning tubiga) ketolmaysan va bo‘yi bastda tog‘larga etolmaysan”, - deyiladi. Bu to‘g‘rida payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislaridan birida: “Kimki o‘zini katta olsa, yurishida o‘ziga bino qo‘ysa, oxiratda Allohning g‘azabiga uchraydi” (821-hadis), deb ogohlantiradi. Ma’lumki, VIII - IX asrlar Hadis ilmi uchun «oltin davr» hisoblanadi. Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to‘plam (as-sahih as – sitta) ni yaratgan muhaddislar “ham vatandoshlarimiz bo‘lib, ilm – u fan rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bo‘lar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al - Buxoriy 194 (810) – 256 (870), Imom Muslim ibn al – Xajjoj 206 (819) – 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at – Termiziy 209 (824), - 279 (892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy 202 (817) – 275 (880), Imom Ahmad an – Nasoniy 215 (830) – 303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Majja 209 (824) – 273 (886) kabi allomalardir.

Olimlar “al-kutub as-sitta” (olti kitob)ni quyidagilardan iborat deb ko‘rsatadilar:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy tomonidan yozilgan “As-Sahih”.
 2. Imom Muslim an-Nishonpuriy (imom Muslim ibn al - Hajjoj) tomonidan yozilgan “As-Sahih”.

3. Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan “Sunnai”.

4. Imom Abu Dovud Sulaymon – Sijistoniy tomonidan yozilgan “Sunnai”.

5. Imom ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan “Aj-jami alKabir”.

6. Ahmad an – Nasoiy tomonidan yozilgan “Sunnai” kabito‘plamlardir.

7. Imom al – Buxoriyning shoh-asari “Al-Jome’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”) 4 jiddan iborat bo‘lib, unga 600 ming hadidan 7275 ta eng “sahih” hadislar kiritilgan, takrorlanmaydiganlari 4000 hadisdan iboratdir. Imom al-Buxoriy juda boy ijodiy meros qoldirgan.

Uning “AlJome’ as-saxix” (“Ishonchli tuplam”), “Al-adab al-mufrad”, “At-Tarix al-kibor” (“Katta tarix”), “At-Tarix as-sagiyr”, (“Kichik tarix”), “Al-kiroatu xalfa-l-Imom” (“Imom ortida turib ukish”), “Vaf’ul-yadini fi-sSaloti” (“Namozda ikki kulni kutarish”) kabi ishlari mavjud bo‘lib, kulyozmalari bizgacha etib kelgan. Amma “At-Tarix al-avsat” (“Urta tarix”), “At-Tafsir al-kabir” (Katta tafsir”), (“Al-Jome’ al-kabir” (“Katta tuplam”)), “Kitob-ul-xiba” (“Xadya kitobi”) nomli asarlari ham bo‘lganligi ma’lum, lekin bo‘lar bizgacha etib kelmagan. Shubxasiz, bu asarlaridan eng etuk, shox asari “Al-Jome’-as-saxix”dir. Bu asar “Saxix al-Buxoriy” nomi bilan ham dunyoda mashxur. 4- jildan iborat mazkur kitobda paygambarimiz salolloxo alayxi vasallam xadislaridan tashkari, islom xukukshunosligi, islom marosimlari, axlok-odob, ta’lim-tarbiya, tarix va etnografiyaga oid ma’lumotlar ham berilgan. Unga 600 ming xadisdan 7275 ta eng “saxix” xadislar kiritilgan bo‘lib, takrorlanmaydigan 4000 xadisdan iboratdir. Bu kitob islom ta’limotida Qur’oni Karimdan keyingi manba xisoblanadi. Ma’lumki, islom dini insonni ma’naviy kamolot sari etaklovchi ta’limot. Shu

sababli Kur’oni Karimda ham, xadislarda ham yaxshi xulq va odob keng targib etilgan. “Saxix” yunalishining asoschisi, eng etuk va mashxur muxaddis Abu Abdulox Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriydir. Imom Buxoriy xadis ilmida “Amir ul-mu’minin”. “Imom al-muxaddisiyn” (“Barcha muxaddislarning peshvosi”) degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan. U 810 yil, 13 mayda (ba’zi manbalarda 810 yil, 20 iyulda) (xijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tug'ilgan. Gudakligida otadan etim qolgan. O‘quv muassasasida savod chikargan, 10 yoshidanok arab tili va kitoblaridan ularni yodlay boshlaydi. Al-Buxoriy xadis ilmini katta kizikish bilan urgana boshlaydi.

Yoshlik chog’idan boshlab turli roviylardan eshitgan xadislarni yodlab boror edi. Abdullox ibn olMuborak, Vaki’ ibn Jarrox kabi olimlar to’plagan xadislarni yod olgan, xadis rivoyatchilari haqidagi baxslarda qatnashgan. Al-Buxoriy 825 yilda, un olti yoshida onasi va akasi bilan Xijozga safar qiladi. Makkayu Mukarrama va Madinayu Munavvarada bo‘lib, xaj ibodatini ado etadi. Balx, Barsa, Kufa, Bag’dod, Xume, Damashq, Misr, Makka va Madinada bo‘lib, safar jarayonida muxaddislardan xadis ukir edi. Olti yil Xijozda qolib, xadis ilmidan ta’lim oladi. SHu bilan birga, Damashk, koxira, Basra, Bagdod shaharlarida mashxur olimlardan fikx olmidan dars oladi, o‘zi ham baxs va munozaralarda qatnashadi, tolibu ilmlarga dars ham beradi. Imom Buxoriy iste’dodli, o’tkir muxofazali, ziyrak olim bo‘lgan. “Manbalarga ko‘ra, Bag’dodda istiqomat qilgan paytida ko‘pincha oyning nurida ijod qilib, qorong’i kechalari sham yorug’ida kitob o’qir 94 ekan. Agar tunda bexosdan biror-bir fikrmuloxaza kelib qolsa, shamni yoqib darxol fikrini qog’ozga tushirar, shu taxlitda ba’zi kechalari shamni yigirma martagacha uchirib-yokar ekan”. Imom Buxoriyning o’tkir zexn egasi ekanligini quyidagi misoldan ham bilish mumkin. Rivoyatlarga ko‘ra “U qaysi bir kitobni qo’lga olib, bir marotaba mutolaa qilsa, hammasi yod qolaverardi”. Imom Buxoriyning o‘z so‘ziga ko‘ra, yuz ming saxix (ishonchli) va ikki yuz ming gayri saxix (ishnchsiz) xadisni yod bilar ekan. O‘z shogirdlaridan Amir ibn Fallos “Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma’lum bo‘lmagan xadis, albatta ishonchli xadis emasdur”, - deydi. Ustozi Imom Axmad ibn Xanbal alMarvaziying aytishicha, “Butun Xurosandan Muhammad ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas”. Imom Buxoriyning o’tkir zexni haqida shunday rivoyat keltiriladi: “Imom Buxoriy bilan Basrada xadis darsiga qatnashgan sheriklaridan biri Xoshid ibn Ismoilaytadi: “Imom Buxoriy bizlar bilan ustozning darsini eshtardi. Ustoz rivoyat qilgan xadislarini biz yozib olar edik, ammo Buxoriy fakat qulq solibgina o’tirardi. Shu tarzda qancha kunlar o’tib, orada ustoz kariyb 15 ming xadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga: “Sen nega xadislarni yozmaysan?” - deb ta’na qilgan vaqtimizda: “Sizlar yozib borayotgan xadislarni men ustoz ogzidan yodlab olayotirman”, - dedi-da, ustoz rivoyat qilgan hamma xadislarni bir chekkadan yoddan o’qib berdi. Shundan keyin biz yozib olgan xadisalarimizdagи xatolarni uning yodlaganidan tuzatib oladigan bo‘ldik”. Imom Buxoriy juda ko’p zabardast olimlardan ta’lim oladi. Manbalarda uning ustozlarini tuksonga yakin deb ko’rsatishadi. Muhammad ibn Yusuf al-gartobi, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy, ibn Raxavayx nomi bilan mashxur imom Isxok ibn Ibroxim, Imom Axmad ibn Xanbal, Ali ibn alMadiyniylar uning ustozlaridir. Imom al-Buxoriyning o‘zi ham yirik va mashxur olimlar Isxoq ibn Muhammad al-Ramoziy, Abdullox ibn kutayba, Ibroxim al-Harbiy, Muhammad ibn Abu Iso at-Termizi, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn Al- Xajjoljarga o‘z vaqtida ustozlik qilgan. Imom Buxoriy uta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, saxovatli inson ham bo‘lgan. U xadis ilmining etuk olimi bo‘lsa ham, vaqtি kelganda zamondoshlari, shogirdlaridan ham urgangan. Imom Buxoriy bir ming saksonta muxaddisdan xadis eshitgan. Undan tuksin 95 ming kishi ishonarli

xadisni tuplagan, 100 ming “saxix” va 200 ming “gayri saxix” xadislarni yod olgan. Imom al-Buxoriy uzok safardan ona yurti Buxoroga kaytgach, talabalar va ulamolarga xadis ilmidan sabok beradi va uning targ’ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko’ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Axmad ibn Xolid az-Zuxaliy uni saroyiga kelib xadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Buxoriy bu taklifni qabul etmaydi va: “Men ilmni xorlab sultonu amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo‘lsa, tarbiyalanuvchilarni (ikkinchi rivoyatda saroyidagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin”, - deb javod beradi. Al-Buxoriy bilan amir Xolid ibn Axmad az-Zuxalliy munosabatlariga raxna tushadi. Bunga ba’zi xasadguy shaxslarning ig’volari ham sabab bo‘ladi. Amir buyuk allomani shahardan chiqib ketishga farmon beradi. Uni Samarqand ulamolari o‘z yurtlariga taklif etadilar. Imom Buxoriy yulga chiqadi. Ammo Samarqandga yaqin Xaftang kishlogida (xozirgi Poyarik tumani) betob bo‘lib qoladi va shu erda xijriy 256 yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 870 yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu erga dafn etiladi. Yuqoridaqilarga xulosa qilib aytganda, islom ta’limoti mujassamlashgan Qur’oni Karimdagagi “Biz odam bolalarini azizmukarram qildik... ularga halol-pok narsalardan rizqu – ro‘z berdik va ularni o‘zimiz yaratgan juda ko‘p jonzotlardan afzal-ustun qilib qo‘ydik”; “Ey mo‘minlar, sizlarga rizq qilib bergenimiz-pokiza narsalardan englar”, “Bandalarimga aytinki, ular eng go‘zal so‘zlardan so‘zlashsinlar”, “Odamlarni aldab fitnaga solish o‘ldirishdan yomonroqdir”, “Alloh zulm qiluvchilarni sevmaydi”, “Parvardigoringiz... ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi...” kabi muhim g‘oyalar; shuningdek, Hadisi SHarifdagi “Ilm egallang! Ilmsahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida – yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir”; “Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir”; “Beshikdan to qabrga kirgunlaringizcha ilm izlangiz”, “Yoshlikda olingen ilm toshga o‘yilgan naqsh kabitidir”; “Yolg‘on so‘zlama”, “o‘zinga ravo ko‘rganni boshqalarga ham ravo ko‘r”, “Englar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka o‘tmanglar”, “Ahmoqdan uzoqlashing”, “Nonni e’zozlanglar”; deb zikr etilgan hikmatlar komil insonni tarbiyalashda muhim manbadir.

Ta’kidlash joizki, Muso al-Xorazmiy, Imom Ismoil al – Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad YAssaviy, Ahmad Yugnakiy, Shayx Najmiddinov Kubro, Sulaymon Boqirg‘oniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamashariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Davoniy, Voiz Koshifiy va ulardan keyin ijod qilgan boshqa mutafak-kirlar islom ta’limotini, Qur’oni Karimni, payg‘ambarimizning aytgan so‘zlari, diniy va axloqiy yo‘l-yo‘riqlari, hikmatlaridan iborat manba- Hadisi Shariflarni yaxshi bilganlar, ularning ta’sirida ijod etib, kelgusi avlodlar uchun benazir meros qoldirganlar. Aslini olganda esa, mutafakkirlarimizning tabiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ta’lim- tarbiyaga oid qarashlari-ning asosi, shuningdek, asarlarining mazmun – mohiyati va g‘oyasi ham Qur’oni Karim va Hadisi Sharif ta’limotiga asoslanadi. Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o‘rgatish Qur’oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlarni o‘rganish va ulardagiko‘rsatmalarni o‘zlashtirish bilan olib borilgan. Shunga ko‘ra, Qur’oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga kuchli ta’sir etgan va islom ta’limoti allomalarimiz asarlarida ilmiy talqin etiladi. Bo‘larda ilgari surilgan g‘oyalar yosh avlodning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishiga, pedagogik fikr taraqqiyoti tarixida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Shunday qilib, biz islom ta’limotida, ta’lim-tarbiya masalalarining tutgan o‘rnini tahlil etar ekanmiz, bu davrma’naviy-ma’rifiy tafakkurining harakterli tomoni shundaki, ma’naviyat, ma’rifat, odob-axloq sohasidagi tasavvur, fikr, bilimlar islom diniy

aqidalari va ta’limotlarini ham bilimning, ilmiy tasavvurning bir ko‘rinishi sifatida o‘z ichiga singdirib yubordi. Dunyoviy ilmlar va diniy ilohiy tasavvurlar bir butun holda qabo‘l etilib, inson ilmiy tushunchalari asosida talqin etilib, ular jahonga mashhur qomusiy mutaffakkir-larimiz asarlarida keng o‘rin egalladi.

III. DIDAKTIK MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Mustaqil ta'lismashg'ulotlari

Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi – talabada o'quv ishlarini mustaqil bajarishda kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni tashkil topishi va rivojlanishi.

Talabalar mustaqil ishining vazifalari:

- Mustaqil ishlarni bajarish uchun yangi ma'lumot axtarish, kerakli chora tadbirlarni aniqlash.

Informatsion manbalardan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida foydalanish.

- Meyoriy hujjatlar, ilmiy-metodik materiallar, o'quv adabiyotlar bilan ishlash.
- Elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash.
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish, berilgan savollar echimini to'g'ri aniqlash.
- Ish rejalarini ekspertizaga tayyorlash, ekspert xulosasiga ko'ra ularni qayta ishlash, ishni tizimli va ijodiy bajarilishiga tayyorlash.
- Ishlab chiqilgan echimni, g'oya yoki loyihani izohlash va himoya qilish.

Talabalar mustaqil ishi uchun belgilangan vaqt byudjetiga binoan kafedralarda barcha predmetlardan tashkiliy formalar, mustaqil ish variantlari va mustaqil bajarish topshiriqlari ishlab chiqiladi, ular fakultetning ilmiy – metodik kengashida hamda kafedra yig'ilishlarida tasdiqlanadi.

Talabalar mustaqil ishi pedagogik ta'minlanishni mavzulari va shakllari ro'yxatini tuzish uchun har birini maqsad va vazifalarini ifodalab berish, yo'riqnomalar yoki metodik yo'llanmalar ishlab chiqish va ilmiy adabiyotlarni tanlash deganidir.

TALABALAR NING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Talabaning mustaqil ishi uning auditoriyada va undan tashqarida, o'qituvchi rahbarligida yoki o'qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuuni anglatadi. Mustaqil ish qanday sharoitlarda amalga oshiriladi:

1. Bevosita auditoriyada - ma'ruza amaliy mashg'ulot, seminar yoki laboratoriya ishlari bo'yicha vazifalar berish jarayonida;
2. O'qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlardagi bevosita muloqot chog'ida maslahatlar berishda, ijodiy muloqotlar jarayonida, yakka topshiriq bajarishda va boshqalar.
3. Axborot resurs markazida, uyda, talabalar uylarida, kafedralarda talaba tomonidan o'quv yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida.

Mustaqil ish bo'yicha test savollari, topshiriqlar va mashqlar ustida ishlash asosan mustaqil bajariladi. Bu ish natijalari esa auditoriyada (amaliy va laboratoriya) mashg'ulotlarida o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va baholanadi.

Kasb ta'limi pedagogikasi fanidan mustaqil ta'limi tashkil etish uchun avvalambor quyidagi mustaqil ish bajarish turlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

Mashqlar bajarish - Mustaqil ishlarning asosiy ko'rinishlaridan biri mashqlar bajarishdir. Mashqlar dastur asosida tuzilishi, juda oson yoki haddan tashqari qiyin bo'lmasligi lozim.

Mashqlar - ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida muayyan xatti-xarakatlarni ko'p marta takrorlashdir. Ishlab chiqarish ta'limidagi mashqlarga asosan quyidagi talablar qo'yiladi: mashqlarni o'quvchilar ongli va maqsadga muvofiq yo'sinda bajarishlari; ishlab chiqarish metodikasiga asoslanishi, tizimli, izchil, uzluksiz bo'lishi va takrorlanishi; o'quvchilarning mustaqil ishlashi muntazam rivojlanib borishi kerak.

O'quv adabiyotlari bilan ishslash - Kitoblar va o'quv adabiyotlari bilan ishslash ko'nikma va malakalarini shakllantirish mustaqil ta'lim olishning asosiy ko'rinishi hisoblanadi. O'quv adabiyotlari bilan ishslashni barcha ta'lim oluvchilar yaxshi o'zlashtirgan bo'lislari lozim. O'quv adabiyotlari deganda, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, texnik adabiyotlar, ma'lumotlar, yo'riqnomalar va x.k. tushunish mumkin.

Nazorat ishlariga tayyorlanish - Nazorat ishlariga tayyorlanish jarayoni ham mustaqil ta'limning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Ta`lim olish davrida imtixonlar va nazorat ishlari topshirish talabalardan katta javobgarlik talab qiladi. Imtixonlarda va nazorat ishlarida talabalar o'quv rejasini qanday darajada o'zlashtirganliklari haqida hisobot beradilar. Talabalarning nazoratlarga o'z hohishi asosida mukammal tayyorlanishi a`lo baho olishining garovidir. Talaba har bir darsga o'z vaqtida va yaxshi tayyorlansa ham u nazorat ishlaridan oldin baribir qayta tayyorlanishi kerak, ya`ni materialni qayta o'qishi, umumlashtirishi va tizimlashtirishi lozim.

Mustaqil ishlarni va talabalar bilimini tekshirish - Talabalarning bilimini tekshirish ya`ni aniqlash, yangi materialni mustahkamlash vaqtida, o'tilgan o'quv materiallarini o'zlashtirish, mehnat usullarini egallash va mustaqil mehnat topshiriqlarini, grafik ishlarini va uy topshiriqlarini bajarishlari jarayonida talabalarning bilimlari tekshiriladi va unga ball qo'yiladi.

Chizmalar va sxemalarni o'qish va tuzishni o'rganish-Kasb ta`limi fakultetini ko'pchilik fanlari texnikaviy asoslarga ega bo'lganligi sababli chizmalarini o'qish, sxemalarni tuzish muhim axamiyat kasb etadi.

Talabalarga chizmalarini o'qish va tuzishni o'rgatish uchun ularda grafik bilim elementlari bilan tanishishlari chizmalarini o'qishni o'rgatishdan boshlanadi. Mashg'ulotlarda texnologik xujjatlar sifatida texnik rasmlar, eskizlar va ish chizmalaridan foydalanildi.

Sxemalarni o'qish: mashinaning nomi, vazifasi va qaerda qo'llanishini aniqlash; uning ish jarayonini tushuntirish; mashina qo'llanmasini o'qib chiqish va detallarning vaziyati, xarakatni uzatish usullari hamda ketma-ketligini aniqlash;

Texnik modellashtirish va loyixalash-Pedagogika oliy ta`lim muassasalarida texnik modellash va loyixalash mashg'ulotlari uchun ko'pincha o'quv ustaxonalaridan foydalilaniladi. Bu ustaxonalarda kasb ta`limining xar hil tashkiliy shakl va metodlaridan foydalanish; texnik ma'lumotlar berish; tadqiqotchilik va amaliy faoliyat malaka, ko'nikmalarni shakllantirish ishlarini amlga oshirish; texnik bilimlarni, mehnat usullarini, bajarilgan ishlar sifatini nazorat qilish; dizayn, estetik did va mehnat madaniyati ko'nikmalarini, mustaqil ishslash qobiliyatini shakllantirish; konstrukturlik-texnologik xarakterdagи ijodiy masalalarni hal qilish, yuksak darajadagi mehnat intizomiga va mehnat muxofazasi talablariga rioya etish uchun ma'lum shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim.

Loyixalash – asl nusxadagi mashinalar, moslamalar, jixozlar va hokazolarning chizmalarini yaratishga qaratilgan ijodiy jarayondir. (9).

Loyihalash bilan shug'ullanish uchun avvalo keng grafik hamda texnologik bilim va malakalarga ega bo'lish kerak. SHuningdek, buyumlarning mustahkamligi, aniqligi va hokazolariga oid murakkab hisoblarni bajarish imkonini beradigan maxsus loyihalash bilimlari va malakalari ham zarur.

Ma`ruza tayyorlash-Oliy ta`lim muassasalarida o'qitish jarayonida ta`lim berishning turli shakl va metodlaridan foydalanimoqda. Ta`limning asosiy shakli esa ma`ruza hisoblanadi. Ma`ruza tayyorlash ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ish. Bo'lajak kasb ta`limi

bakalavr o'qituvchilari «Kasb ta'limi pedagogikasi» fanida, pedagogik amaliyot jarayonida ma'ruza tayyorlashlariga to'g'ri keladi.

Masofali ta`lim texnologiyasi-Masofaviy ta`lim tizimi an`anaviy ta`lim tizimini amalga oshirishda muammolarga duch kelingan yoki shart – sharoit ushbu jarayonni taqozo qilganda qo'llaniladi. Bu jarayon ma'lum muhitda ta`lim samaradorligini oshirishga zamonaviy texnoloniyalardan etarlicha foydalanishga zamin yaratadi.

Masofaviy ta`limning asosini mustaqil ta`lim tashkil qilganligi uchun ham talabalarda ijodiy tafakkur rivojlanib boradi. Masofaviy ta`limda o'quv jarayonining muddati qat'iy belgilanmaydi. Nazorat ishlarini bajarish va javob yo'llashni talaba o'zi mustaqil, o'ziga qulay vaqtda bajaradi. Ushbu masofaviy ta`lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.Masofaviy ta`limni tashkiliy – metodik modellarini quyidagi asosda tashviq qilish mumkin Korrespondentlik ta`limi, Keys texnologiyasi, Radio – televizion ta`lim, Tarmoqli o'qitish, Mobil texnologiyasi va h.

Referat - mavzu bo'yicha referat tayyorlash uchun quyidagilar bajariladi.

- A) tartib bilan reja tuziladi,
- B) mahsus adabiyotlardan, jurnallardan, entsiklapediyalardan, lug'atlardan foydalanib mavzu yoritiladi.

Referat xajmi qul yozma shaklida 12-14 bet, komp`yuterda 8-12 bet atrofida bo'lishi mumkin. Referat-o'quvchining mustaqil ijodiy ishi bo'lib, o'quvchi uni o'quv dasturiga kiritilmagan, umumlashtirilgan, qisqartirilgan mavzular bo'yicha bajarsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchi referat shaklidagi mustaqil ish *rejası* mavzusini tuzishda aynan shu tomoniga etibor berishi zarur. Chunki, mustaqil ish shaklida referat tayyorlagan o'quvchi darsda takrorlanmagan mavzuni mustaqil o'zlashtiradi, mavzuni ijobiy, ilmiy jihatdan yondashib yoritadi, mavzudagi asosiy tushunchalar ma'lumotlarni ajratib olish va urganish borasidagi imkoniyatlarini namoyish qiladi.

Shuningdek o'zining taklif, muslohaza va hulosalari bilan boyita oladi. Referatni og'zaki shaklda himoyalash orqali o'quvchi referatni tayyorlash chog'ida mavzuga qanchali e'tiborlilik, qiziqish bilan yondashganini yaqqol qurish mumkin. Yangi mavzuni yoritib berish va darsda, darsdan tashqari vaqtda himoyalash chog'ida o'quvchi boshqalarni ham o'zlashtirilmagan shu mavzu bo'yicha qisman bo'lsa-da tushuncha qabul qilishiga imkon yaratadi.

Referatni o'quvchi reja asosida biror mavzu, bob, bo'lim bo'yicha bajarishi mumkindir.

Rejada kirish, mavzuni yorituvchi qismlar, hulosa va takliflar qismi bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Referatga tanlangan mavzuni yoritar ekan, o'quvchi faqat darslik bilan cheklanib qolmay, qo'shimcha va referatga beruvchi sharq adabiyotlardan rahbariy risolalar, matbuot materiallari, statistik va xronologik ma'lumotlardan, internetdan olingan ma'lumotlardan foydalanishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy fanlar tizimiga kiruvchi qo'yidagi fanlardan o'quvchilar o'z mustaqil ishlarini referat shaklida bajarishi mumkin.

Stend tayyorlash-stend tayyorlash uchun bir gurux o'quvchilar tomonidan reja bo'yicha mavzu tanlanib, talab qilingan ko'rgazmasi texnologik tasviri yoki uskunaning tasviri chiziladi va har bir tasvir bo'yicha tushuntirish yozuvlari mutaxassislik bo'yicha adabiyotlardan foydalangan xolda yoziladi.Elektrlashtirilgan stand. Buni tayyorlash uchun bir gurux o'quvchilar tomonidan reja bo'yicha mavzu tanlanib, talab qilingan kurgazmasi-texnologik tasvir yoki uskunani tasviri chiziladi, so'ng tasvirdagi uskunalar yoki uskunaning qisimlari

elektrolashtiriladi va xar bir tavir bo'yyicha tushuntirish yozuvlari mutaxassislik fanlaridagi adabiyotlaridan qayta foydalanib mavzu yoritiladi.

Uy vazifalarini bajarish daftarlari-ayrim o'quvchilar uy vazifalarini bajarishda fan kitoblaridan maxsus fanlarga taaluqli jurnal va gazitalardan, informatsion texnologiyalardan foydalanib uy vazifasini bayon shaklida ma'ruza matn shaklida sxema shaklida bajarishi mumkin. Vazifalarni bajarishda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib ma'lumotlar to'playdi, chizmalar chizadi. Bu esa mustaqil ish sifatida qabul kilinishi mumkin.

"Xalq pedagogikasi" fanidan mustaqil ta'limini tashkil etishning shakli va mazmuni

"Xalq pedagogikasi" fani bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'rurasini tinglaydilar, bahs-munozaralarda ishtirok etadilar va muammoli vaziyatlarni yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uyg'a vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni yechadi. Bundan tashqari ayrim modullarni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda modul bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uy vazifalarini bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va modulni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

"Xalq pedagogikasi" fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha modullarini qamrab olgan va quyidagi 10 ta katta modul ko'rinishida shakllantirilgan.

Talabalarning mustaqil ishlari har bir ma'ruza modulsi asosida tashkil etiladi. Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ishlarning bir necha turlaridan foydalaniladi:

- 1) adabiyotlar bilan ishslash;
- 2) ijodiy ish;
- 3) ba'zi modullar bo'yicha referatlar tayyorlash;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning modullari:

- 1.Jahon ta'limi tizimi to'g'risida qo'shimcha adabiyotlar tahlili.
- 2.Internet ma'lumotlari asosida jahon mamlakatlarida pedagogika fani rivojlanishining o'ziga xosliklarini qiyosiy tahlil etish.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

	Mustaqil ta'lim modullari	Berilgan topshiriqlar	Bajar. muddat.	Hajmi (Soatda)
3-semestr				
1	«Xalq pedagogikasi» fanining maqsadi, vazifalari, mazmuni.	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	1-2 - haftalar 4
2	Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy jayayonga tadbiq etish.	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	3-4- haftalar 4
3	Xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks etishi	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	5-6- haftalar 6
4	Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari.	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	7-8- haftalar 6
5	Xalq pedagogikasi va o'zbek xalq og'zaki ijodi	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	9-10 - haftalar 6
6	Xalq pedagogikasi va xalq og'zaki ijodida dostonlar.	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	11-12- haftalar 6
7	Xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	13-14- haftalar 6
8	Xalq pedagogikasida milliy o'yinlarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	
9	Xalq pedagogikasida diniy ta'limotlar.	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	14-15- haftalar 6
10	Xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va madaniyatining o'rni	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	15-16- haftalar 6
11	O'zbek xalqining muomala madaniyati, ahloqiy me'yorlari, turmush kechirish tartib-qoidalarini o'rganishning tarbiyavy ahamiyati	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	17-18- haftalar 6
12	Milliy musiqa, qo'shiqchilik va milliy teatrlar xalq pedagogikasining tarbiya vositasi sifatida	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	17-18- haftalar 6
13	Xalq pedagogikasi manbalarida ustoz- o'qituvchi kasbinining ulug'lanishi	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	17-18- haftalar 6
14	Xalq tarbiya nazariyasida tabiatni muhofaza qilish va sog'lom turmush masalalari	Adabiyotlardan konsept topshiriqlarni bajarish. Texnologik xaritalar tuzish	qilish. Individual Referat yozish.	17-18- haftalar 4
	Jami			78

IV. GLOSSARY

Xalq og`zaki ijodi - xalq shoiri yoki jamoa tamonidan yaritilib, og`izdan-og`izga, avloddan-avlodga, o'tib kelgan badiiy asarlarga deyiladi, yoki folklor deb ham yuritiladi. Xalq og`zaki ijodiga quyidagi janrlar kiradi: qo'shiq, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, doston, askiya, tez aytish, masal, alla, yor-yorlar, kelin salomlar va boshqalar.

Afsona - Hayoliy uydirmalar asos bo'lgan kichik nasriy hikoyalar. «Afsona» atamasi forscha, «fusun» (sehr, avrash, maxr) so'zidan olingan. Qadimgi turkiy adabiyotda «savf» deb nomlangan. Afsonalar tarix bilan bog`liq. Afsonalar asosida muayyan darajada tarixiy voqealar va xodisalar yotadi. Uzoq davr o'tgach, o'rnining aniq ildizlarini yo'qotadi.

Askiya: arabcha «zaki» so'zining ko'plik «askiya» shaklidir. Zexni o'tkir, so'zomon zakovatli ma`nolarini bildiradi.

RITUAL (lotin so'zidan «marosim») - xulq-atvorning tarixiy shakli bo'lib, o'zaro ijtimoiy va madaniy munosabatlarni, qadrqimmatni anglatuvchi bir maromga keltirilgan harakatlar tizimidir.

Rivoyat - xalqning tarixiy o'tmishi haqidagi badiiy yodnomalar. Afsonalarga qaraganda tarixga yanada yaqin turadi.

Topishmoqlarni o'zbeklar «jumboq», «jumoq», «ushuk», «toptop» atamalari bilan ataydi. Narsa yoki xodisalarni ataylab yashiringan belgisini boshqa narsalargaqiyoslash asosida topishga asoslangan savol yoki topshirqlar, topishmoqlar deyiladi.

Termalar – baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan 150-200 misragacha bo'lgan lirik, liroepik she`r. Hayotdagি turli hodisalar, shaxslar ta`rifi va tanqidi.

Tez aytish: ma'lum tovush va so'zni to'g'ri talafuz qilishga, nutqni o'stirishga mo'ljallangan.

Lof – biror voqeani o'ta bo'rtirib, hazil mutoyiba bilan aytish.

Lapar – aytishuv, asosan ikki kishi yoki ikki taraf tomonidan aytildi.

Qo'shiq - kuya solib aytildigan kichik lirik she`r.

Maqol - Xalqning purhikmat, dono ifodalari, yirik arboblar, olimlarning ibratomuz gaplari, xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarningifodasi. She`riy va nasriy tuzilishga ega.

Matal - Ko'chma ma'noda ishlatiluvchi xalq ma'joziy iboralarining bir turi. Matalda kinoya, o'xshatish, qochirma so'zlar va boshqa til qo'llaniladi. Ma'joziy iboraning o'z asl ma'nosini bilan ko'chma ma'nosini o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'ladi. «Temirni qizig'ida bos», «Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin».

AN'ANA - bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnnini topgan, avloddanavlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

ODAT - («urfodat») - kishilarning turmushiga singib ketgan ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xattihapakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilinganxulq-atvor qoidalari, ko'nikma.

MAROSIM — bu ko'pincha an'ana va urfodatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbi

O'YIN -tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri. O'. insoniyatning butun tarixi mobaynida diniy marosim, sport, harbiy va boshqalar mashqlar, shuningdek, san`at, ayniqsa uning ijro shakllari bilan qo'shilib kelgan.

ODAT - («urfodat») - kishilarning turmushiga singib ketgan ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xattihapakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikma.

Qur'on – barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, 114 suradan iborat. U kishilarni ezgulikka, diniy va dunyoviy ilmlarni o'rganishga undaydi. Shunga ko'ra, u katta axloqiy va ilmiy qimmatga ega.

Hadis yoki Sunna – Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat.

NAZORAT TURLARINI O`TKAZISH TARTIBI

1. Joriy nazoratni o`tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada akademik guruhning barcha talabalarini ishtirokida quyidagi shakllarda o`tkaziladi:

- uy vazifalarini tekshirish;

2. Oraliq nazoratni o`tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhdagi barcha talabalarini ishtirokida quyidagi shakllarda o`tkaziladi:

- yozma ish.

3. Yakuniy nazoratni o`tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhning barcha talabalarini ishtirokida 6-semestrda “Og’zaki”, 7-semestrda “Yozma” tartibida o`tkaziladi.

“Xalq pedagogikasi.Qiyosiy pedagogika” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni.

“Xalq pedagogikasi. Qiyosiy pedagogika” fani bo’yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo’yicha birinchi mashg’ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo’yicha talabalarning bilim saviyasi va o’zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o`tkaziladi:

Joriy nazorat (JN) – talabaning fan modullari bo’yicha bilim va amaliy ko’nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg’ulotlarda og’zaki so’rov, test o’tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshha shakllarda o`tkaziladi;

Oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o’quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha modullarini o’z ichiga olgan) moduli tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko’nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat ikki marta o’tkaziladi va shakli (yozma, og’zaki, test va hokazo) o’quv faniga ajratilgan umumiyoq soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

Yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo’yicha nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarni talabalar tomonidan o’zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o’tkaziladi.

ON o’tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o’rganib boriladi va uni o’tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o’tkaziladi.

Universitet rektorining buyrug’i bilan ichki nazorat va monitoring modullari rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o’tkazish jarayoni muntazam ravishda o’rganib boriladi va uni o’tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o’tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko’nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo’yicha o’zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash mezoni

Ball	Talabalar bilim darajasi
86-100	<ul style="list-style-type: none"> - talabalar mashg'ulotlarga doimo tayyorlagan, juda faol, dasturiy materiallarni yaxshi biladi, xulas qarorlar qabul qiladilar ijodiy fikrlaydi, amaliyatda qo'llay oladi; - talaba ijodiy masalalarni hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qo'lash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, yechimni topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yo'nalashlarni topa oladi, o'quv materialini mohiyatini tushunidi; - talaba taqdim etilgan o'quv masalalarini yechish yo'lini izlaydi dasturiy materiallarni biladi va ayтиб beraoladi xamda tasavvurga ega bo'ladi.
71-85	<ul style="list-style-type: none"> - talaba o'rganilayotgan xodisalar aloqadorligini bilish xamda ob'ktini tavsiflay olish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan birgalikda, qo'yilgan masalalarni sabab-oqibat aloqadorligini ochib bergen xolda yecha oladi. O'tilayotgan nazariy bilmlarni amaliyat bilan bog'lay oladi va mustaqil mashohada qilaoladi; - bilim va ko'nikmalar mazmunini tadbiq qila olish mahorati, bir ishdagi masalalarni yecha olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarni amaliyatda qo'llay oladi; - talaba mashg'ulotlarga tayyorlangan, dasturiy materiallarni biladi, mohiyatini tushunadi va tasavvurga ega.
55-70	<ul style="list-style-type: none"> - talabaning eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan algoritim va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatini tushunadi; - talaba qator belgilarni asosida ma'lum ob'ektini farqlash bilan birgalikda unga ta'rif bera oladi va o'quv materiallarni tushuntirib bera oladi va tassavvurga ega.
0-54	<ul style="list-style-type: none"> talaba tassavvurga ega emas; talaba dasturiy materiallarni bilmaydi.

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari	
		maks	O'zgarish oralig'i
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashgulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlарining yuritilishi va holati	10	0-10
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Modular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	0-10
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	15	0-15
Jami JN ballari		35	0-35

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari	
		maks	O'zgarish oraligi
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlарining yuritilishi va to'ligligi.	10	0-10
2	Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	5	0-5
3	Og'zaki savol-javoblar, kolokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	20	0-20
Jami ON ballari		35	0-35

Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilib, sinov 30 variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savollar va 1 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar va amaliy topshiriqlar fanning barcha modullarini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-10 ball oralig'ida baholanadi. Har bir amaliy topshiriq ham 0-10 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Yakuniy nazorat "Yozma" shaklida o'tkazilishi belgilanganligi uchun u maksimal 30 ballik tizimda o'tkaziladi.

Didaktik vositalar

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska - Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter,Delltipidagi proyektor,DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok)

Foydalilanildigan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008 y.
2. Mutualipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y.
3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi - T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005 y. 287-297-b.
4. Vulfson B.F. Sravnitel'naya pedagogika M.: «Prosvetlenie», 2003 g.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy lavobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.
5. Hoshimov K., S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1995 y.
6. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. T.: O'qituvchi, 1994 y.
- 7.G'aniev J.G'. Xorijda ta'lim. T.: Sharq, 1995.
8. Joyce, B., Calhoun, E., Hopkins, D «Pedagogy, Teaching Practices» 2004,Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries.e

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz

5. tdpu-INTERNET. Ped

Foydalilaniladigan asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati

Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008 y.
2. Mutualipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y.
3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi - T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005 y. 287-297-b.
4. Vulfson B.F. Sravnitelnaya pedagogika M.: «Prosvetenie», 2003 g.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy lavobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjalari to‘plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta’minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.
5. Hoshimov K., S.Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1995 y.
6. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. T.: O‘qituvchi, 1994 y.
- 7.G‘aniev J.G‘. Xorijda ta’lim. T.: Sharq, 1995.
8. Joyce, B., Calhoun, E., Hopkins, D «Pedagogy, Teaching Practices» 2004,Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries.e

Elektron ta’lim resurslari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-INTERNET. Ped